3. Karyer ish gorizontlarini ochish usullari.

Tayanch iboralar: ochish sxemasi, ochi sxemasining faoliyat kursatish davri, yalpi kazish sistemalarida ochish sxemalari, ochish sxemasining uzgarishi, ochish tizimi, ochish usuli sxemasi va tizimini tanlash, usullar kombinatsiyasi, ochish tizimi variantlari.

Kon ishlari rivojlanishining boshlang'ich bosqichlari

Ish gorizontlarning ochilishi buning uchun mo'ljallangan maxsus lahimplarni qurish vositasida amalga oshiriladi. Kon massasini tashilishini ta'minlash uchun har bir gorizont kapital transheya (11.1, a rasm), qoidaga ko'ra qiyasi bilan ochilishi kerak, chunki u ochiladigan gorizont belgisini mavjud gorizont va sirtlar belgisi bilan bog'laydi.



11.1 rasm. Gorizontda kon ishlari rivojlanishining boshlang'ich davri sxemasi.

Gorizontdagi kon ishlarini dastlabki frontni yaratishdan boshlashadi, buning uchun zahira transheya (11.1 b rasm) yoki zahira kotlovanni (11.1 v rasm) o'tkazishadi. Ba'zan jinsni, agar ekskavatorlar parametric imkon bersa, bort oldi ag'dargichida joylashtirishadi, lekin ko'pincha uni tashqi ag'dargichga transportlashadi. Keyin kesik transheya (11.1 b rasm) yoki kesik kotlovanning (11.1 g rasm) bir yoki ikki borti tashilishi amalga oshiriladi. Yuqori kamarni zarur tiralishidan so'ng pastda joylashgan gorizontni ochish va uning chegarasida kesik lahimplarni o'tkazish imkoniyati paydo bo'ladi. Ishchi gorizontlarning bo'ylama qiyaligi yuklanishda transport vositalarining ish xavfsizligi ta'minlanishi hisobga olingan holda o'rnatilishi kerak.

Kesik transheyalarni yotqizish joyini tanlashga asosan sirt va yotiqlik tomi relyefi va kon-qurilish ishlarining hajmini karyerni tez orada foydalanishga topshirish uchun qisqartirish zaruriyati ta'sir qiladi. Odatda gorizontal va qiya konlarni ishlab chiqishda kesik transheyalarni yotiqlik

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

bo'yicha o'tkazishadi. Bu katta ishlab chiqarishga ega mashinalar uchun ishlarning yetarli frontini ta'minlaydi va foydali qazilmaning katta ochilgan zahiralarini olish imkonini beradi. Kichik karyerlarda tayyorgarlik ishlari ketma-ket ravishda bir nechta nisbatan qisqa bo'laklar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunday tartibda ko'pincha qurilish kon jinslari yotiqliklarini ishlab chiqishadi, bu ochish ishlariiga dastlabki harajatlarni va qo'llaniladigan qurilmani kamaytirish imkonini beradi.

Qiya plastlarning svitini va murakkab qurilishga ega yotiqliklarini ishlab chiqishda kon ishlari rivojlanishining yo'nalishi foydali qazilma va bo'sh jinslarni alohida olish imkoniyati bilan ta'minlashi kerak. Plast yotiqliklarini ishlab chiqishda ishlar kamayish tartibida va kamdan-kam holatlarda oshish tartibida rivojlanadi. Agar ochish sharoitiga ko'ram ishlar frontini qisqa o'q atrofida yoki karyer maydoni dioganali bo'yicha joylashtirilsa, karyerning zarur quvvatiga ishlar frontining yuqori tezlikda siljishi bilan erishiladi.

Ishlar frontining har qanday joylashuvi va kon ishlari rivojlanishining har qanday yo'nalishida maydoni $F (m^2)$ (sirti bo'yicha) va o'rta quvvati $N (N)$ bo'lgan kamar jinslar qalinligi T oy ichida taqvim rejasiga ko'ra qayta ishlanishi kerak. Ishlab chiqish intensivligining taqqoslanadigan ko'rsatkichida ochiladigan maydonning o'rtacha oy kattaligi qabul qilinishi mumkin

$$F_m = F/T = L_{f,u} v_f,$$

Bu yerda $L_{f,u}$ - kamar ish frontining qabul qilingan o'rta davomiyligi, m; v_f —ishlar frontining siljishi oyning o'rta tezligi, m/oy.

Ishlar frontining siljish tezligi birinchi navbatda kon massasi zahiralarini olish intensivligi bilan aniqlanadi.

Ochiladigan kon ishlari

Kapital transheyalarining bo'linishi 11.1 jadvalda keltirilgan. Statsionar tashqi va ichki kapital transheyalar uzoq vaqt davomida ishlatiladi. Ularning parametrlari (boshlang'ich va yakuniy chuqurlik, bo'ylama qiyalik, uzunlik, bort qiyaligi burchaklari) o'rab turgan jinslarning xususiyatlari, alohida sharoitlar va transport kommunikatsiyalarini loyihalashtirishning texnik sharoitlariga bog'liq ravishda qat'iy reglamentланади.

11.1 jadval. Kapital transheyalarining ajratilishi (E. F> Sheshko bo'yicha)

Принцип разделения	Основные различия	Траншеи
Расположение траншей относительно контура карьера	Расположение вне контура карьера	Внешние
Число уступов, обслуживаемых системой траншей	Расположение внутри контура карьера	Внутренние
Основное назначение траншей	Один уступ	Отдельные
	Несколько (группа) уступов	Групповые
	Все уступы карьера до конечной глубины	Общие
	Для движения груженых и порожних поездов (маятниковое движение транспорта)	Одинарные
	Для движения только груженых или только порожних поездов (поточное движение транспорта)	Парные
Стационарность траншей	Постоянное расположение за контуром или на бортах в конечном положении	Стационарные
	Временное расположение внутри конечных контуров на бортах, подлежащих разработке	Скользящие (временные)

Alovida kapital transheyalarining ko'ndalang kesimi trapetsiyasimon yoki uchburchaksimon. Transport va himoyalovchi bermalarni transheya bortlarida joylashtirganda ular

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

pog'ona shakliga ega bo'ladi. Kapital transheyalar chuqurligi odatda noldan bir yoki bir necha kamarlar balandligiga teng kattalikkacha o'zgaradi. Kapital transheyalarning tik nishabliklari (qiyaliklari) qo'llaniladigan transport turiga bog'liq bo'ladi (11.2 jadval).

11.2 jadval. Kapital transheyalarning xos bo'lgan ko'tarilishlari

Вид карьерного транспорта	Величина подъема в направлении движения транспортных сосудов, %	
	груженых	пустых
Наклонные траншеи		
Железнодорожный:		
паровая тяга	0,02—0,03	0,025—0,035
тепловозная и электрическая	0,025—0,04	0,025—0,06
тяга		
моторные вагоны	0,04—0,05	0,06—0,08
Автомобильный	0,05—0,1	0,08—0,12
Крутые траншеи		
Бесклетевой подъем с тягачами	0,12—0,25	—
Ленточные конвейеры	0,25—0,33	—
Клегевой подъем	0,25—0,5	—
Скиповoy подъем	0,50—1,0	—

Kapital transheyalar bort qiyaliklarining burchaklari ularning xizmat qilish muddati, jinslar xususiyati, ularning suvliligi bilan aniqlanadi. Uzoq muddat xizmat qiladigan transheya borti uzoq vaqtli turg'unlikka ega bo'lishi kerak; uning tuproqli, yumshoq, zikh va yarim qoya jinslardagi qiyalik burchagi tabiiy qiyalik burchagidan katta qilib olinmaydi, qoya jinslarda esa – 50 – 60°. tashqi kapital transheyalarning ikkala borti ham doimiy holatga ega, statsionar ichki kapital transheyada esa faqat bir bort doimiy holatga ega. Kapital transheyalar tubining minimal kengligi transport vositalari o'lchamining yig'indisi, ular orasidagi xavfsiz oraliq, tub bo'yicha joylashadigan maydon va ariqlarning ko'ndalang o'lchami bilan aniqlanadi. Transport kommunikatsiyalarini joylashtirish shartlari bo'yicha o'rnatilgan kapital transheya tubining kengligi transheya o'tkazish ehtimoli shartlari bo'yicha tekshiriladi.

Yer osti ochuvchi lahimlarning ko'ndalang kesim maydoni transport qurilmasining o'lchamlari va yo'l rivojlanish sxemalari (zarur oraliqlarni hisobga olgan holda) bo'yicha aniqlanadi. Keng izli temir yo'l transporti qo'llaniladigan sharoitlar uchun (dumpkarlar, gondolalar va sanoat elektrovozchlari) lahim kesimi (tonnel) GOST lar bilan reglamentlanadi.

Karyer ishchi gorizontlarini ochish usullari

Karyerning ishchi gorizontlarini ochish kamarlarda shakllangan sirt yoki oraliq yuk oqimlarida yuklarni ishchi gorizontlardan qabul punktlarigacha ko'chirish imkonini beradigan transport kommunikatsiyalari bilan yuk oqimlarini ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Ochish lahimlari sirdan yoki ochiq oraliq ishchi gorizontdan boshalanib, ochiladigan gorizont ishchi maydoni belgisida yakunlanadi.

Ochish usuli qator omillar, birinchi navbatda ochuvchi lahimlar ko'rinishi bilan aniqlanadi.

Alohiba holatlarda (gumbazli ekskavatorlar va kabelli kranlardan foydalanilganida) butun konning ishlab chiqilishi va karyer yuklarini ko'chirish ochish ishlarini o'tkazmasdan amalga oshiriladi. Ochish ishlari bo'limganda ham karyerning alohiba ishchi gorizontlariga transport kirishi yaratilishi ehtimoli bor: masalan, yuza jinslarni kon usti yoki kon usti-chuqurlik ko'rinishidagi karyerlarning gorizont osti ag'dargichlariga ko'chirishda, ishchi bortda joylashgan konveyerlardan foydalanishda va hokazo. Ochishning bunday usuli transheysiz deb ataladi.

Ko'p holatlarda karyerning ishchi gorizontlari kapital transheya yoki yarim transheyalar bilan ochiladi. Kamroq holatlarda yer osti lahimlar (qiya yoki vertikal stvollar, shtol, tonellar bilan), shuningdek kombinatsiyalangan usulda amalga oshiriladi.

G'ildirakli transport vositalari harakati uchun mo'ljallangan transheyalar (temir yo'l va avtomobil transporti), qiya bo'lishi kerak; ko'targich bilan vositalanadigan transheyalar – katta.

Umumiyl trassa bilan transheyalar xizmat ko'rsatadigan kamarlar soniga qarab (bir, guruh

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI
yoki karyerning barcha kamarlari) mos ravishda alohida, guruhli va umumiy transheyalarga ajratishadi (11.1 jadvalga qarang).

Tashqi transheyalar statsionar yoki yarimstatsionar bo'ladi. Ichki transheyalar statsionar (karyerning ishsiz bortlarida joylashgan), yarim statsionar, vaqtincha va sirg'aluvchi bo'ladi. Karyerning ishchi bortlarida vaqtincha va yarim statsionar ichki transheyalarni kon-kapital ishlarning hajmini kamaytirish uchun va ochish ishlari hajmini vaqt bo'yicha taqsimlashda qo'llaniladi.

11.3 jadval. Ochish usullarining sinflanishi

Признак способа вскрытия	Способ вскрытия		
	открытыми выработками (траншелями)	подземными выработками	комбинацией открытых и подземных выработок
Положение вскрывающих выработок относительно конечного контура карьера	Внешними, внутренними или смешанными траншелями и полутраншелями	Внешними, внутренними или смешанными	Внешними, внутренними или смешанными
Стационарность выработок	Стационарными, полустанционными и временными (скользящими) траншелями или полутраншелями	Стационарными	Стационарными или комбинацией стационарных с полустанционными (временными)
Наклон выработок	Крутыми или наклонными траншелями и полутраншелями	Вертикальными, крутыми, наклонными или горизонтальными	Комбинацией вертикальных, крутых, наклонных или горизонтальных
Число обслуживаемых горизонтов	Отдельными, групповыми или общими траншелями и полутраншелями	Отдельными, групповыми или общими	Отдельными, групповыми или общими
Характер движения транспортных средств на уступе (поточное или маятниковое)	Одинарными или парными траншелями и полутраншелями	Одинарными или парными	Одинарными или парными

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

Bir (birli) kapital lahim bilan ochilgan ishchi gorizontda ko'pincha transport vositalarining mayatniksimon (qaytadigan) harakati qo'llaniladi. Agar ishchi gorizont ikki lahim bilan ochilgan bo'lsa (yuk va yuksiz), unda kamarlarda transport vositalarining bir tomonli harakati ta'minlanadi va bu holatda vaqt ichida kon qurilmasidan foydalanish oshadi, buning natijasida ochuvchi lahimlar qurilishida harajatlar oshishi qoplanadi. Bunday lahimlarni juftli deb atashadi, ular ichki yoki tashqi yotiqlikka ega bo'lishi va alohida, guruhli yoki umumiy transheya yoki yarim transheyalardan tashkil topishi mumkin. Mos ravishda birli va juft trassalarni ajratishadi. Jift transheyalar va trassalarni asosan intensiv yuk almashinuv bo'lган chuqur bo'lмаган карьерларда qo'llashadi.

Kapital transheyalar bo'linishing ko'rsatilgan bosh omillari bilan mos ravishda 11.3 jadvalda professor E. F. Sheshko sinflashi asosiga qurlgan ochishning asosiy usullari sinflanishi keltiriladi. Yer sirtining ustun bo'lган darajasidan pastda joylashgan gorizontlarni ochishda kapital transheyalarning bo'ylama profile yuk ortilgan transport vositalari harakati yo'nalishida ko'tarilish bilan, yer sirtining ustun bo'lган darajasidan yuqorida joylashgan gorizontlarni ochishda esa – yuk ortilmagan transport vositalari harakati yo'nalishida ko'tarilish bilan xarakterlanadi. Karyer maydoni va yotiqligiga nisbatan ochish lahimlar joylashuvi bo'yicha yon va markaziy transheyalar bilan ochish (yoki yer osti lahimlari bilan), yotgan va osilgan yon otiqlik tomonidan ochish, shuningdek karyer torsidan ochish usullarini farqlashadi.

Mashg’ulot maqsadi: Trassa va ochuvchi lahimplarning trassalanishi bilan, kapital lahimplarning trassa shakli bilan tanishish.

Reja:

1. Ochuvchi lahimplarning trassalari.
2. Kapital lahimplarning trassa shakllari.

Tayanch iboralar: konlar shakli, katlamsimon uyumlar, katlamlar, murakkab shaklli uyumlar, tektonik buzilgan katlamlar tizimi, togli turdag'i konlar, baland chukur turdag'i konlar, konning ustunlik kiluvchi turlari buyicha turlari.


Transheya yoki boshqa lahimning trassasi – bu sohada yotqizilishi transport yo’li yer polotnosining plan va profilini aniqlaydigan chiziq. Trassaning gorizontal proeksiyasi yo’l polotnosi, uning vertikal proeksiyasi esa – yo’lning bo’ylama profili hisoblanadi. Planda yo’l to’g’ri chiziqli va egri chiziqli qismlardan, profilda esa – gorizontal va qiya qismlardan, shuningdek o’tishlarning talab qilinadigan ravonligini ta’minlovchi ular orasidagi tutash qismlardan tashkil topadi.

Trassalash plan va profilda transport yo’lining o’qini o’rnatishdan iborat. Trassa o’tishi kerak bo’lgan punktlar topografik, geologik, qurilish va boshqa omillar birlashmasi bilan aniqlanadi.

Karyer konturiga nisbatan trassani yotqizish bo'yicha lahimlarga mos ravishda tashqi, ichki va aralash trassalarni farqlashadi. Xizmat ko’rsatish muddatiga ko’ra statsionar, yarim statsionar va sirg’aluvchi (vaqtincha) trassalarni farqlashadi; birinchilar karyer ishchi bortlarida, ikkinchilari esa – karyer ishchi bortlarining vaqtincha to’xtatilgan qismlarida, sirg’aluvchi (vaqtincha) esa – karyer ishchi bortlarining ishlab chiqiladigan qismlarida joylashadi.

Kapital transheyalarini trassalash uchun planda kamar balandligiga teng interval bilan bir xil yuqori belgilarning izo chiziqlari bilan tasvirlanadigan karyer bortlarining oraliq yoki yakuniy holati asos hisoblanadi. Tashqi transheyalarining trassasi sirtdan ochiladigan kamar holatini aniqlaydigan gorizontalgacha o’tkaziladi; ichki transheyalar trassasi bort bo'yicha o’tadi va kamarlarni chegaralovchi gorizontallarni kesib o’tadi (12.1 rasm).

Odatda trassani sirt relyefining pasaygan joylarida karyer konturini uning torsidan kiritishadi, bu karyer maydonining ichki konturlari trassalanishini osonlashtiradi va kon-qurilish ishlari hajmini qisqartiradi. Trassa holatini tanlashda shuningdek bortning kapital transheyalar joylashtirish joyining mustahkamligini ta’minlash zarur bo’lgan qismlarini, ularning xizmat ko’rsatish muddatini oshirish ehtimolini, sirt va ag’dargichlarga kelishda stansiya va ag’dargichlarni joylashtirish qulayligini, sirtda yo’llarning, shuningdek karyerda transheyalar va zaboy yo’llar orasidagi ulovchi yo’llar uzunligini va hokazolarni hisobga olishadi.



12.1 rasm. Kapital transheyalarni trassalash sxemasi:

A, B, V, G, D - trassaning gorizontlarga ulanish punktlari; E – trassanining boshi

Ustun bo'lgan ko'tarilish kattaligi, trassa boshi va oxiri balandlik belgilarining farqi, egri chiziqli qismlarning radiusi, trassanining teoretik va haqiqiy uzunligi, gorizont yo'llarning qiya yo'llarga ulanish punktlarining konstruksiyalar soni trassanining asosiy parametrleri hisoblanadi.

Trassanining teoretik uzunligi L_t (m) u o'tadigan N_o va N_x balandlik belgilarining farqi va trassanining gorizontga qiyalik burchagi (gradus) I bilan aniqlanadi:

$$L_t = (H_o - H_x) / \operatorname{tg} I = H / i_r,$$

Bu yerda i_r - trassanining ustun bo'lgan ko'tarilishi (qiyaligi).

Trassanining haqiqiy uzunligi L_d (m) egri chiziqli qismlarda va transheyalarning ishchi gorizontlarga ulanish qismlarida trassa qiyalik burchagi kamayishi natijasida kelib chiqadigan uning cho'zilish teoretik natijasidan katta. Shuning uchun $L_d = K_u L_t$, bu yerda K_u – trassanining cho'zilish koeffitsiyenti.

G'ildirakli transport qo'llanilganida trassanining egri chiziqli qismlarida harakatga qarshilik ω_k (N/t) kattalikka oshadi va transheyalar ko'tarilishini $i_d = i_r - \omega_k/g$, % kattalikkacha yumshatish kerak. ω_k kattalik egri chiziqli radiusi R ga bog'liq. Egri chiziqning eng kichik radiusi R_{min} harakatdagi tarkibning kostruktiv o'tishiga bog'liq ravishda o'rnatiladi. R_{min} kattalik egri chiziqlar yotqizish uchun zarur karyer bortlarini tashish hajmiga ta'sir qiladi, buning natijasida umumiy holatda egri chiziqlarning eng kichik radiuslariga yo'l qo'yadigan harakatli tarkibni qo'llash maqsadga muvofiq.

Temir yo'l transportida profil elementining eng kichik uzunligi (ko'tarilish kattaligi o'zgarmaydigan yo'l bo'lagi) poezdlarning xavfsiz harakati sharti bilan aniqlanadi. Agar poezd vaqtning har qanday onida yo'l profilining bittadan ko'p bo'limgan uzilishli joyidan o'tsa doimiy harakat ta'milanadi. Shuning uchun profilning bir element uzunligi poezd uzunligidan kichik bo'lmasligi kerak.

Kapital lahimplarning trassa shakllari

Planda kapital lahimplarning trassa shakli oddiy hisoblanadi, agar trassa karyerning bir bortida joylashgan bo'lsa va butun uzunlik bo'yicha o'z yo'nalishini o'zgartirmasa. Trassa murakkab hisoblanadi, agar u bir yoki bir necha o'zaro bog'liq turli yo'nalishlardagi bo'laklardan tashkil topsa, yoki agar u karyerning barcha bortlaridan o'tsa. Tashqi transheyalarning trassalari doim odiy, ichki transheyalar odatda murakkab trassalarga ega bo'ladi.

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

Planda trassa shakli karyer maydoni o'lchami, ustun bo'lgan ko'tarilish va profil elementlari bilan mos ravishda o'rnatiladi.

Agar ichki transheyalar trassasining haqiqiy uzunligi mos keladigan gorizont L_k da uzunlik bo'yicha kaeyer uzunligidan oshmasa, unda oddiy trassa bir bortda to'liq joylashadi. Biroq $L_d = K_y H_k / i_p \leq L_k$ shart faqatgina berilgan ustun ko'tarilish i_p va trassani uzaytirish koeffitsiyenti K_u da karyer maydonining uzunligi L_k va karyer chuqurligi N_k nisbatlari ijobiy bo'lgandagina bajariladi.


Agar $L_d = K_y H_k / i_p > L_k$ bo'lsa, unda trassalashda quyidagi ikki holat bo'lishi mumkin.

1. Trassani karyerning bir bortidan joylashtirishadi va uning yo'nalishini to'g'ridan teskarisiga trassani joylashtirish uchun necha marta kerak bo'lsa o'shancha marta n_1 o'zgartirishadi:

$$L_d = K_y H_k / i_p = n_1 L_k.$$

n_1 kattalik butun va kasr bo'lishi mumkin. Trassaning to'g'ri qismlar bunda tupik yoki kichik radiusli halqalar vositasida ulanadi. Halqali ulanishni (8.2 a rasm) odatda avtotransportda, tupikli ulanishni esa (8.2 b rasm) – temir yo'l transportida qo'llashadi.

Butun trassani karyerning bir bortida joylashtirish yotiqlikdan osilgan yon tomonga yotiqlikni ishlab chiqishda va frontning parallel siljishida ratsional hisoblanadi. Biroq tupiklar bo'lishi trassaning tashish xususiyatini pasaytiradi, chunki tupiklarda poezd harakatlanish yo'nalishi o'zgaradi, bu uning tormozlashi va to'xtashini talab qiladi. Harakatni tashkil qilish ham qiyinlashadi. Shuning uchun tupikli trassalarni, hech bo'limganda, karyerning yuqori gorizontlari guruhida qo'llash kerak emas.



12.2 rasm. Planda trassa sxemalari:

i_p – tutashish maydoni uzunligi

2. Trassani bortning bir tomonidan ikkinchi tomoniga bortlarning o'rta perimetri $P(m)$ uzunligida ularning mos keluvchi gorizontlarida joylashtirilishi uchun necha marta zarur bo'lsa shuncha marta n_2 o'tkazishadi:

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

$$K_u N_k / i_r = n_2 R.$$

Bu holatda trassa karyerni spiral ko'rinishida o'raydi (8.2 v rasm). Spiral trassa karyerning torsli bortlarida joylashadigan va odatda katta radiusga ega bo'lgan egri chiziqli qismlarni o'z ichiga oladi. Bu holatda egri chiziqlarning joylashtirilishi qiyinchilik tug'dirmaydi va qoidaga ko'ra, maxsus yarim ko'tarma yoki yarim olishlar yaratishni talab qilmaydi.

Ko'pincha ichki trassa bir vaqtning o'zida to'g'ri, spiral va tupik (halqali) qismlarni o'z ichiga oladi (12.2 g rasm). Bunday murakkab trassalar qurilganda alohida gorizontlarni ochish sharoitlari, karyer transporti ishining effektivligi va ishlab chiqishning ratsional tizimini qo'llash yaxshilanadi.

Ichki trassa tashqisining bevosita davomi hisoblanadi. Bunday aralash trassani odatda chuqur karyerlarda ochish uchun qo'llashadi: bir necha tashqi gorizontlar tashqi trassadan foydalanilib ochiladi, karyerning pastdag'i gorizontlariga esa ichki trassa o'tkaziladi.

Ichki kapital transheyalar trassasining chuqurlashishi uning qiyaligining o'rta kattaligi va haqiqiy uzunligi orqali aniqlanadi.

Oddiy trassani karyer uncha chuqur bo'lмаган va sezilarli uzunlikka ega konlarni ishlab chiqishda, tupiklini esa – uzunligi bo'yicha konlarning nisbatan kichik o'lchamlarida, ayniqsa karyer o'lchamlari uzunligi bo'yicha katta bo'lмаган katta qiyalikda qo'llaniladi. Halqa trassani ichki transheyalar bilan ochishda yaratishadi, agar avtotransportdan foydalanssa va ehtimoli bo'lгanida temir yo'l transportida. Spiral trassani agar halqa yoki tupik trassalarni qo'llashning rudalar joylashuvi, bortlarning tashilish, talab qilinadigan tashish xususiyati, karyer transporti ishining effektivligi shartlariga ko'ra imkon bo'lmasa yoki ratsional bo'lmasa qurishadi. Spiral trassada temir yo'llarni qayta qurish juda qiyin va shuning uchun u bu holatda statsionar bo'lishi kerak. Avtomobil transportida avtoyo'llarning davriy ravishda qayta qurilishining imkon mavjud.

7-MA'RUZA**MAVZU:KAR`ER MAYDONINI QAZIB OLUVCHI QATLAMLARGA BO'LISH. POG`ONALARING BALANDLIGI VA MUSTAHKAMLIGI**

Mashg'ulot maqsadi: Kar`yer maydonining olish qatlamlariga bo'linishini ko'rsatish. Kar`yer elementi sifatida kamar bilan tanishish.

Reja:


1. Gorizontal olish qatlamlari.
2. Qiya olish qatlamlari.
3. Pog'ona balandligining qator umumiy kar`yer ko'rsatkichlariga ta'siri.
4. Pog'ona qiyaligining mustahkamligi.

Tayanch iboralar: kazib olish sistemasi, E.F.SHeshko klassifikatsiyasi, agdarmalar, agdarmalarga joylashtirish, N.V.Melnikov klassifikatsiyasi, kazib olish tizimining asosiy xarakteristikasi, kullanilish sharoiti, tegishli kazib olish joyi va transport uskunalari, V.V.Rjevskiy klassifikatsiyasi, tashki agdarmali kazib olish tizimlari.

Ochiq kon ishlari olishning va foydali qazilmalar, qoplaydigan va aralash jinslarni ko'chirishning ma'lum tartibini xarakterlaydi. Jinslarni rejali ishlab chiqilishi va qurilmalardan ratsional foydalanish uchun karyer maydonini alohida olish qatlamlari, ko'pincha gorizontal qatlamlarga bo'lishadi (2.2 rasm). Qatlamlarning olinishini jinslarning plastlanish yo'nalishidan qat'iy nazar ketma-ket yuqorida pastga amalga oshirishadi.

Qatlamlarning ehtimoli bo'lgan soni plandagi karyer chuqurligi va o'lchamiga bog'liq. Karyer chuqurligi bo'yicha qatlamlarning quvvati turlicha bo'lishi mumkin. Qatlamlarni bir vaqtida qayta ishlanganda kamarlar shakllanadi.

Karyer maydonining profilida yotiqlik bo'yicha kamarlar soni yotiqlik quvvati (5.1 rasm), uning tushish burchagi, jinslarni ishlab chiqish murakkabligi, qo'llaniladigan olish-yuklash va transport vositalariga bog'liq.



5.1 rasm. Foydalni qazilma yotiqliklarining sxemasi:


a - gorizontal; b - qiya va katta; 1, 2, 3 va 4 – mos ravishda o'ta kichik, kichik, o'rta quvvatli va quvvatli yotiqliklar; SHr.p - kamar ishchi maydonchasining kengligi

O'ta kichik quvvatli yotiqliklarni bir kamar bilan qayta ishlashadi; bunda vertikal quvvati $mv \leq 2 \div 3$ m bo'lgan gorizontal yotiqliklarni bir kovshli ekskavatorlar bilan ishlab chiqish effektli emas, gorizontal quvvati $mg \leq 20 \div 40$ bo'lgan qiya va katta yotiqliklarda esa yangi kamarning kesilishi nafaqat foydalni qazilmani yuqorida yotuvchi gorizontdan to'liq olish, balki kamarni aralash jinslar bo'yicha qo'shimcha siljitim bilan bog'liq (5.1 a, 1 va b, 1 rasm). Foydalni qazilmani kichik quvvatli ($mv = 4 \div 20$ m) gorizontal yotiqliklardan olinishi normal balandlikdagi bir kamar bilan amalga oshiriladi, qiya va katta yotiqliklarda esa ($mg = 20 \div 40$ m) navbatdagagi kamarning kesilishi yuqorida yotgan gorizontdagi yotiqliknii olishdan so'ng imkonli bo'ladi (5.1 a, 2 va b, 2 rasm).

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

O'rta quvvatdagi yotiqliklarni ($mv= 15\div40$ m, $mg = 50\div120$ m) karyerning bir profilida ikki kamar bilan bir vaqtida ishlab chiqish mumkin (5.1 a, 3 va b , 3 rasm). Quvvatli yotiqliklarni ($mv>20\div40$ m, $mg>80\div150$ m) uch va undan ortiq kamarlar yoki kichik kamarlar bilan ishlab chiqishadi.

Ba'zan qiya va nishabli yotiqliklarda ishlab chiqishni jinslarning plastlanishi bo'yicha turli quvvatli (plastlar quvvatiga qarab) qiya qatlamlar (kamarlar) bilan olib borishadi (5.2, a rasm). Alovida plastlarni ketma-ket ravishda oldindan ishlab chiqishadi. Kamdan-kam holatlarda ishlab chiqishni karyer maydoni markazidan boshlab uning chegaralarigacha katta (25-30o dan ortiq) qatlamlar bilan amalga oshirishadi (5.2. b rasm). Bunday olish faqatgina katta yotiqlik va bir jinsli tosh massivlarini ishlab chiqishda imkonli. U mustahkam massivlarda berilgan sharoitlarda ancha katta karyer bortlarining ishchi qiyaliklari bilan ta'minlash va olish ishlarining hajmlarini qisqartirish imkonini beradi. Biroq bunday olishda gorizontlarni ochish va kon massasini trnasportlash ancha qiyinlashadi.



10.2 rasm. Qiya va katta qatlamlari yotiqliklarni ishlab chiqish sxemalari

Kamar ochiq lahimning eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Kamarning quyidagilar ta'minlanadigan balandligi ratsional hisoblanadi: kon ishlarining xavfsizligi, qurilmalarning yuqori darajada ishlab chiqarishi, yordamchi ishlarning minimal hajmi, olish va ochish ishlarining o'rnatilgan yillik hajmi va ularga minimal harajatlar.

Kamar balandligi umum karyer ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi: olinadigan foydali qazilma sifati; front siljish tezligi; kon ishlari chuqurlashishining tempi va mos ravishda, karyerning ishlab chiqish quvvati; karyerni qurish muddati; kon-kapital ishlarining hajmi; ishlar fronti, karyer ichi yo'llarining umumiyligi; ishchi va ishsiz bortlarning qiyalik burchagi.

Kamarlarning ratsional balandligi qandaydir bir omil bo'yicha o'rnatilishi mumkin emas; u yuqorida sanab o'tilgan omillarning ma'lum tabiiy sharoitlarda birgalikdagi ta'siri asosida va ishchi gorizontlarni ochish ehtimolini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Kamar balandligini aniqlashning tahliliy metodlari bu omillarning barchasini hisobga ololmaydi. Kon ishlarini olib borishining xavfsizligi asosiy talab hisoblanadi.

Gorizontal va nishabli yotiqliklarni ishlab chiqishda yotiqliklar va qoplovchi jinslarning quvvati odatda kamarlar balandligi va sonini oldindan aniqlaydi. Gorizontal va nishabli plastlar navbat bilan kelganida kamar balandligini alovida plastlar quvvati va ular orasida yotadigan bo'sh jinslarga qarab, foydali qazilmaning yetarli sifatining ta'minlanishini hisobga olgan holda aniqlashadi.

Qiyalik va yumshoq jinslarning mustahkamligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunday jinslarda xavfsizlik Qoidalariga ko'ra kamar balandligi ekskavator kovlashining maksimal balandligidan oshmasligi kerak; aksincha holatda kamarning yuqori qismida dumlar qoladi va jinslarning buzilish ehtimoli yuzaga keladi.

Ko'pincha qoya va yarimqoya jinslar bilan keltirilgan qiya va katta nishabli yotiqliklarda kamar balandligi asosan texnologik jarayonlar ko'rsatkichi, foydali qazilmani yo'qotilishi, karyerning

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

talab qilinadigan ishlab chiqish quvvati va ishchi gorizontlarni ochish shartlari bilan aniqlanadi. Qoya jinslarni olishga tayyorgarlikka va portlatilgan jinslarni transportirovkasiga ketadigan harajatlar kamar balandligi oshishi bilan pasayadi. Portlatilgan jinslarni ekskavatsiyasiga ketadigan minimal harajatlar 15 – 20 m kamar balandligiga mos keladi.

Shu bilan birga texnik foydalanish Qoidalariga ko'ra (TFQ) qoya va yarim qoya jinslarda kamar balandligi ag'darish balandligi quyidagilardan oshmaydigan shartda, ekskavatorning maksimal kovlash balandligidan 1,5 martadan katta (5.1 jadval) bo'lmasligi kerak: bir- va ikki qatorli portlatishda – ekskavatorning maksimal kovlash balandligi, ko'p qatorli portlatishda esa – kovlashning bir yarim barobar maksimal balandligi. Bunday ag'dargichlardan portlatilgan jinslarni ekskavatsiyalashda "dumlar" paydo bo'lishini oldini olish bo'yicha qo'shimcha choralar qabul qilinishi kerak. Faqatgina normal va ko'paytirilgan VV sarflanishida va chuqurlarni qiya burg'ilashda, portlatilgan jinslar sochma holatda bo'lganda I va II yoriqlik kategoriyasidagi jinslarda Davkontexnazorat organlari ruxsati bilan kamarning $Nu > 1,5$ Nch.max balandligiga yo'l qo'yildi.

5.1 jadval

Karyer tipidagi mexlopatalar bilan olishda qoya va yarimqoya jinslarda kamarlarning maksimal balandligi

Эксаватор	Максимальная высота черпания экскаватора, м	Максимальная высота уступа, м
ЭКГ-2	8,5	12,5
ЭКГ-3,2	10,0	14,5
ЭКГ-5	11,0	16,5
ЭКГ-8	12,5	19,0
ЭКГ-12,5	15,6	23,5
ЭКГ-20	18,0	27,0

Olish yuqori yuklash bilan cho'zilgan ishchi qurilmali ekskavatorlar bilan amalga oshiriladigan holatlarda kamar balandligi o'tish qurilmasi parametrlariga mos kelishi kerak (5.2 jadval).

Murakkab konlarni ishlab chiqishda foydali qazilmaning yo'qotilishi olinadigan kamar balandligiga deyarli to'g'ri proporsional. Shuning uchun iqtisodiy sharoitga ko'ra foydali qazilmani alohida olishda, ayniqsa qiya yotiqliklarda, olinadigan kamarlar balandligini 10 – 12m dan ko'p qabul qilmaslik va kovsh sig'imi 3 – 5 m³ bo'lgan karyer tipidagi ekskavatorlarni qo'llash maqsadga muvofiq.

5.2 jadval

Yuqori yuklash bilan cho'zilgan ishchi qurilmaga ega mexlopatalar bilab olishda kamarning maksimal balandligi

Эксаватор	Высота уступа (м) в породах		
	мягких *	полускальных **	скользких ***
ЭКГ-2у	5	7	10
ЭКГ-3,2у	5,5	8	9
ЭКГ-4у	8	13	13
ЭКГ-6,3у	13	18	19

* угол устойчивого откоса уступа 34°.

** То же, 45°.

*** То же, 70°.

Transheyaning siljish tezligi kamar balandligiga taxminan teskari proporsional. Bu tezlikka kon ishlari chuqurlashishining tempi bog'liq. Kamar balandligi qancha katta bo'lsa, karyerning foydali

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

qazilma bo'yicha ishlab chiqarish quvvati ehtimoli shuncha kichik. Bu nizom karyer ishining bиринчи даврида аynиқса мумкин.

Shu bilan birga ochish ishlarining zarur hajmi ishchi kamarlar soni qisqarishi va karyer ishchi bortining qiyalik burchagi oshishi natijasida kamar balandligi oshishi bilan kamayadi. Bunda shuningdek siljishning talab qilinadigan tezligi va olish fronti uzunligi kamayadi. Shuning uchun karyerning (chuqurligi bo'yicha) o'rta zonasida oddiy qurilishdagi yotiqliklarni ishlab chiqishda ba'zan kamar balandligini oshirish maqsadga muvofiq.

Oddiy qurilishdagi qiya va katta yotiqliklarni ishlab chiqishda ochiq ishlarni olib borish tajribasidan $E = 3 - 5 \text{ m}^3$ li ekskavatorlardan foydalanishda kamarning optimal balandligi $12 - 15 \text{ m}$ ni va $E = 8 - 12,5 \text{ m}^3$ ekskavatorlar uchun $17 - 20 \text{ m}$ ni tashkil qilishi o'rnatilgan. Yoriqlikning III – V kategoriyasidagi jinslarda vertikal chuqur zaryadlarni ko'p qatorli portlatilishida ko'pincha xavfsizlik shartlari bo'yicha Nu=Nch.max+h ($h = 1 \div 3 \text{ m}$).

Foydali qazilma konlarini ochiq ishlab chiqilishida karyerning butun qurilish va undan foydalanish davri davomida ularning deformatsiyalanishiga yo'l qo'ymaslik va kamarlarning mustahkamligi ta'minlash juda muhim.

Qiyalikning mustahkamligini aniqlovchi ko'pgina omillardan geologic omillar guruhi hal qiluvchi hisoblanadi (tarkib, holat, kon jinslarining qurilishi va xususiyatlari). Ular massivning deformatsiya shartlarini, qiyaliklar mustahkamligining hisob sxemalarini tanlashni, deformatsiyaga qarshi choralarining xarakteri va hisob ko'rsatkichlari kattaliklarini aniqlaydi.

Gidrogeologik omillar guruhidan massiv tarkibini (yoriq karbonat jinslarni eritish, gilli jinslarning shishish va boshqalar natijasida) va uni kuchlangan holatini o'zgartiruvchi yer osti suvlarining ta'siri asosiysi hisoblanadi; gidrostatik va gidrodinamik kuchlar ta'siri ostida qiyaliklarning filtratsion buzilishi sodir bo'lishi mumkin (oqishi va suffoziya). Kontakt zona va tuzilishli buzilishlarning suvlanishi qiyalikning deformatsiyasi (kontaktlarda jins mustahkamligining pasayishi natijasida) va suvning to'satdan kirishiga olib keladi.

Uchunchi guruhni texnologik omillar tashkil etadi.

Ochish lahimlarining parametrlari, ularning karyer konturiga nisbatan holati va xizmat qilish muddati massivda reologik jarayonlarning rivojlanish intensivligi va jinslarning shamollatilishini, massivda deformatsion jarayonlarning rivojlanishini aniqlaydi (qatlam kontaktlari kesilishi va buzilishi va hokazo). Massivda kon ishlari fronti siljish tezligi baland bo'lganida deformatsion va reologik jarayonlar rivojlanishga ulgurmeydi, bu ishchi kamarlar qiyaligiga qiyalikning ancha katta burchaklarini berish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan sohada ag'dargichlarning joylashtirilushi jinslar massivining bort oldini siljishga bo'lган kuchlarga qarshilikni oshiradi.

Karyer bortlari planda qavariq, bo'rtiq va to'g'ri chiziqli shakldagi bo'laklarga ega bo'lishi mumkin. Boshqa teng holatlarda planda egilgan shaklga ega qiyaliklar tekislariga qaraganda ancha mustahkamligi o'rnatilgan.

Portlash ishlari seysmik effect kelib chiqishiga, kamarning qiyalik oldi massivida yoriqlarning va past mustahkamlikdagi joylarning, shuningdek kamar qiyaligining o'zining mustahkam bo'lмаган sirtini hosil bo'lishi va rivojlanishiga olib keladi. Kamarlarni yakuniy holatga qo'yishda portlashlarning zararli ta'sirini pasaytirish uchun quyidagilar zarur: burg'i portlash ishlarining parametrlarini o'zgartirish; (ma'lum sharoitni hisobga olgan holda) kerakli diametrдagi chuqur zaryadlarni qisqa sekinlashtirilgan portlashini va konturli portlashni qo'llash, inertli zaryadlar; chuqurlar qatorini bort konturiga $60 - 90^\circ$ burchak ostida joylashtirish; ekranlashtiradigan vrubalarini qo'llash; kamarlarni sun'iy mustahkamlashdan foydalanish; hisoblarga mustahkamlik zahirasining oshirilgan koeffitsiyentini kiritish.

Qiyaliklarning qisqa muddatli va uzoq muddatli mustahkamligini farqlashadi, ular mos ravishda ishchi va ishsiz kamarlarga ega bo'lishi kerak. Ishchi kamarlar mustahkamlik zahirasining koeffitsiyenti $\eta_u = 1,15 \div 1,2$, ishsiz gil va yoriqli qoya va yarimqoya jinslarda $\eta_u = 1,5 \div 2$.

Ishchi va ishsiz kamarlarning qiyalik burchaklarini oldindan tanlashda 5.3 jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Burchaklar qiyamatini aniqlash uchun, ayniqla mustahkam bo'lмаган jins yoki susaygan sirtlarning salbiy yotishida, qiyaliklar mustahkamligining naturali tadqiqot va hisoblarini o'tkazish lozim.

5.3 jadval

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI
Po`onalarning qiyalik burchagi

Группа пород	Характеристика породного массива	Высота одиночного уступа, м	Угол откоса уступа, градус		
			рабочего	нерабочего	
				одиночного	сдвоеконного или строенного
Скальные породы, $\sigma_{сж} > 8 \times 10^7$ Па	Весьма крепкие осадочные, метаморфические и изверженные породы	15—20	До 90	70—75	65—70
	Крепкие малотрещиноватые и слабовыветрелые осадочные, метаморфические и изверженные породы	15—20	До 80	60—75	55—60
	Крепкие трещиноватые и слабовыветрелые осадочные, метаморфические и изверженные породы	15—20	До 75	55—60	50—55
Малопрочные скальные, полу-скальные породы, $\sigma_{сж} = 8 \cdot 10^6 \div 8 \cdot 10^7$ Па	Осадочные, метаморфические и изверженные породы зоны выветривания, относительно устойчивые в откосах известняки, песчаники, алевролиты и другие осадочные породы с кремнистым цементом, конгломераты, гнейсы, порфириты, граниты, туфы	10—15	70—75	50—55	45—50
	Значительно выветрелые осадочные, метаморфические и изверженные породы и все породы, интенсивно выветривающиеся в откосах (аргиллиты, алевролиты, сланцы и др.)	10—15	60—70	35—45	35—40
	Глинистые породы, а также полностью дезинтегрированные разности всех пород	10—15	50—60	40—45	35—40
Мягкие и сыпучие породы, $\sigma_{сж} \leq 8 \times 10^6$ Па	Песчано-глинистые породы	10—15	40—50	35—45	30—40
	Песчано-гравийные породы	10—15	До 40	30—40	25—35

П р и м е ч а н и е. При падении слоев, рассланцованных толщ, тектонических трещин и других поверхностей ослабления в сторону карьера под углом 30—65° (если трещины заполнены глиной, то под углами более 25°) угол откоса уступа должен соответствовать углу падения этих поверхностей ослабления, но быть не более приведенных в таблице.

Susayish sirtlari bo`lmaganida kamarning buzilish ehtimoli bo`lgan (5.1 rasm) prizma kengligi (m) qiyalik burchagi va jinslarning mustahkamligiga ko`ra quydagi formula bo`yicha aniqlanishi mumkin

$$Z = \frac{2H_y \left[1 - ctg \alpha tg \left(\frac{\alpha + \rho}{2} \right) \right] - 2H_{90}}{ctg \left(45^0 - \frac{\rho}{2} \right) + tg \left(\frac{\alpha + \rho}{2} \right)},$$

bu yerda α — камarning qiyalik burchagi, gradus; ρ — jinsning ichki ishqalanish burchagi, gradus; H_{90} — uzilishning vertikal yorig`i uzunligi, m

$$H_{90} = \frac{2K}{\gamma g} tg \left(45^0 + \frac{\rho}{2} \right),$$

K — jinsning ularishi, Pa; γ — jins zichligi, kg/m³.


OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

Kon jinslari massiv tuzilishiga ko'ra Z kattalik quyidagini tashkil etadi (G. L. Fisenko bo'yicha):

(0,1 ÷ 0,2) Nu — susayish sirtlarining massiv tomonga yiqilishida (11.1 a rasm);

(0,25 ÷ 0,3) Nu — susayish sirtlarining katta va qiya ravishda ishlab chiqilgan soha tomonga yiqilishida (5.1 b rasm);

(0,3 ÷ 0,4) Nu — susayish sirtlarining ishlab chiqilgan soha tomonga gorizontal yotishi yoki qiya yiqilishida (11.1 v rasm).



5.1 rasm. Kamar jinslari yiqilish ehtimoli prizmasi kengligini aniqlashga sxemalar.

MAVZU:ISH FRONTI TO‘G‘RISIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR.

Mashg’ulot maqsadi: Kon ishlari fronti va uning alomatlari bo’yicha farqi haqida umumiy tushunchalar berish.

Reja:

1. Joylashuvi va tuzilishi bo’yicha kon ishlari fronti.
2. Kon massasini ko’chirish yo’nalishi bo’yicha kon ishlari fronti.
3. Kon massasini yuklash va transport yuk chiqishlari soni bo’yicha ishlar fronti.

Tayanch iboralar: karer yuklari, uzluksiz transportlar, siklli transportlar, konveyer transporti, temir yul transporti, xarakatlanuvchi sostav, avtomobil transporti, kapital yullar, vaktinchalik yullar.


Pog‘ona kon ishlari rivojlanishining yo’nalishi ixtiyoriy tanlanmaydi. Kesik transheya (kotlovan) joylashadigan joy kon ishlari loyihali rejasiga mos kelishi kerak, chunki qatlamni ishlab chiqish ekspluatatsiya davrida yuza va olish zaboylarining zarur soni, yuza va olish ishlarining rejalligi ta’milanishi kerak.

Kamar ish fronti quyidagi alomatlar bo’yicha farqlanadi:


1. Joylashuvi bo’yicha.

Ishlar fronti karyer maydonining uzun o’qi bo’ylab joylashgan (6.1 g, d, e, i va 6.2 a rasmlar). Ishlar frontining va transport kommunikatsiyalaru sezilarli uzunligiga erishiladi, uning siljish tezligi esa katta emas (30 – 60 m/yil). Turli sortdagi foydali qazilmalarni alohida olish uchun ijobjiy sharoitlar yaratiladi, kon ishlab chiqish intensivligi va karyer quvvatini oshirishning katta zahiralari mavjud. Frontning bunday joylashuvi karyer qurilishida kon-kapital ishlarning katta hajmiga olib keladi. U yotiqliklarni qoplaydigan jinslarning quvvati nisbatan kichik bo’lgan holatlarda tarqalgan va maqsadga muvofiq.

Ishlar fronti karyer maydonining qisqa o’qi bo’ylab joylashgan (6.1 a, b, v, j va 6.2, b rasmlar). Ishlar fronti va transport kommunikatsiyasi uzunligi katta emas, uning siljish tezligi esa 70 – 300 m/yilga yetadi. Karyer ishlab chiqarish quvvatini oshirish, alohida olish va foydali qazilmaning katta ochilgan zahiralarini yaratish ehtimolining zahiralari kichik. Frontning bunday joylashuvi kon-kapital ishlarning nisbatan kichik hajmlari bilan ta’minlaydi, lekin tez qayta tuzish zaruriyati evaziga gorizontlarni ochish va transport kommunikatsiyalaridan foydalanishni qiyinlashtiradi. U qoplaydigan jinslarning quvvatli qalinligida, shuningdek transportlarning mobil vositalaridan foydalangan holda quvvatli katta konlarni ishlab chiqishda tarqalgan.



6.1 rasm. Kon ishlari rivojlanish yo'nalishlarining turli variantlari sxemalari (yo'naltirgichlar bilan alohida zaboylar va karyerlarning ishchi bortlari siljish yo'nalishi ko'rsatilgan).



6.2 rasm. Kon ishlaringning rivojlanish sxemalari:

a, b, v i g — ishlar frontining mos ravishda karyerning uzun o'qi, qisqa o'qi bo'yab, konsentrik va ellips bo'yicha joylashuvi

Ishlar fronti konsentrik (6.2 v rasm) yoki ellips bo'yicha joylashgan (6.1 z va 6.2 g rasm). Kamarda ishlar rivojlanishining har xil bosqichlarida zaboylar va transport kommunikatsiya soni, front uzunligi har xil. Frontning bunday joylashuvi yangi kamarlarni yaratishda kon-kapital va tayyorgarlik ishlaringning minimal hajmi va kon ishlari chuqurlashishining yuqori tempini ta'minlaydi. Biroq bunda ochuvchi lahimlar holatini davriy o'zgartirish zarur. Karyerning ishlab chiqarish quvvatini oshirishning ehtimoli odatda cheklangan.

2. Tuzulishi bo'yicha.


Ishlarning bir jinsli fronti – agar u faqat yuza jinslar yoki faqat bir sortdagi foydali qazilmalar bilan qo'shilgan bo'lса. Bunda kon massasini valli olish amalga oshiriladi. Bir jinsli front to'liq (6.3 a rasm) va mustaqil zaboylar bilan bloklarga bo'linishi mumkin (6.3 b va v rasm). Bloklarga bo'linish kamarda ekskavator va boshqa texnik vositalarning zarur sonini joylashtirishi uchun kerak. Kamarda bir quvvatli ekskavatorni o'rnatish iqtisodiy effektli. Biroq ishlarning katta hajmida va talab qilinadigan quvvatli ekskavatorlar bo'limganida kamarda ikki yoki hatto uch ekskavator joylashtirish kerak.

Turli jinsli ishlar fronti – agar uning chegarasida bo'sh jinslar, foydali qazilma va uning turli sortlarining bloklari navbat bilan kelsa (6.3 g rasm). Turli jinsli frontda zaboylardan olish – valli.

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

Bloklargaga bo'linish (ikki yoki uch ekskavatoridan foydalangan holda), qoidaga ko'ra, foydali qazilmalarni uzlucksiz olinishini ta'minlash uchun zarur.

Ishlarning murakkab turli jinsli fronti – uning chegarasida faqat bo'sh jinsli yoki faqat bir sortdagi foydali qazilmani ajratishning deyarli iloji bo'limganida (6.3 g rasm). Bu holatda kon massasini alohida olinishi olib boriladi.




6.3 rasm. Pog'ona ishlar frontini tuzilish bo'yicha bo'linish sxemasi

3. Kon massasi ko'chish yo'naliishi bo'yicha.

Kon massasining ko'ndalang ko'chishi bilan ishlar fronti – yuza ekskavatorlari va transport-ag'dargich agregatlarini qo'llagan holda ishlab chiqilgan sohada yuza jinslarning qatlmalanishida (6.4 a rasm), shuningdek jinsning buldozer yoki skreperlar, frontal zaboylar bilan olinishi va uning ichki yoki tashqi ag'dargichga eng yaqin masofa bo'yicha ko'chirilishi (6.4 b rasm).

Kon massasining bo'ylama ko'chishi bilan ishlar fronti – uni karyer transportidan foydalangan holda zaboylardan ko'chirilishida (6.4 v rasm).



6.4 rasm. To'g massasining kamar ishlari frontiga nisbatan ko'chish sxemasi


4. Kon massasini yuklash bo'yicha.

Olish-yuklash qurilmasi o'rnatilgan gorizontda kon massasini pastki yuklash (6.5 a rasm) keng tarqalgan va kamar kon ishlari har bir front bo'lagidan iloji boricha iqtisodiy va ishlab chiqarishli foydalanishni ta'minlaydi.

Kon massasining yuqori yuklanishi (6.5 b rasm) ishlab chiqiladigan kamar yerida transport kommunikatsiyalarini o'rnatish qiyin yoki foydali bo'lмагan holatlarda zarur va maqsadga muvofiq, – transheyalarni o'tkazishda, gorizontda ishlarning kichik hajmi va hokazolar.

Kon massasining yuqori ekskavator yuk ortgichi (6.5 v rasm) jins yoki foydali qazilma kamarning yuqori maydonchasiga ekskavator bilan qatlamlanishi va keyin boshqa ekskavator bilan transport vositalariga ortilishi bilan xarakterlanadi. Bunday sxema ko'pgina holatlarda qo'llaniladi, masalan ishlarning kichik hajmida, gidrotransport, draglaynlar va boshqalardan foydalanilganda qiya konlarda chuqur karyerlarning pastki gorizontlarini qo'shimcha ishlanishida.

Kon massasining pastki ekskavator yuk ortgichi (6.5 g rasm) jins yoki foydali qazilmaning ekskavator bilan pastda yotgan gorizontiga ko'chirilishi va uning boshqa ekskavator bilan transport vositalariga ortilishi bilan xarakterlanadi. Bunday sxemaning qo'llanilishi ishlarning kichik hajmida, transport ish sharoitlarini yaxshilash va hokazolar uchun, kamar balandligini kamaytirish uchun qiya konlarda maqsadga muvofiq.



6.5 rasm. Kamarda kon massasini yuklash sxemasi

5. Yuk transportlarining chiqish soni bo'yicha.


Yakka front – agar u kamardan bir yukli transport chiqishiga ega bo'lsa (6.6, a, b va v rasm). Bunday front turli kon va transport qurilmalaridan foydalanishda ko'pchilik karyerlar uchun xos.

Ikkilangan front – agar u kamardan ikki yukli transport chiqishiga ega bo'lsa (6.6, g, d rasm). Bunday tuzulishli front ikki yakka frontni o'zida namoyon etadi va sirt ko'rinishidagi karyerlarning uzunligida, shuningdek chuqur ko'rinishidagi quvvatli karyerlarning yuqori kamarlar guruhi uchun qo'llanilishi mumkin.

Kamdan-kam holatlarda ichki o'rnatilgan front ehtimoli mavjud (6.6 e rasm).

Tupikli front (transportning qaytuvchi harakati bilan) – agar kamardagi bir xil front bo'sh temir yo'l tarkibi yoki avtomobillar berilishi uchun va yuklarni berish uchun xizmat qiladigan umumiy bir transport chiqishiga ega bo'lsa (6.6, a, v, g, d va e rasm). Tupikli front karyer transportining barcha ko'rinishlarida eng ko'p tarqalgani hisoblanadi.

To'g'ri chiqadigan front (transportning oqimli harakati bilan) – agar kamarda yakka front ikki yoki undan ko'p ixtisoslashtirilgan transport chiqishiga ega bo'lsa: alohida bo'shlarini berish va alohida yuklar uchun (6.5 b rasm). Ikkilangan tupikli front shuningdek davriy ravishda yakka to'g'ri chiqish fronti kabi ishlatalishi (6.6 g rasm), ichki qurilgan tupikli front esa – ikkilangan to'g'ri chiqish fronti kabi ishlatalishi mumkin (6.6 e rasm).



6.6 rasm. Kon ishlari frontining tuzilish sxemalari:

Lf.o, Lf.s i Lf.st – mos ravishda yakka, ikkilangan va ichki qurilgan ish frontlari uzunligi

6. Transport vositalarining harakat xarakteri bo'yicha:

- Transportning qaytuvchi harakati bilan tupikli front, - agar kamarda yakka front bo'sh temir yo'l tarkiblari yoki avtomobilari berilishi va yuklar berilishi uchun xizmat qiladigan umumiylar transport chiqishiga ega bo'lsa (6.6, a, v, g, d, e rasm). Tupik fronti karyer transportining barcha ko'rinishlarida eng ko'p tarqalgani.
- transportning oqimli harakati bilan, to'g'ri chiqadigan front, - agar kamarning yakka fronti bir yoki undan ko'p ixtisoslashtirilgan transport chiqishiga ega bo'lsa: alohida bo'shlarning berilishi va alohida yuklar uchun (6.6 b rasm). Ikkilangan tupikli front shuningdek davriy ravishda yakka to'g'ri chiqadigan front (6.6 g rasm), ichki qurilgan tupikli front esa – ikkilangan to'g'ri chiqadigan front kabi ishlatilishi mumkin (6.6 e rasm).

7. Transport chiqishining holati bo'yicha.


Qanot fronti – agar transport chiqishi kamar fronti qanotida joylashsa (6.6, a, b va g rasm); ishchi gorizontlarni statsionar lahimlar bilan ochilishida qo'llaniladi.

Markaziy front – agar transport chiqishi front chegarasida joylashsa (6.6 v va d rasm). Bunday front gorizontal yoki qiya yotiqliklarni ishlab chiqishda ochuvchi lahimlarni karyerning ishchi bortida va olinadigan kamarda joylashuvida qo'llaniladi.

Kamar ishlari frontining sanab o'tilgan xarakteristikalarini tizim, lahim, ochish va texnik vositalarni qo'llashning to'g'ri tanlovi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishlar frontining ko'chish yo'nalishi

Kamar, qoidaga ko'ra, ish frontlari bo'ylab panellarga bo'linadi (7.1 rasm). Panellar bir vaqtning o'zida kirish joyi bo'la oladi. Kamarda bir vaqtida bir yoki bir nechta panellar qayta ishlanishi mumkin. Panellarni qayta ishlanishi bo'yicha kamarning ishchi fronti ko'chadi. Panelni qayta ishlagandan so'ng ish fronti bo'ylab joylashgan transport kommunikatsiyalarini qayta montajlash kerak.




7.1 rasm. Panellar va panellar blokining sxemalari:

a va b — mos ravishda bo'ylama blok va kirish joylarida; v va g - mos ravishda ko'ndalang blok va kirish joylarida (keng panellar).


Panel kamar balandligi Nu, uzunligi L_p va kengligi SHp bilan xarakterlanadi; kamarda bir panel bo'lganida uning uzunligi kamar ish frontlari uzunligiga L_{f,u} teng.

Bir olish mashinasi bilan ishlab chiqish uchun ajratiladigan panel qismi panel bloki deb ataladi (masalan, ekskavator bloki); panel ichida uzunligi L_{b,p} bo'lgan shunga o'xshash bir yoki bir nechta bir vaqtda harakat qilishi mumkin (7.1 rasm). Panellar bloki, o'z navbatida, ishchi bloklarga bo'linishi mumkin; har birining ichida qandaydir bir ish jarayoni bajariladi, masalan, burg'ilash, portlatish, olish (7.2 rasm). Har bir blokda jinslarning olinishi olish kirishlari deb ataladigan ingichka chiziqlar bilan amalga oshiriladi. Qator holatlarda kirish joylari panellar bloki hisoblanadi (7.1 rasm). Panel bloklari va olish kirishlari ularning kamar frontiga nisbatan joylashuviga qarab bo'ylama (kamar fronti bo'ylab, $\varphi = 0^\circ$, 7.3, a, g, j va k rasm), ko'ndalang (kamar frontini kesuvchi, $\varphi = 90^\circ$, 7.3, b, d, z va l rasm) va diagonal ($0^\circ < \varphi < 90^\circ$, 14.3, v, e, i va m rasm) bo'lishi mumkin. Panelning bo'ylama bloki va olish kirishlari transportning barcha turlari qo'llanilganda ishlatiladi, ko'ndalanglari – odatda avtomobili va konveyerlarda.



7.2 rasm. Panellar blokini ischi bloklarga bo'lish sxemalari:

Lv (Le), Lb i Lp.b — portlatilgan (ekskavirylanayotgan), burg'ilash va burg'ilashga tayyorlangan bloklar uzunligi; 1 — zaboy yo'li.



7.3 rasm. Panel bloklari va kirishlar sxemasi:


I, II, III — panellar; 1, 2, 3 — panellar bloki va kirishlar.

YUmshoq tog‘ jinslari qumli gil, yumshoq ko‘mir va boshqalardan iboratdir. Qattiklik koeffitsienti $f=0,6\div0,8$. Bu turdagи tog‘ jinslarini oldindan yumshatmasdan barcha ko‘rinishdaga qazib olish mashinalari yordamida qazib olish oson. Ular 7-15 m balandlikda qiyalik burchagi 50-60° gacha saqlab tura oladi.

Sochiluvchan tog‘ jinslari ga bir jinsli qumlar taaluqlidir. Ularning sochilmalarda va massivdagi qiyalik burchagi ichki ishqalanish burchagidan ($\rho=19-37^\circ$) oshmasligi kerak. Qumlarda qazib olish ishlari bir muncha kam, ya’ni bir jinsli silliqlangan bo‘laklar orasidagi bog‘liqlik kuchi amalda mavjud emas. Faqatgina zich joylashgan turli jinsli qumlarda bo‘laklari orasidagi $0,3-0,5 \text{ kgk/sm}^2$ dan oshmagan bog‘lanish mavjud. Qumlarning siljishiga qarshiligi dinamik ta’sirda keskin kamyadi.

3. Portlash, mexanik buzish, maydalash yoki tabiat kuchlari (qulash, nurash va boshqalar) ta’siri natijasida qoyali va yarim qoyali tog‘ jinslari buzilgan xolatga o‘tadi va oddiy texnik vositalar bilan tashish va yuklash uchun qulay bo‘ladi.

Buzilgan tog‘ jinslari bo‘lagidagi bog‘liqlik darajasi, bo‘lakligi va mustahkamligi bo‘yicha tog‘ jinslarining maydalashgacha bo‘lgan mustahkamligidan farq qiladi. Tog‘ jinslari bog‘liqligi qo‘shilgan bo‘laklarni orasidagi aloqalar tavsifini oydinlashtiradi. Bog‘liqlik darajasi birinchi navbatda buzilgan jinslarni yumshanuvchanligiga hamda ishqalanish K_e (tabiiy bog‘lilik tavsifi), ilashish K_3 (mexanik buzish tavsifidagi bog‘liqlik) koeffitsientlari va jinslarning ichki ishqalanish burchagi p kattaliklari bilan ko‘rsatiladigan bo‘laklikka bog‘liq.

Emirilgan tog‘ jinslari bog‘liqlik darajasi bo‘yicha kategoriyalari.

Emirilgan tog‘ jinslari bog‘liqlik darajasi bo‘yicha kategoriyaga bo‘linadi:

I kategoriya - sochiluvchan emirilgan tog‘ jinslari. Bo‘laklar orasidagi ko‘p qavat oraliqlar soni bilan tavsiflanadi, lekin alohida bo‘laklar siqilishi va ular orasida ilashish bo‘lishi mumkin. Jinslar sochiluvchan bo‘ladi va to‘g‘ri ko‘rinishli qiyalik hosil qiladi. YUmshanuvchanlik koeffitsenti $K_p=1,4-1,65$ oralig‘ida, ba’zida undan ham katta bo‘ladi.

II kategoriya - bog‘liqli sochiluvchan emirilgan tog‘ jinslari. Alohida tabiiy bo‘lmalar va bo‘laklar orasidagi katta bo‘lmagan oraliqlar (bo‘shliqlik) soni bilan tavsiflanadi. YUmshanuvchanlik koeffitsenti $K_p=1,2—1,3$.

III kategoriya — bog‘liqli emirilgan jinslar. Bir-biri bilan to‘liq ajralmagan, massivning tabiiy yoriqligi ko‘rinishda bo‘ladi. YUmshanuvchanlik koeffitsenti $K_p=1,03—0,05$, ba’zida $1,05-1,1$. Pog‘onalar tik qiyalikka ega.

Bo‘laklikni bo‘lakning o‘rtacha chiziqli o‘lchami bo‘yicha topiladi. Buzilgan jinslar bo‘lakligi bo‘yicha beshta kategoriyaga bo‘linadi.

I kategoriya — juda ham mayda emirilgan jinslar eng katta bo‘lagi o‘lchamlari $0,4\div0,6$ mm gacha; d_{cp} 0,1.

II kategoriya — mayda emirilgan jinslar, bo‘laklar o‘lchami $0,6\div1,0$ m.gacha; $d_{sp} = 0,5\div0,25$.

III kategoriya — o‘rtacha emirilgan jinslar, bo‘laklar o‘lchami $1,0—1,4$ m.gacha: $d_{cp} = 0,25\div0,35$ m.

IV kategoriya - katta emirilgan jinslar. Eng katta bo‘lagi o‘lchami $1,5\div2,0$ m. $d_{cp} = 0,4\div0,6$ m.

V kategoriya — eng katta emirilgan jinslar. Tarkibidagi alohida bo‘laklar o‘lchami $2,5\div3,0$ m va undan ham katta bo‘ladi: $d_{cp}=0,7\div0,9$ m.

Juda ham mayda, mayda va o‘rtacha emirilgan sochiluvchan jinslar uchun yumshanuvchanlik maksimal koeffitsenti chegaralangan va u asosan 1,5 dan oshmaydi.

Portlatish usuli bilan yumshatilgan jinslar tegishli holda juda ham katta, katta, o‘rtacha, mayda va eng mayda portlatilgan jinslar deb aytildi. Mexanik yumshatish (yumshatgichlarda) natijasida olingan, bo‘laklari kattaligi 0,2 metrdan katta bo‘lmagan mayda yumshatilgan jinslar, *maydalangan jinslar*, 0,1m dan katta bo‘lmaganlarini esa *kichik qilib maydalangan jinslar* deb aytildi. Juda xam maydalangan jinslarga bo‘lakchalar kattaligi 70, 40, 20, 10 mm ni tashkil etadigan qirrali shag‘alli mayda shag‘al kiradi.

Qazib olishning texnologik sharoitlari bo‘yicha ruxsat etilganidan katta o‘lchamiga ega jinsli bo‘laklar *noo‘lchamli* deb aytildi. Ular qo‘srimcha maydalanishi kerak. Noo‘lchamli bo‘laklar o‘lchami va chiqishi nisbiy tushuncha bo‘lib, tashuvchi va yuklovchi vositalarning quvvati bilan aniqlanadi. Ruxsat etilgan bo‘lak o‘lchami qancha katta bo‘lsa, bir xil sifatli portlashdan noo‘lchamli bo‘lakning chiqishi shuncha kam bo‘ladi.

26-MA’RUZA
MAVZU: KAR’ERLARDA BURG‘ILASH ISHLARI

Darsning maqsadi: foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishda tog‘ jinslarini burg‘ulash sharoitlari, burg‘ulash dastgoxlarining ishlash prinsiplari bilan tanishtirish.

Reja:

1. Burg‘ilash stanoklari
2. Skvajinalarni burg‘ulash texnologiyasi.

Tayanch iboralar: Sharoshkali burg‘ulash stanoklari. Sharoshkali burg‘ulash skvajinalarining texnologik xaraktiristikasi. Sharoshkali burg‘ulash rejimi va tezligi. Pnevmozarbli burqulash stanogi. Burg‘ulash ishlarida va ishlab chiqarish ishlari xavfsizligi talablari.

Burg‘ilash stanoklari

Tog‘ jinsini qazib olishning portlatish usuli tog‘ jinsini massivdan ajratib olish va ularni belgilangan kattalikda maydalashdan iborat. YArim qoyali tog‘ jinslarini qazib olishga tayyorlashda portlatish usuli bilan yumshatish keng qo‘llaniladi. Ushbu usul karerlarda qoyali tog‘ jinslarini qazib olishga tayyorlashning yagona usuli hisoblanadi. Barcha karer jihozlarining ish unumдорligi va kon ishlariga ketgan xarajatlar ma’lum darajada portlatish ishlari sifati va ularni tashkil etishga bog‘liqdir.

Portlatish ishlari quyidagilarni ta’minlashi zarur:

- keyingi ishlab chiqarish jarayonlari uchun tog‘ jinslarini belgilangan darajada maydalanishini;
- portlatilgan foydali qazilmaning talab etilgan sifat va navlarini;
- minimum darajada pog‘ona maydonchalari belgilari o‘lchamlari va shakllaridan chekinish;
- berilgan pog‘ona shakli va qiyalik burchaklarini, keyingi (navbatdagi) skvajinalarni burg‘ulash va zaryadlash xavfsizligini;
- qazish va yuklash ishlari uchun qulay bo‘lishi uchun belgilangan o‘lcham va shakldagi portlatilgan tog‘ jinsi uyumini,
- tog‘ jinslarini joylashtirishda zarur bulgan masofa va yo‘nalishlarni, asosan qazib o‘tilgan maydonga joylashtirishda;
- atrofdagi inshootlar va karerning oxirgi konturidagi tog‘ jinsi massivini maksimal darajada saqlash xamda, ularga minimal darajada portlashning seysmik ta’sirini;
- yuqori unumдорlikda qazish va yuklash ishlari uchun etarli hajmdagi portlatilgan tog‘ jinslarini;
- kon ishlarini yuqori samaradorligini, ish unumдорligini va xavfsizligini.

Skvajinalarni burg‘ulash – ayniqsa qoyali, parchalanishi qiyin bo‘lgan tog‘ jinslarida ish hajmi katta va qimmat turuvchi jarayondir.

Portlovchi skvajinalarni burg‘ulash samaradorligi burg‘ulash tezligi bilan aniqlanadi. Burg‘ulash tezligi quyidagilarga bog‘liqdir:

- burg‘ulash asbobi ta’siri ostida tog‘ jinslarining buzilish kobiliyati (asosiy faktor);
- burg‘ulash asboblarining turi va shakllari, skvajina zaboyiga ta’sir etish usuli (zarbli, aylanma, aylanma-zarbli va boshqalar);
- burg‘ulash asbobining skvajina zaboyiga ta’sir kuchi va tezligi;
- skvajina diametri va bir qator hollarda uning chuqurligi;
- tog‘ jinsi buzilishiga ta’sir etuvchi (xalaqit beruvchi) burg‘ulash chiqindisini skvajina zaboyidan tozalash tezligi, doimiyligi va usuli.

YUqorida sanab o‘tilgan barcha faktorlar burg‘ulash dastgoxlarining texnologik parametrlarini aniqlaydi.

Burgulanish – tog‘ jinslarini burg‘ulash asboblari bilan burg‘ulashda ularning parchalanishga qarshilik darajasi. Burg‘ulanish tog‘ jinslarining elastik va plastik, mustahkamlik kabi mexanik xossalarni, hamda qattiqlik, yopishqoqlik va abrazivlik kabi texnologik ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Burg‘ulanishni standart sharoitlarda 1 daqiqa vaqt mobaynida burg‘ulangan shpur yoki skvajina uzunligi bilan yoki aksincha, ya’ni ayni shu sharoitda 1 m shpur yoki skvajinani burg‘ulash uchun ketgan vaqt bilan baholash qabul qilingan.

Skvajinalarni burg‘ulash texnologiyasi.

Tog‘ jinsi massivida skvajinalarni burg‘ulashda, burg‘ulash snaryadi diametri va mehnat unumdarligi turlicha bo‘lgan burg‘ulash dastgohlari ishlataladi. Dastgohlarni (burg‘ulash dastgohlarini) tanlash esa, tog‘ jinsi xususiyatlari, burg‘ulash ishlari hajmi va portlovchi skvajinalar parametrlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Zich va yarim qoyali tog‘ jinslarini burg‘ulashda – kesuvchi koronkali va aylanma burg‘ulovchi SBR turdagи stanoklardan foydalaniladi, qoyali tog‘ jinslarida – burg‘ulash ishlari hajmi katta bo‘lganida, sharoshkali burg‘ulovchi dasgohlar qo‘llaniladi. SHuningdek, o‘rta va kam ish unumli karerlarda – zarbli aylanma burg‘ulovchi dastgohlar qo‘llaniladi. Kristall strukturaga ega bo‘lgan o‘ta qattiq tog‘ jinslarida burg‘ulash ishlarini olib borishda, SBO turdagи dastgohlar va o‘ta ko‘p yoriqli va tarkibida karstlar bo‘lgan tog‘ jinsi massivlarida – kanatli-zarbli burg‘ulash dastgohlari qo‘llaniladi.

Aylanma burg‘ulash (skvajinalarni kesish yo‘li bilan burg‘ulash). Kesuvchi koronkalar yordamida aylanma burg‘ulash asosan vertikal va qiya skvajinalarni o‘tishda qo‘llaniladi (tog‘ jinsi qattiqligi $f=2-8$). Bunday stanoklar bilan burg‘ulash texnologiyasining mohiyati shundaki – elektr dvigateli bilan hosil bo‘ladigan bosimning aylanish o‘qi bo‘ylab kesgichga ta’sir etadi va keskich aylanib-bosib tog‘ jinsini parchalaydi. Maydalangan tog‘ jinsi parchalari esa aylanma qobirg‘ali shneklar bilan skvajinadan chiqarib tashlanadi. Burg‘ulash ishlari tugallangandan keyin skvajinada qolgan tog‘ jinsi parchalari siqilgan havo yordamida tozalanadi. Keskichlar eyilishga

chidamli po'latlardan ishlangan bo'lib, qattiq qotishmali elementlar bilan armirovkalangan buladi.

SBR-125 dastgoxining yurishi – qadamlovchi.

SBR-150 dastgoxiniki esa gusenitsali.

SHaroshkali burg‘ulash. SHaroshkali burg‘ulash ham tog‘ jinsini aylanma burg‘ulab parchalash prinsipiiga asoslangan. Bunda skvajinadagi ishchi organunning ishchi yuzasi bilan skvajinadagi qazish joyi aylanma siqilib tog‘ jinsi parchalanadi. Ishchi organ uchiga sharoshkali tishlar o‘rnatilgan bo‘ladi. Skvajinalarni burg‘ulash chiqindilaridan tozalash va sharoshkalarni sovutish – burg‘ulash shtangalari og‘zidan (ichidagi bo‘shlikdan) yuboriladigan siqilgan havo yordamida amalga oshiriladi.



8.1. Rasm. Karerlarda sharoshkali burg‘ulovchi stanok yordamida skvajinalarni burg‘ulash.

Zarbli – aylanma burg‘ulash. Bu dastgohlarni ishchi organi havoli zarblagichlar hisoblanadi. Siqilgan havo shtanga bo‘shlig‘i orqali havoli zarblagichga beriladi. Bu siqilgan havo klapanli qurilma yordami bilan urgichli porshenning qaytma-ilgarilanma harakatlanishiga olib keladi va bu urgich burg‘ulash koronkasi dumchasiga minutiga 1700-2500 zarba beradi. Havoli zarblagichning aylanishi elektr dvigatel aylantirgichdan shtanga orqali amalga oshiriladi va bu aylantirgich dastgohning o‘zida joylashgan bo‘ladi. Har bir zarba berilganida dolota pichog‘i burg‘ulash asbobi aylanishga ulgurgan sektordagi tog‘ jinsiga botib uni maydalaydi.

Termik (olovli) burg‘ulash. Bu usul asosan qattiqligi ($f=20$ gacha) juda yuqori bo‘lgan, tarkibida kvars bo‘lgan monolit tog‘ jinslarini burg‘ulashda qo‘llaniladi. Bunda skvajinadagi qazish joyining yuzasi yuqori temperaturali (3200°S gacha) gaz oqimi bilan juda tez (lahzali) isitiladi. Bu erda yupqa yuzaga (qatlamga) uzatilayotgan yongan gaz oqimining tezligi tovush tezligidan ham yuqori bo‘lib, termik zo‘riqish (tog‘ jinsida) paydo bo‘ladi va tog‘ jinsi parchalanib massivdan ajralib, gaz oqimi kuchi bilan skvajinadan chiqarib tashlanadi.

Zarbli burg‘ulash. Zarbli – buralishli burg‘ulash hozirgi paytda juda kam qo‘llaniladi, chunki bu usulda mehnat unumdarligi kam va katta mehnat sarfi talab etiladi.

Zarbli – buralishli burg‘ulash prinsipi shundan iboratki, bunda og‘irligi juda katta (1200-2800 kg) bo‘lgan burg‘ulash snaryadi kanatga osilgan bo‘lib, bu snaryad ritmik ravishda 1-1,2 m balandlikka ko‘tarilib, erkin tashlanadi. Snaryad zerb bilan urilganida zaboyda tog‘ jinsini parchalaydi. Dastgohning ish rejimi – burg‘ulash snaryadining ko‘tarilish balandligi, zarblar chastotasi hamda suvni etkazib berish vaqt bilan bog‘liq.

Hozirgi kunda karerlarda turli modeldag‘i burg‘ulash stanoklari qo‘llanilmoqda. Portlovchi skvajinalarning 85% i sharoshkali burg‘ulash dastgohlari yordamida burg‘ulanmoqda.

Hamdo‘stlik mamlakatlarida bir qator burg‘ulash dastgohlari turli kon texnik sharoitlarda diametri 125 mm dan 400 mm gacha bo‘lgan portlovchi skvajinalarni burg‘ulashni ta’minlaydi. Ishlab chiqarish quvvati kam bo‘lgan (5 mln. t. gacha) karerlarda 2SBSH-200 (skvajina diametri 190 va 214 mm) turdag‘i sharoshkali burg‘ulash dastgohi, o‘rta va katta ishlab chiqarish unumdarligiga ega bo‘lgan karerlarda esa, SBSH-250 va SBSH-250 MN (skvajina diametri 243-269 mm) dastgohlari keng tarqalgan.

Xorij mamlakatlarida esa, Byusayrus Eri (AQSH) firmasining 31R modeldag‘i diametri 159-200 mm bo‘lgan va III seriya 60R modeldag‘i burg‘ulash diametri 311 mm bo‘lgan sharoshkali burg‘ulash dastgohi keng tarqalgan.

Keyingi yillarda xorijiy firmalar tomonidan yangi turdag‘i burg‘ulash dastgohlari yaratildi. Bular: P seriyadagi VE-55R dastgohi (Byusayrus Eri firmasi) skvajina diametri 171-311 mm, burg‘ulash chuqurligi-76 m; ESM-450 (Intersol-Rend firmasi) markali dizel privodli gusenitsali gidravlik burg‘ulash dastgohi: skvajina diametri 130-200 mm, burg‘ulash chuqurligi-19,8 m. Hamdustlik mamlakatlarida burg‘ulash dastgohlari ishlab chiqaridigan yagona mamlakat bu Rossiyadir.

maxsus o‘tkazilgan er osti kon lahimlariga, ya’ni shtolnya va shurflarga joylashtiriladi. Zaryadlar bir-biridan ma’lum uzoqlikdagi kameralarda o‘rnatiladi. Portlovchi moddalar joylashtirilgandan so‘ng, laxim tog‘ jinslari bilan berkitiladi. Hozirgi vaqtida karerlarda kamerali zaryadlash usuli transheya yoki yarim transheya hosil qilishda qo‘llaniladi. (8.1 rasm b,v)

Katta hajmdagi portlovchi modda zaryadlarini qo‘llashda, xavfsizlikni ta’minlash uchun-eng kam qarshilikli chizma W_{Ins} -ni, hisoblashda - zaryaddan ochiq yuzagacha bo‘lgan minimal masofa olinadi.

Qozon zaryadlarini qo‘llash usuli. Karerlarda burg‘uquduqlarni va shpurlarni burg‘ulash natijasida portlovchi moddalarni massivda bir tekisda joylashtirish imkoniyati tug‘iladi. Portlovchi moddalarning energiyasi atrof tog‘ jinslarini maydalashga etmagan vaqtida qozonli zaryadlash usuli qo‘llaniladi. (8.1 rasm g) Massivda burg‘u quduq qazilib: uning ostki qismi kichik portlash zaryadlari yordamida yoki termik burg‘ulash yordamida kengaytiriladi. Kengaytirilgan bushliqqa asosiy portlovchi modda zaryadi joylashtiriladi.

Asosiy kamchiliklari: qozonni hosil qilishni boshqarish va hisoblash qiyinchiliklari, massivning tabiiy holatining buzilishi hamda yoriqlarning hosil bo‘lishi, mexanizatsiyalashmagan ish hajmining oshishi.

27-MA’RUZA**MAVZU: PORTLATISH USULI YORDAMIDA TOG‘ JINSLARINI QAZIB OLISHGA TAYYORLASH.**

Darsning maqsadi: Ochiq kon ishlarida tog‘ jinslarini portlatish usuli yordamida qazib olishga tayyorlash haqida tushunchaga ega bo‘lish. Skvajinalarni burg‘ulash texnologiyasi bilan tanishish.

Reja:

1. Tog‘ jinslarini portlatish usuli bilan qazib olishga tayyorlash.
2. Skvajinalarni burg‘ulash texnologiyasi.
3. Portlovchi moddalarni tog‘ jinsi massiviga joylashtirish usullari

Tog‘ jinslarini portlatish usuli bilan qazib olishga tayyorlash.

Tayanch iboralar: Tog‘ jinslarini portlatish usuli bilan qazib olishga tayyorlashning asosiy tamoyillari. Portlovchi skvajinalarni burg‘ulash usullari va ularning texnologik tavsifi. Portlatish ishlarining texnologik hisobi.

Tog‘ jinsini qazib olishning portlatish usuli tog‘ jinsini massivdan ajratib olish va ularni belgilangan kattalikda maydalashdan iborat. YArim qoyali tog‘ jinslarini qazib olishga tayyorlashda portlatish usuli bilan yumshatish keng qo‘llaniladi. Ushbu usul karerlarda qoyali tog‘ jinslarini qazib olishga tayyorlashning yagona usuli hisoblanadi. Barcha karer jihozlarining ish unumдорligi va kon ishlariga ketgan xarajatlar ma’lum darajada portlatish ishlari sifati va ularni tashkil etishga bog‘liqdir.

Portlatish ishlari quyidagilarni ta’minlashi zarur:

- keyingi ishlab chiqarish jarayonlari uchun tog‘ jinslarini belgilangan darajada maydalanishini;
- portlatilgan foydali qazilmaning talab etilgan sifat va navlarini;
- minimum darajada pog‘ona maydonchalari belgilari o‘lchamlari va shakllaridan chekinish;
- berilgan pog‘ona shakli va qiyalik burchaklarini, keyingi (navbatdagi) skvajinalarni burg‘ulash va zaryadlash xavfsizligini;
- qazish va yuklash ishlari uchun qulay bo‘lishi uchun belgilangan o‘lcham va shakldagi portlatilgan tog‘ jinsi uyumini,
- tog‘ jinslarini joylashtirishda zarur bulgan masofa va yo‘nalishlarni, asosan qazib o‘tilgan maydonga joylashtirishda;
- atrofdagi inshootlar va karerning oxirgi konturidagi tog‘ jinsi massivini maksimal darajada saqlash xamda, ularga minimal darajada portlashning seysmik ta’sirini;
- yuqori unumдорlikda qazish va yuklash ishlari uchun etarli hajmdagi portlatilgan tog jinslarini;
- kon ishlarini yuqori samaradorligini, ish unumдорligini va xavfsizligini.

Skvajinalarni burg‘ulash – ayniqla qoyali, parchalanishi qiyin bo‘lgan tog‘ jinslarida ish hajmi katta va qimmat turuvchi jarayondir.

Portlovchi skvajinalarni burg‘ulash samaradorligi burg‘ulash tezligi bilan aniqlanadi. Burg‘ulash tezligi quyidagilarga bog‘liqdir:


- burg‘ulash asbobi ta’siri ostida tog‘ jinslarining buzilish kobiliali (asosiy faktor);
- burg‘ulash asboblarining turi va shakllari, skvajina zaboyiga ta’sir etish usuli (zarbli, aylanma, aylanma-zarbli va boshqalar);
- burg‘ulash asbobining skvajina zaboyiga ta’sir kuchi va tezligi;
- skvajina diametri va bir qator hollarda uning chuqurligi;
- tog‘ jinsi buzilishiga ta’sir etuvchi (xalaqit beruvchi) burg‘ulash chiqindisini skvajina zaboyidan tozalash tezligi, doimiyligi va usuli.

YUqorida sanab o‘tilgan barcha faktorlar burg‘ulash dastgoxlarining texnologik parametrlarini aniqlaydi.

Burgulanish – tog‘ jinslarini burg‘ulash asboblari bilan burg‘ulashda ularning parchalanishga qarshilik darajasi. Burg‘ulanish tog‘ jinslarining elastik va plastik, mustahkamlik kabi mexanik xossalarni, hamda qattiqlik, yopishqoqlik va abrazivlik kabi texnologik ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Burg‘ulanishni standart sharoitlarda 1 daqiqa vaqt mobaynida burg‘ulangan shpur yoki skvajina uzunligi bilan yoki aksincha, ya’ni ayni shu sharoitda 1 m shpur yoki skvajinani burg‘ulash uchun ketgan vaqt bilan baholash qabul qilingan.

Portlovchi moddalarni tog‘ jinsi massiviga joylashtirish usullari.

Portlatib maydalash usuli mustahkamlik koeffitsienti 8 dan yuqori bo‘lgan tog‘ jinslariga ko‘llaniladi. Portlovchi moddalarni tog‘ jinsi massiviga joylashtirishning besh xil ko‘rinishdagi usullari mavjud (8.1 rasm):



8.2- rasm. Portlovchi moddalarni tog‘ jinsi massiviga joylashtirish usullari

Kamera zaryadlarini qo‘llash usuli. Ishlab chiqarish jarayoni mexanizatsiyasi rivojlanmagan yoki kam mexanizatsiyalashgan vaqtida massivga portlovchi moddalarni tabiiy bo‘shliqlarga yoriqlarga yoki maxsus o‘tkazilgan er osti kon lahimlariga, ya’ni shtolnya va shurflarga joylashtiriladi. Zaryadlar bir-biridan ma’lum uzoqlikdagi kameralarda o‘rnatiladi. Portlovchi moddalalar joylashtirilgandan so‘ng, laxim tog‘ jinslari bilan berkitiladi. Hozirgi vaqtida karerlarda kamerali zaryadlash usuli transheya yoki yarim transheya hosil qilishda qo‘llaniladi. (8.1 rasm b, v)

Katta hajmdagi portlovchi modda zaryadlarini qo‘llashda, xavfsizlikni ta’minalash uchun-eng kam qarshilikli chizma W_{Ins} -ni, hisoblashda - zaryaddan ochiq yuzagacha bo‘lgan minimal masofa olinadi.

Qozon zaryadlarini qo‘llash usuli. Karerlarda burg‘uquduqlarni va shpurlarni burg‘ulash natijasida portlovchi moddalarni massivda bir tekisda joylashtirish imkoniyati tug‘iladi. Portlovchi moddalarning energiyasi atrof tog‘ jinslarini maydalashga etmagan vaqtida qozonli zaryadlash usuli qo‘llaniladi. (8.1 rasm g) Massivda burg‘u quduq qazilib: uning ostki qismi kichik portlash zaryadlari yordamida yoki termik burg‘ulash yordamida kengaytiriladi. Kengaytirilgan bushliqqa asosiy portlovchi modda zaryadi joylashtiriladi.


Asosiy kamchiliklari: qozonni hosil qilishni boshqarish va hisoblash qiyinchiliklari, massivning tabiiy holatining buzilishi hamda yoriqlarning hosil bo‘lishi, mexanizatsiyalashmagan ish hajmining oshishi.

Skvajinali zaryadlash usuli. Bugungi kunda karerlarda turli tog‘ jinslarida burg‘uquduqlarni burg‘ulashda turli-tuman samaradorli vositalari mavjuddir (8.2 rasm d).

Bu usulning moxiyati shundan iboratki, portlovchi modda qiya yoki vertikal skvajinalarga joylashtirilib, ularning tepe qismlari tiqinlanadi. Tiqinlovchi material o'rnida qumli inert materillardan, burg'ulash qirindilaridan yoki maxsus tarkibga ega bo'lgan tiqinlovchi materiallardan foydalilanadi. Skvajinalar pog'onaning tepe qismida parallel holatda bir yoki bir necha qator etib, orasidagi masofalar hisoblab teng qilib joylashtiriladi.

Skvajinalar orasidagi masofa shunday tanlanishi kerakki, har bir portlatilgan skvajina o'rtada ochiq joy qoldirmasdan bir-birining ustiga parchalangan tog' jinslarini yopishi yoki qplashi kerak.

Gorizontal, qiya va vertikal skvajinalar mavjud. Hozirgi kunda vertikal skvajinalar keng qo'llanilmoqda. Skvajinada portlovchi modda zaryadi yaxlit va oraliq bo'shliqli holda, portlatiladigan blokda esa bir qatorli va ko'p qatorli holatda qilib joylashtiriladi.




S

8.3. – расм. Портловчи скважина параметлари.

a – яхлит зарядли қия скважина; **б** – ҳаво бўшлиғи ҳосил қилиб кўп қаторли ён esa, о'з на ҳолатда жойлаштирилган вертикаль скважина; **1** – ПМ заряди; **2** – забойка; **3** – ҳаво а mos kelish бўшлиғи.

Скважинагаши майнесигани, қатонга сониш, ғуашк өнгсагани о'згартиши massivda tog' jinslarining xossalariiga qarab portlovchi moddalarni ancha to'g'ri joylashtirishga imkon beradi.



8.4. Rasm. Skvajinalarni pog'onalarda joylashish sxemalari.

a – birqatorli; **b**, **v** – kvadrat va "shaxmat" setkasi shaklida ko'p qatorli joylashishi; **g** – birinchi qatorda juft yaqinlashgan skvajinalar bilan;

SHpurli zaryadlash usuli. SHpur – bu tog' jinsida silindrik shaklda o'yilgan bo'shliq bo'lib, uning chuqurligi 5m gacha va diametri 75 mm gacha bo'lishi mumkin.

Massivda shpurli zaryadlash usulini qo'llash natijasida portlovchi moddalarni ancha to'g'ri taqsimlash mumkin bo'ladi. SHpurli zaryadlash usuli asosan, qurilish materiallarini qazib olish karerlarida, er osti usulida qo'llaniladi va ma'lum darajada foydali qazilmalarning strukturasini o'zgartirmasdan saqlab qolish imkoniyatini beradi. Bu usulning kamchiliklari: mehnat darajasi yuqori, portlovchi modda sarfi baland.

Quyma zaryadlash usuli. Qayta maydalashda va yordamchi ishlarda bu usul qo'llaniladi. Quyma zaryadlarni portlatishdan avval ularning ustki qismi loy yoki yopishqoq modda bilan berkitiladi. Berkitilgan qismining balandligi zaryad balandligidan kichik bo'lmasligi kerak. Zaryadning o'zi katta tog' jinsi bo'lagining chuqurroq qismiga yoki ostiga qo'yiladi. (8.1 rasm a).

Quyma zaryadlarni joylashtirish oddiy bo'lib tayyorlash ishlarini talab qilmaydi, lekin juda katta portovchi modda sarflashga to'g'ri keladi. Hattoki xarsang toshlarni maydalashda kichik shpurli usulga qaraganda 10 baravar ko'p portlovchi moddalar sarflanadi.

Gorizontal, qiya va vertikal skvajinalar mavjud. Hozirgi kunda vertikal skvajinalar keng qo'llanilmoqda. Skvajinada portlovchi modda zaryadi yaxlit va oraliq bo'shliqli holda, portlatiladigan blokda esa bir qatorli va ko'p qatorli holatda qilib joylashtiriladi.

28-MA’RUZA**MAVZU: QAZISH-YUKLASH ISHLARINING TEXNOLOGIK VA TEXNIK ASOSLARI**

Darsning maqsadi – Qazish-yuklash ishlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotga ega bo‘lish.

Reja:

1. Qazish-yuklash ishlari haqida tushuncha.
2. Tog‘ jinslarini draglaynlar bilan qazib olish.

Tayanch iboralar: Qazib-yuklovchi jihozlarning texnologik va texnik asoslari. Ekskavatorlarning kirish yo‘lagi va zaboy turlari. Qazib yuklovchi mashinalar. Gidravlik va mexanik kuraklarning turlari. Bir cho‘michli ekskavatorlar yordamida tog‘ jinslarini qazib olish va ularning texnologik parametrlari.

Qazish-yuklash ishlari haqida tushuncha.

Tog‘ jinsi massivini to‘g‘ridan to‘g‘ri qazib olish va transport vositalariga yuklash yoki qazib olishning o‘zi, mashinaning ishchi organi yordamida tog‘ jinsini bir joydan ikkinchi joyga siljitim va agdarmaga bo‘shatishga – qazish-yuklash ishlari deb ataladi. Bu jarayonni mexanizatsiyalash uchun ishlatilish va texnologik sifatlari turlicha bo‘lgan universal va karer mashinalarining turli turlaridan foydalilanadi va bu mashinalarning qaerda va qaysi sharoitlarda qo‘llanilishi hududiy tabiiy sharoitga va kon texnik sharoitga qarab belgilanadi.

Ekskavator deb shunday mashinaga aytildiki, tog‘ jinslarini cho‘michlab, qisqa masofaga tashib va transport vositalariga yoki ag‘darmaga to‘kuvchi mashinadir.

Ish jarayoni quyidagi 4 xil ketma-ket bajariladigan harakatlardan iborat: cho‘michni to‘ldirish (cho‘michlash), uni to‘kish joyiga surish (harakatlantirish), to‘kish va bo‘sh cho‘michni cho‘michlash joyiga qaytarib keltirish.

Ekskavatorlar umumiy holda quyidagi belgilar bo‘yicha turlanadi:

- ❖ mo‘ljaliga va bajariladigan ish turiga qarab;
- ❖ cho‘mich hajmiga qarab (bir cho‘michli) yoki nazariy unumdoorligiga qarab (ko‘p cho‘michli).
- Ishchi a’zosini turiga qarab ko‘p cho‘michli ekskavatorlar: zanjirli, sidirg‘ichli-cho‘michli, rotorli, frezerli-cho‘michli va cho‘michsiz frezerli ishchi a’zoli turlarga bo‘linadi. Harakatlanish turiga qarab:
 - ❖ bo‘ylama qazuvchi ekskavatorlar, ularda harakatlanish yo‘nalishi qazish yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi;
 - ❖ ko‘ndalang qazuvchi ekskavatorlar, ularda harakatlanish yo‘nalishi yo‘nalishiga perpendikulyar bo‘ladi;
 - ❖ radial qazuvchi ekskavatorlar, ularda ishchi a’zo asos bilan birlashtirilgan mashinaning umumiy asosiga nisbatan buriladi.

Ekskavatorlar pastdan kovlaydigan va yuqoridaan kovlaydigan turlarga bo‘linadi. Harakatlanish mexanizmlari bo‘yicha relslik, gusenitsalik, relsli gusenitsalik va qadamlovchi turlarga bo‘linadi.

Normal iqlim sharoitiga va yukori unumdoorlikka ega bo‘lgan karerlarda ochish ishlari uchun ko‘p cho‘michli rotorli ekskavatorlar va draglaynlarni qo‘llab yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Vaqt qisqa bo‘lganida, ya‘ni qazib oluvchi mashina va uskunalar qisqa vaqt davomida ishlaganida – ochish ishlarida cho‘michi hajmi katta bo‘lgan sidirg‘ich (skreper) lardan foydalish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Karer unumdoorligi kam bo‘lgan yoki mavsumiy sharoitlarda yoz paytlarida buldozerlardan, cho‘michi sig‘imi kam bo‘lgan sidirg‘ichlar va minorali ekskavatorlarni qo‘llash mumkin.

YArim qoya va qoyali tog‘ jinslarini oldindan yumshatilib qazib olishda – mexanik kurak, yuklagichlar va cho‘michi hajmi katta bo‘lgan draglaynlarni qo‘llash mumkin.

Konchilikda qo'llaniladigan barcha mashinalar ishlash prinsipiga qarab:


- ❖ uzluksiz ishlovchi mashinalar (ko'p cho'michli rotorli va zanjirli ekskavatorlar, buroshnekli qurilmalar, uzluksiz yuklovchi mashinalar, kombaynlar);
- ❖ davriy ishlovchi mashinalar (bir kovshli ekskavatorlar, g'ildirakli va gusenitsali yuklagichlar, kabelli ekskavatorlar, mexanik kuraklar, buldozerlar va sidirg'ichlar) ga bo'linadi.

Transport vositalariga nisbatan mashinalar quyidagilarga bo'linadi:

Qazib-yuklovchi mashinalar. Bu mashinalar foydali qazilmani qazib oladi va qazish joyining o'zida transport vositasiga yuklaydi. Bularga misol qilib, rotorli va ko'p cho'michli ekskavatorlarni, mexanik kurak, minorali ekskavatorlar va burozaryadli kombaynlarni olish mumkin.

Ekskavatsiyalovchi mashinalar. Bu mashinalar qazish joyida ishlaydi va cho'michi bilan qazilgan tog' jinsini mashina konstruksiyasida ko'rsatilgan masofaga va ag'darmaga yuklaydi (bo'shatadi), bularga misol qilib draglaynni olish mumkin.

Qazib-tashuvchi mashinalar. Bu mashinalar qazib olingan tog' jinsini iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan masofagacha tashiydi. Bunga misol qilib g'ildirakli yuklagichlarni, sidirg'ich va buldozerlarni keltirish mumkin.



9.1. Rasm. Qazib yuklovchi mashinalar sxemalari.

a – to‘g‘ri kurakli; b – qaytma kurakli; v – draglayn; g – greyfer; d – zanjirli ko‘p kovshli ekskavator; e – rotorli ekskavator; j – g’ildirakli skreper; z – buldozer; i – shnekli burg’ulovchi mashina;

Tog' kon va transport mashinalari komplektida ekskavatsiyalovchi mashinalar texnologik oqimda asosiy o'rinni egallaydi. Bu mashinalarning unumdonligi tog' jinslarini qazib olishga qanday tayyorlanganligiga va transport xizmatining qanday ko'rsatilishiga bog'liq buladi. Transport xizmati ko'rsatish deganda – transport kommunikatsiyalari barpo etish va transport vositalarining ritmik tarzda etkazilib turilishi tushuniladi. Ekskavatsiyalovchi mashinalar unumdonligigiga qazish joyi parametrlari va ishslash texnologiyalari aloxida ta'sir ko'rsatadi.

Tog' jinslarini draglaynlar yordamida qazib olish.

Draglayn davriy ishlovchi ekskavator bo‘lgani uchun uning 1tn konstruksiyasiga to‘g‘ri keladigan unumdorligi uzluksiz ishlovchi ekskavatorlarnikiga nisbatan kam bo‘ladi. Ammo uning qo‘llanish soxasi juda kengdir.

Draglayn bilan yarim qoya tog‘ jinslarini oldindan burg‘ulab portlatib yumshatilganidan keyin qazib olish mumkin. Draglaynning ishchi organi – cho‘michli kanat osilgan strela hisoblanadi. Draglaynlarning ishlash prinsipi shundan iboratki, ekskavator tortuvchi kanat bilan cho‘michni tortib qazish joyi yuza qatlamini kirkadi, cho‘mich chuqurlashib tishlari bilan tog‘ jinsiga botadi.

Zich tog‘ jinslarini qazib olishda cho‘michning orqa qismi ko‘taruvchi kanat yordamida biroz ko‘tariladi va qazish joyi bilan cho‘mich tishi orasidagi burchak kattalashtiriladi. Bu esa, o‘z navbatida cho‘michning tog‘ jinsiga botishini osonlashtiradi. Ishchi sikl – ekskavatorning burilish bilan bir vaqtida cho‘michni qazish joyiga tushirishi, undan keyin cho‘michni to‘ldirish, qazish joyidan ko‘tarish va buralish bilan birga bo‘shatish joyiga bo‘shatishlardan iboratdir.


To‘ldirilgan cho‘mich gorizontal holatda tortuvchi kanat yordamida ushlab turiladi. Ish vaqtida ekskavator dumaloq – aylanuvchi platformaga tayanadi va shuning uchun xam ekskavatorning og‘irligidan qat’iy nazar erga bo‘ladigan solishtirma bosim kam bo‘ladi va bu ekskavatorning to‘kilgan tuproq va ag‘darmalar ustlarida samarali ishlash imkonini beradi.



9.2 Rasm. Draglaynning umumiy ko‘rinishi.


Draglaynlarning qazib olish texnologiyasi va parametrлари. Draglaynlarning asosiy texnologik parametrлари - cho‘mich sig‘imi, ekskavator o‘lchamlari, uning massasi, erga beruvchi solishtirma bosimi, zabt etish qiyaligidan iboratdir. Ishchi parametrлари esa qo‘yidagilardan iborat:

- ❖ cho‘michlash radiusi- R_{ch} ;
- ❖ cho‘michlash chuqurligi- N_r ;
- ❖ yuklash radiusi- R_r ;
- ❖ yuklash balandligi- N_r .



9.3-rasm. Draglaynning ishchi parametrlari.

Draglaynlar asosan karerlarda ochish ishlarini olib borish va ochish ishlaridan hosil bo‘lgan tog‘ jinslarini ishlangan bo‘shliqlarga joylashtirishda qo‘llaniladi hamda karerlarni qurayotganda transheyalarni qazish uchun ishlatiladi.




9.4. Rasm. Draglavn zaboylari.

Pog'ona balandligi draglaynning qo'llash prizmasi chegarasidan tashqarida joylashishini hisobga olgan holda, cho'michlash chuqurligiga qarab belgilanadi (qazish jovi tekisligiga $30\text{--}60^\circ$).

Kirish kengligi $V(m) - \text{draglaynning qaytib olish burchagi}$ (ψ_1 va ψ_2) ni hisobga olgan holda cho'michlash radiusi bilan aniqlanadi (siliish uqiga nisbatan 45° dan yuqori emas).

$$V = R_{ch} (\sin \psi_1 + \sin \psi_2).$$

Qazish joylarini pastdan cho'michlab qazib olishda –avvalo tepadan pastga qarab gorizontal qatlamlar bilan qirqib olinadi. Draglaynning siljish qadamining kattaligiga qarab, xar qaysi qatlam cho'mich to'ladigan masofada qazib olinadi. Qazib olishning har bir bosqichi pog'ona qiyaligidan boshlanadi. Qatlamlar to'la balandlik bo'yicha qazib olinib bo'lganidan keyin, qazish joyida qolgan tog' jinslari qiva qatlamlar bilan qazib olinadi.

**9.5. Rasm. Draglaynning ishlash sxemalari.**

a, b, v - yon tomonlama (torsovyj) zaboyda ishlash sxemasi; a – pog'ona yuqori qatlamida, b – pog'onaning oraliq qatlamida, v – pog'ona pastki qadtlamida; g – pog'ona pastki qatlamida boshi berk (tupikli) zaboyda ishlash sxemasi.

YUqoridan cho'michlab qazib olish uchun draglayn cho'michining sig'imi $10m^3$ dan kam bo'lmasligi kerak. Bunda, pog'ona balandligi (h) – qazish joyida ekskavator burilganida cho'michi bilan pog'onaga tegib ketmasligi uchun $h = 0,8 H_r$ dan katta bo'lmasligi kerak. Ekskavator cho'michi toyib (inib) ketmasligi uchun qazish joyi tekisligining qiyalik burchagi $20-25^\circ$ bo'ladi.

Ba'zi bir draglaynlarning ish rejimi yarim avtomatlashirilgan. Ekskavatorni boshqarish tizimiga elektron kqrilma ulanadi va mashinist tomonidan cho'michlash amali bajarilganidan keyin operatsiyalarini boshqarish punktiga cho'michni ko'tarish, ekskavatorni bo'shatish joyiga burish, bo'shatish va burilib qazish joyiga qaytib kelish komandasini beradi va bu ishlar mashinist tomonidan nazorat qilib turiladi. Bu tizim ekskavator ishini maromlashtiradi, ekskavatsiyalash siklini kamaytirib, ekskavator unumdorligini oshishiga olib keladi.

Tog' jinslarini mexanik kurakli ekskavatorlar bilan qazib olish.


Mexanik kurakli qazib-yuklovchi ekskavatorlar karerlarda keng qo'llaniladi. Ular konstruksiyalaring tuzilishi – uzluksiz ishlovchi qazib-yuklovchi mashinalar ishlay olmagan iqlim sharoitlarida ham ishlash imkonini beradi.

Karer mexanik kuraklarining texnologik xarakteristikasi.

Ko'rsatkichlar	Karer mexanik kuraklari						Ochuvchi mexanik kuraklari	
	EKG - 3,2	EKG -5A	EKG- 8I	EKG- 12,5	EKG -15	EKG -20A	EVG- 35/65	EVG- 100/70
Kovsh sig'imi m^3	2,5;3 ,24	4;5; 6,3	6,3;8; 10	10;12,5; 16	15	20	35	100
CHO'michlash radiusi, m	8,8	11,2	11,9	14,8	15,6	-	37	-
Maksimal yuklash radiusi, m	12	13,6	16,3	19,9	20	21,6	62	66
Maksimal cho'michlash radiusi, m	13,5	15,5	18,2	22,5	22,5	24	65	70
Maksimal cho'michlash	9,8	11	12,5	15,6	16,4	18	40	50

balandligi, m								
Maksimal yuklash balandligi, m	6,1	7,5	9,1	10	10	11,6	45	40
Ko'tarilish balandligi, grad	12	12	12	12	12	12	5	5
Ekskavator massasi,t	140	250	370	653	672	1060	3790	12000
Dvigatel quvvati, kVt	250	320	520	1250	1250	1358	5500	11600
Sikl davomiyligi (90°burchak ostida burilganda), sek	23,3	25	28	32	28	32	56	55

Ular asosan zinch tog' jinslarini yumshatmasdan, qoyali va yarim qoyali tog' jinslarini oldindan yumshatib qazib olishga mo'ljallangan. Cho'mich, strela va rukoyat – mexanik kurakli ekskavatorning ishchi organi hisoblanadi. Bu ekskavatorlar bilan zinch tog' jinslarini ekskavatsiyalash jarayonida cho'michning keskir tishlari bilan tog' jinsi qatlami qirqiladi. To'ldirilgan cho'mich bilan ekskavator bo'shatish joyiga buriladi va kovshni bo'shatib, ishchi organ yana qazish joyiga qaytadi. Portlatib yumshatilgan uyumlarni yuklashda esa, cho'mich uyumga botiriladi.



1.6 – Rasm. Mexanik kurakli ekskavatorlarning parametrlari va qazib olish texnologiyasi.

CHO'michlash radiusi R_{ch} – cho'michlash jarayonida ekskavatorning aylanish o'qidan kesuvchi tishigacha bo'lgan gorizontal masofa.

CHO'michlash balandligi N_{ch} – cho'michlash jarayonidan ekskavator turgan gorizontdan kesuvchi tishgacha bo'lgan vertikal masofa.

YUklash (razgruzka) radiusi R_r – yuklash jarayonida ekskavatorning aylanish o'qidan kovsh o'qigacha bo'lgan gorizontal maosfa.

YUklash (razgruzka) balandligi N_r – ekskavator turgan gorizontdan kovshgacha (ochiq turgan holatida) bo'lgan vertikal masofa.

Rukoyatni siljitish prinsipiga qarab mexanik kurakli ekskavatorlar kanatlari va hidravlik siljituvchi ekskavatorlarga bo'linadi.

Ishlatilish sferasiga qarab mexanik kurakli ekskavatorlar ikki turga bo'linadi:

- ❖ karerlarda ishlovchi ekskavatorlar;
- ❖ ochish ishlari uchun mo'ljallangan ekskavatorlar.

Karerda ishlovchi ekskavatorlar – tog' jinslarini qazib olish va ularni transport vositalariga yuklashga mo'ljallangan.

Ochish ishlari uchun mo'ljallangan ekskavatorlar esa, qazib olingan tog' jinslarini ishlangan (foydali qazilma qazib olingan) bo'shilqlarga tashlab ishlaydi.

Bir cho'michli mexanik kurakli ekskavatorlar asosan Rossiya, AKSH, Fransiya, Germaniya va Yaponiya davlatlarida ishlab chiqariladi.

Tog‘ jinslarini skreperlar bilan qazib olish.


Skreperlar (sidirg‘ichlar) qazib tashuvchi mashinalar guruhiga kirib, tog‘ jinsini qazib olish, ularni 0,2-6 km gacha tashish va ag‘darmalarga joylashtirish amallarini birgalikda bajaradi. Bunday mashinalar yo‘l qurilishi ishlarida va yarim qoyali tog‘ jinsli (olidindan portlatilib yumshatilgan) karerlarda tog‘ jinslarini qazib olish uchun ishlatiladi.

Skreperlar ikki xil turda – o‘zi yurar va sudraluvchi skreperlar ko‘rinishida ishlab chiqariladi. Skreperlar bilan uncha katta hajmda bo‘lmagan tog‘ jinslarini qazib olish qulay. Skreperlar karerlarda rekultivatsiya ishlarini olib borishda ham qo‘llaniladi, ya’ni, unumdon qatlamini olishda va keyinchalik, karerdagi qazish ishlari va ag‘darmalarni tekislash tugallangangach, unumdon tuproqni qayta olib borib ag‘darmalar ustiga yotqizish ishlarini bajarishda qo‘llaniladi.



9.7 rasm. Skreperning umumiyo ko‘rinishi.

Skreperning ishchi sikli – tog‘ jinsi qatlamini qirqib kovush (cho‘mich) ni to‘ldirish, uni tegishli masofagacha tashib borish, cho‘michni bo‘shatish va qazish joyiga qaytib kelishdan iborat.



9.8. Rasm. Qiya (a) va gorizontal (b) qatlamlar bilan qazib olishda skreper zaboyi.

Skreperlar bilan qazib olish jarayonida – gorizontal yoki tekisliklarda ketma-ket yotgan qatlamlar qirqib olinadi. Gorizontal qatlamlar bilan qazib olish texnologiyasi - qalinligi katta bo‘lmagan ochish

ishlarida, unumdon qatlamlarni olib qo'yishda yoki unchalik chuqur bo'lman transheyalarni qazishda qo'llaniladi.

G'ildirakli skreperlarning unumdonligi – ular cho'michining sig'imiga, sikl davomiyligiga, tashib borish masofasi va tezligiga hamda qazib olinayotgan tog' jinsining xususiyatlariga bog'liq. Tog' jinslarini buldozerlar bilan qazib olish.

Karerlarda – kon qazish ishlarida buldozerlar asosan foydali qazilmalar ustini qoplab yotgan tog' jinslarini olib tashlab, ochish ishlarini bajarishda, rekultivatsiya va yordamchi ishlar (qatlamni qazib olish oldidan tozalash, qazish joyini tekislash va yo'llarni to'kilgan tog' jinslaridan va qorlardan tozalash) ni bajarishda qo'llaniladi.

Ochish va qazib olish ishlari hajmi uncha katta bo'lman va ag'darmagacha tashish masofasi 80-100 m dan oshmagan qurilish materiallari karerlarida ko'pincha buldozerlardan foydalananiladi. Karerlarda ochish ishlarida va ag'darmalarda ishlash uchun quvvati katta bo'lgan gusenitsali to'g'ri ag'darmali buldozerlar qo'llaniladi.



9.9 Rasm. Buldozer-yumshatgichning umumiyo ko'rinishi.

Tog' jinslarini buldozerlar bilan qazib olish texnologiyasida – gorizontal yoki qiya (30° gacha) uchastkalarda qatlamlar ketma-ket qirqib olinadi. Bunda buldozer ag'darmasining to'lishini ta'minlovchi o'rtacha uzunlik 8-16 m ga teng bo'ladi. Qiya maydonlarda qazib olish ishlari bajarilganida buldozer og'rligining bir qismi tog' jinslarini kesishga va siljitishtga ishlatiladi. Ag'darmaning tog' jinsiga botishi – buldozerning gidrosistemasi yordamida amalga oshiriladi. Ag'darma oldidagi bo'shliq tuproq bilan to'lidan keyin – buldozer ag'darmasini qazish joyi satxigacha ko'taradi va to'la kovshni kerakli joygacha tashib boradi. Tashish paytida tuproq yoki tog' jinslarining yo'qolishini kamaytirish uchun ag'darma yopgichlar bilan yopilishi ham mumkin.

Zichligi katta bo'lgan jinslarda qazish ishlari olib borilganida – buldozerlar yumshatgichlar bilan birgalikda ishlaydi yoki buldozerlarning o'zları oldindan yumshatish uchun bir nechta tishlar bilan jixozlanadi. Bu texnologiya qurilish materiallari karerlarida oxaktoshlarni qazib olishda qo'llaniladi. YUmshatilgan tog' jinslari buldozer yordamida bunkergacha tashiladi va u bunkerdan konveyrga tushadi yoki gildirakli transport vositalariga yuklanib tashib ketiladi.

Tog' jinslarini buldozerlar bilan tashishda ruxsat etilgan qiyalik - 6° gacha. Tog' jinsini tashish paytida to'kilgan tog' jinslaridan tozalab nazorat qilish ishlari asosiy texnologik transport tezligidan kam bo'lman tezlikka ega bo'lgan g'ildirakli buldozerlar yordamida amalga oshiriladi va bunda asosiy texnologik transport unumdonligini kamaytirmaydi.

Buldozerlarning ag‘darmalardagi ishlari shundan iboratki - ular avtotransport bilan tashib keltingan tog‘ jinslarini ag‘darmalarga joylashtiradilar. Tog‘ jinslarini qazib oluvchi buldozerning mehnat unumdarligi – uning quvvatiga, ag‘darmasi o‘lchamlariga, tashib borish masofasiga hamda qazib olinayotgan tog‘ jinslarining xususiyatlariga bilan bog‘liq bo‘ladi. Ishchi sikldagi amallar – yupqa qatlamni qirqib olish va uni ag‘darma oldida to‘plash, yukni tashib borish va bo‘sh qaytish.

Tog‘ jinslarini cho‘michli yuklagichlar bilan qazib olish.


Bir cho‘michli yuklagichlar asosan karerlarda qazib olish va yuklash, qazib-tashish hamda yordamchi transport vositasi sifatida ishlatiladi. Qazib-yuklovchi uskunalar ko‘pincha avtomobil transporti bilan ishlovchi karerlarda qo‘llaniladi. Qazib-tashuvchi texnikalar esa, qurilish materiallari karerlarida qazilgan massani qazish joyidan maydalab-saralovchi fabrika bunkerigacha tashib borish uchun qo‘llaniladi.

Xuddi shuningdek yuklovchi transport vositalari yordamchi vositalar sifatida qo‘llanilib, qazish joylarini tozalashda, yo‘llarni qordan tozalashda va boshqa ishlarda foydalanish mumkin. YUklagichlarning asosiy ustunligi – ular yuritgichining avtonomligidir. SHuning uchun ham ulardan konlarni uzlashtirish paytida va uzoq muddatga mo‘ljallangan karerlarda qo‘llab yuqori samaradorlikka erishish mumkin.



9.10. Rasm. YUklagichning ishlash jarayoni.

YUklagichlar cho‘michlarining hajmi $0,5 \text{ m}^3$ dan $20-23 \text{ m}^3$ gacha bo‘lib, gusenitsali va gildirakli ko‘rinishda ishlab chiqariladi. G‘ildirakli yuklagichlar – avtoyuklagichlar deb ataladi. YUmshoq va portlatilgan tog‘ jinslarida yuklagichlar bilan ishlash texnologiyasi shundan iboratki, bunda yuklagichning cho‘michi qazish joyining quyi qismiga kiritiladi va gidravlik sistema bilan ko‘tarilib to‘lg‘aziladi va shu vaqtning o‘zida gorizontal tekislikda buriladi. CHo‘michning qazish joyiga bo‘lgan bosimi yuklagichning yuritish mexanizmi hisobiga amalga oshiriladi. CHo‘mich to‘lgach yuklagich qazish joyidan chiqadi, cho‘michni bo‘shatish balandligigacha ko‘taradi va tuntarib transport vositasiga yoki bunkerga bo‘shatadi.



9.12. Rasm. Yuklagichning ishlash prinsipi.

Yuklagichlar bilan ishlaganda qazish joyining balandligi 8 m. dan 15 m. gacha bo‘ladi. Qazish joyi kengligi cheklanmaydi. YUKLAGICHNING unumдорлигі – унинг cho‘michi hajmi, qazib olish texnologiyasi, tashib borish masofasi bilan bog‘liq bo‘lib, xuddi ekskavatorlardagi bog‘lanishlar kabi aniqlanadi.

Yuklagichlar bilan qazib olish paytida siklning davomiyligi (texnika fanlari doktori K.N.Trubetskiy tavsiyasiga ko‘ra): CHo‘mich hajmi:

$2\div3 \text{ m}^3$ bo‘lganida 50-60 s;

$4\div6 \text{ m}^3$ bo‘lganida 54-56 s;

$7,5\div12,5 \text{ m}^3$ bo‘lganida 57-62 s;

$5\div20 \text{ m}^3$ bo‘lganida 66-70 s

ni tashkil etadi. Qazib-yuklash ishlari olib borilganida yuklagichning foydalanish koeffitsienti $R_i = 0,8$ ni tashkil etadi.

29-MA’RUZA**MAVZU: TOG‘ JINSLARINI BIR KOVUSHLI EKSKOVATORLAR YORDAMIDA QAZIB OLİSH.**

Darsning maqsadi – Qazish-yuklash ishlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotga ega bo‘lish. Davriy ishlovchi kon qazish mashinalari va ularning ishchi parametrlari to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish

Reja:

1. Qazish-yuklash ishlari haqida tushuncha.
2. Tog‘ jinslarini draglaynlar bilan qazib olish.
3. Tog‘ jinslarini mexanik kurakli ekskavatorlar bilan qazib olish.

Tayanch iboralar: Mexanik kurakli ekskavatorlarni texnologik parametrlari. Portlatilgan tog‘ jinslarini mexanik kurakli ekskavatorlar bilan qazish. Yuklash turlari. Zaxodka turlari

Qazish-yuklash ishlari haqida tushuncha

Tog‘ jinsi massivini to‘g‘ridan to‘g‘ri qazib olish va transport vositalariga yuklash yoki qazib olishning o‘zi, mashinaning ishchi organi yordamida tog‘ jinsini bir joydan ikkinchi joyga siljitim va agdarmaga bo‘shatishga – qazish-yuklash ishlari deb ataladi. Bu jarayonni mexanizatsiyalash uchun ishlatilish va texnologik sifatlari turlicha bo‘lgan universal va karer mashinalarining turli turlaridan foydalaniadi va bu mashinalarning qaerda va qaysi sharoitlarda qo‘llanilishi hududiy tabiiy sharoitga va kon texnik sharoitga qarab belgilanadi.

Ekskavator deb shunday mashinaga aytildiği, tog‘ jinslarini cho‘michlab, qisqa masofaga tashib va transport vositalariga yoki ag‘darmaga to‘kuvchi mashinadir.

Ish jarayoni quyidagi 4 xil ketma-ket bajariladigan harakatlardan iborat: cho‘michni to‘ldirish (cho‘michlash), uni to‘kish joyiga surish (harakatlantirish), to‘kish va bo‘sh cho‘michni cho‘michlash joyiga qaytarib keltirish.

Ekskavatorlar umumiy holda quyidagi belgilar bo‘yicha turlanadi:

- ❖ mo‘ljaliga va bajariladigan ish turiga qarab;
- ❖ cho‘mich hajmiga qarab (bir cho‘michli) yoki nazariy unumdotligiga qarab (ko‘p cho‘michli).

Ishchi a’zosini turiga qarab ko‘p cho‘michli ekskavatorlar: zanjirli, sidirg‘ichli-cho‘michli, rotorli, frezerli-cho‘michli va cho‘michsiz frezerli ishchi a’zoli turlarga bo‘linadi. Harakatlanish turiga qarab:

- ❖ bo‘ylama qazuvchi ekskavatorlar, ularda harakatlanish yo‘nalishi qazish yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi;
- ❖ ko‘ndalang qazuvchi ekskavatorlar, ularda harakatlanish yo‘nalishi yo‘nalishiga perpendikulyar bo‘ladi;
- ❖ radial qazuvchi ekskavatorlar, ularda ishchi a’zo asos bilan birgalikda mashinaning umumiy asosiga nisbatan buriladi.

Ekskavatorlar pastdan kovlaydigan va yuqoridaan kovlaydigan turlarga bo‘linadi. Harakatlanish mexanizmlari bo‘yicha relslik, gusenitsalik, relsli gusenitsalik va qadamlovchi turlarga bo‘linadi.

Normal iqlim sharoitiga va yukori unumdotlikka ega bo‘lgan karerlarda ochish ishlari uchun ko‘p cho‘michli rotorli ekskavatorlar va draglaynlarni qo‘llab yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Vaqt qisqa bo‘lganida, ya’ni qazib oluvchi mashina va uskunalar qisqa vaqt davomida ishlaganida – ochish ishlarida cho‘michi hajmi katta bo‘lgan sidirg‘ich (skreper) lardan foydalaniш maqsadga muvofiq bo‘ladi. Karer unumdotligi kam bo‘lgan yoki mavsumiy sharoitlarda yoz paytlarida buldozerlardan, cho‘michi sig‘imi kam bo‘lgan sidirg‘ichlar va minorali ekskavatorlarni qo‘llash mumkin.

YArim qoya va qoyali tog‘ jinslarini oldindan yumshatilib qazib olishda – mexanik kurak, yuklagichlar va cho‘michi hajmi katta bo‘lgan draglaynlarni qo‘llash mumkin.

Konchilikda qo‘llaniladigan barcha mashinalar ishlash prinsipiqa qarab:


- ❖ uzlusiz ishlovchi mashinalar (ko‘p cho‘michli rotorli va zanjirli ekskavatorlar, buroshnekli qurilmalar, uzlusiz yuklovchi mashinalar, kombaynlar);
- ❖ davriy ishlovchi mashinalar (bir kovshli ekskavatorlar, g‘ildirakli va gusenitsali yuklagichlar, kabelli ekskavatorlar, mexanik kuraklar, buldozerlar va sidirg‘ichlar) ga bo‘linadi.

Transport vositalariga nisbatan mashinalar quyidagilarga bo‘linadi:

Qazib-yuklovchi mashinalar. Bu mashinalar foydali qazilmani qazib oladi va qazish joyining o‘zida transport vositasiga yuklaydi. Bularga misol qilib, rotorli va ko‘p cho‘michli ekskavatorlarni, mexanik kurak, minorali ekskavatorlar va burozaryadli kombaynlarni olish mumkin.

Ekskavatsiyalovchi mashinalar. Bu mashinalar qazish joyida ishlaydi va cho‘michi bilan qazilgan tog‘ jinsini mashina konstruksiyasida ko‘rsatilgan masofaga va ag‘darmaga yuklaydi (bo‘shatadi), bularga misol qilib draglaynni olish mumkin.

Qazib-tashuvchi mashinalar. Bu mashinalar qazib olingan tog‘ jinsini iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lgan masofagacha tashiydi. Bunga misol qilib g‘ildirakli yuklagichlarni, sidirg‘ich va buldozerlarni keltirish mumkin.



9.1. Rasm. Qazib yuklovchi mashinalar sxemalari.

a – to‘g‘ri kurakli; b – qaytma kurakli; v – draglayn; g – greyfer; d – zanjirli ko‘p kovshli ekskavator; e – rotorli ekskavator; j – g‘ildirakli skreper; z – buldozer; i – shnekli burg‘ulovchi mashina;

Tog‘ kon va transport mashinalari komplektida ekskavatsiyalovchi mashinalar texnologik oqimda asosiy o‘rinni egallaydi. Bu mashinalarning unumдорligи tog‘ jinslarini qazib olishga qanday tayyorlanganligiga va transport xizmatining qanday ko‘rsatilishiga bog‘liq buladi. Transport xizmati ko‘rsatish deganda – transport kommunikatsiyalari barpo etish va transport vositalarining ritmik tarzda

etkazilib turilishi tushuniladi. Ekskavatsiyalovchi mashinalar unumdorligigiga qazish joyi parametrlari va ishslash texnologiyalari aloxida ta'sir ko'rsatadi.

Tog‘ jinslarini draglaynlar yordamida qazib olish.

Draglayn davriy ishlovchi ekskavator bo‘lgani uchun uning 1tn konstruksiyasiga to‘g‘ri keladigan unumdorligi uzluksiz ishlovchi ekskavatorlarnikiga nisbatan kam bo‘ladi. Ammo uning qo‘llanish soxasi juda kengdir.

Draglayn bilan yarim qoya tog‘ jinslarini oldindan burg‘ulab portlatib yumshatilganidan keyin qazib olish mumkin. Draglaynning ishchi organi – cho‘michli kanat osilgan strela hisoblanadi. Draglaynlarning ishslash prinsipi shundan iboratki, ekskavator tortuvchi kanat bilan cho‘michni tortib qazish joyi yuza qatlamini kirkadi, cho‘mich chuqurlashib tishlari bilan tog‘ jinsiga botadi.

Zich tog‘ jinslarini qazib olishda cho‘michning orqa qismi ko‘taruvchi kanat yordamida biroz ko‘tariladi va qazish joyi bilan cho‘mich tishi orasidagi burchak kattalashtiriladi. Bu esa, o‘z navbatida cho‘michning tog‘ jinsiga botishini osonlashtiradi. Ishchi sikl – ekskavatorning burilish bilan bir vaqtida cho‘michni qazish joyiga tushirishi, undan keyin cho‘michni to‘ldirish, qazish joyidan ko‘tarish va buralish bilan birga bo‘shatish joyiga bo‘shatishlardan iboratdir.


To‘ldirilgan cho‘mich gorizontal holatda tortuvchi kanat yordamida ushlab turiladi. Ish vaqtida ekskavator dumaloq – aylanuvchi platformaga tayanadi va shuning uchun xam ekskavatorning og‘irligidan qat‘iy nazar erga bo‘ladigan solishtirma bosim kam bo‘ladi va bu ekskavatorning to‘kilgan tuproq va ag‘darmalar ustlarida samarali ishslash imkonini beradi.



9.2 Rasm. Draglaynning umumiy ko‘rinishi.


Draglaynlarning qazib olish texnologiyasi va parametrlari. Draglaynlarning asosiy texnologik parametrlari - cho‘mich sig‘imi, ekskavator o‘lchamlari, uning massasi, erga beruvchi solishtirma bosimi, zabt etish qiyaligidan iboratdir. Ishchi parametrlari esa qo‘yidagilardan iborat:

- ❖ cho‘michlash radiusi- R_{ch} ;
- ❖ cho‘michlash chuqurligi- N_r ;
- ❖ yuklash radiusi- R_r ;
- ❖ yuklash balandligi- N_r .



9.3-rasm. Draglaynning ishchi parametrlari.

Draglaynlar asosan karerlarda ochish ishlarni olib borish va ochish ishlardan hosil bo‘lgan tog‘ jinslarini ishlangan bo‘shliqlarga joylashtirishda qo‘llaniladi hamda karerlarni qurayotganda transheyalarni qazish uchun ishlatiladi.




9.4. Rasm. Draglayn zaboyları.

Pog‘ona balandligi draglaynning qo‘llash prizmasi chegarasidan tashqarida joylashishini hisobga olgan holda, cho‘michlash chuqurligiga qarab belgilanadi (qazish joyi tekisligiga $30\text{--}60^\circ$).

Kirish kengligi $V(m)$ – draglaynning qaytib olish burchagi (ψ_1 va ψ_2) ni hisobga olgan holda cho‘michlash radiusi bilan aniqlanadi (silsiz uqiga nisbatan 45° dan yuqori emas).

$$V = R_{ch} (\sin \psi_1 + \sin \psi_2).$$

Qazish joylarini pastdan cho‘michlab qazib olishda –avvalo tepadan pastga qarab gorizontal qatlamlar bilan qirqib olinadi. Draglaynning siljish qadamining kattaligiga qarab, xar qaysi qatlam cho‘mich to‘ladigan masofada qazib olinadi. Qazib olishning har bir bosqichi pog‘ona qiyaligidan boshlanadi. Qatlamlar to‘la balandlik bo‘yicha qazib olinib bo‘lganidan keyin, qazish joyida qolgan tog‘ jinslari qiya qatlamlar bilan qazib olinadi.



9.5. Rasm. Draglaynning ishlash sxemalari.

a, b, v - yon tomonlama (torsovyj) zaboya ishlash sxemasi; a – pog'ona yuqori qatlamida, b – pog'onaning oraliq qatlamida, v – pog'ona pastki qadtlamida; g – pog'ona pastki qatlamida boshi berk (tupikli) zaboya ishlash sxemasi.

YUqoridan cho'michlab qazib olish uchun draglayn cho'michining sig'imi $10m^3$ dan kam bo'lmasligi kerak. Bunda, pog'ona balandligi (h) – qazish joyida ekskavator burilganida cho'michi bilan pog'onaga tegib ketmasligi uchun $h = 0,8 H_r$ dan katta bo'lmasligi kerak. Ekskavator cho'michi toyib (inib) ketmasligi uchun qazish joyi tekisligining qiyalik burchagi $20-25^\circ$ bo'ladi.

Ba'zi bir draglaynlarning ish rejimi yarim avtomatlashirilgan. Ekskavatorni boshqarish tizimiga elektron kqrilma ulanadi va mashinist tomonidan cho'michlash amali bajarilganidan keyin operatsiyalarini boshqarish punktiga cho'michni ko'tarish, ekskavatorni bo'shatish joyiga burish, bo'shatish va burilib qazish joyiga qaytib kelish komandasini beradi va bu ishlar mashinist tomonidan nazorat qilib turiladi. Bu tizim ekskavator ishini maromlashtiradi, ekskavatsiyalash siklini kamaytirib, ekskavator unumdorligini oshishiga olib keladi.

Tog' jinslarini mexanik kurakli ekskavatorlar bilan qazib olish.


Mexanik kurakli qazib-yuklovchi ekskavatorlar karerlarda keng qo'llaniladi. Ular konstruksiyalaring tuzilishi – uzluksiz ishlovchi qazib-yuklovchi mashinalar ishlay olmagan iqlim sharoitlarida ham ishlash imkonini beradi.

Karer mexanik kuraklarining texnologik xarakteristikasi.

Ko'rsatkichlar	Karer mexanik kuraklari						Ochuvchi mexanik kuraklari	
	EKG - 3,2	EKG -5A	EKG- 8I	EKG- 12,5	EKG -15	EKG -20A	EVG- 35/65	EVG- 100/70
Kovsh sig'imi m^3	2,5;3 ,24	4;5; 6,3	6,3;8; 10	10;12,5; 16	15	20	35	100
CHO'michlash radiusi, m	8,8	11,2	11,9	14,8	15,6	-	37	-
Maksimal yuklash radiusi, m	12	13,6	16,3	19,9	20	21,6	62	66
Maksimal cho'michlash radiusi, m	13,5	15,5	18,2	22,5	22,5	24	65	70
Maksimal cho'michlash	9,8	11	12,5	15,6	16,4	18	40	50

balandligi, m								
Maksimal yuklash balandligi, m	6,1	7,5	9,1	10	10	11,6	45	40
Ko'tarilish balandligi, grad	12	12	12	12	12	12	5	5
Ekskavator massasi,t	140	250	370	653	672	1060	3790	12000
Dvigatel quvvati, kVt	250	320	520	1250	1250	1358	5500	11600
Sikl davomiyligi (90°burchak ostida burilganda), sek	23,3	25	28	32	28	32	56	55

Ular asosan zinch tog' jinslarini yumshatmasdan, qoyali va yarim qoyali tog' jinslarini oldindan yumshatib qazib olishga mo'ljallangan. Cho'mich, strela va rukoyat – mexanik kurakli ekskavatorning ishchi organi hisoblanadi. Bu ekskavatorlar bilan zinch tog' jinslarini ekskavatsiyalash jarayonida cho'michning keskir tishlari bilan tog' jinsi qatlami qirqiladi. To'ldirilgan cho'mich bilan ekskavator bo'shatish joyiga buriladi va kovshni bo'shatib, ishchi organ yana qazish joyiga qaytadi. Portlatib yumshatilgan uyumlarni yuklashda esa, cho'mich uyumga botiriladi.



1.7 – Rasm. Mexanik kurakli ekskavatorlarning parametrlari va qazib olish texnologiyasi.

CHO'michlash radiusi R_{ch} – cho'michlash jarayonida ekskavatorning aylanish o'qidan kesuvchi tishigacha bo'lgan gorizontal masofa.

CHO'michlash balandligi N_{ch} – cho'michlash jarayonidan ekskavator turgan gorizontdan kesuvchi tishgacha bo'lgan vertikal masofa.

YUklash (razgruzka) radiusi R_r – yuklash jarayonida ekskavatorning aylanish o'qidan kovsh o'qigacha bo'lgan gorizontal maosfa.

YUklash (razgruzka) balandligi N_r – ekskavator turgan gorizontdan kovshgacha (ochiq turgan holatida) bo'lgan vertikal masofa.

Rukoyatni siljitish prinsipiga qarab mexanik kurakli ekskavatorlar kanatlari va gidravlik siljituvchi ekskavatorlarga bo'linadi.

Ishlatilish sferasiga qarab mexanik kurakli ekskavatorlar ikki turga bo'linadi:

- ❖ karerlarda ishlovchi ekskavatorlar;
- ❖ ochish ishlari uchun mo'ljallangan ekskavatorlar.

Karerda ishlovchi ekskavatorlar – tog' jinslarini qazib olish va ularni transport vositalariga yuklashga mo'ljallangan.

Ochish ishlari uchun mo'ljallangan ekskavatorlar esa, qazib olingan tog' jinslarini ishlangan (foydali qazilma qazib olingan) bo'shilqlarga tashlab ishlaydi.

Bir cho'michli mexanik kurakli ekskavatorlar asosan Rossiya, AKSH, Fransiya, Germaniya va Yaponiya davlatlarida ishlab chiqariladi.

30-MA’RUZA**MAVZU: TOG‘ JINSLARINI KO‘P KOVUSHLI EKSKOVATORLAR
YORDAMIDA QAZIB OLİSH.**

Darsning maqsadi – Uzluksiz ishlovchi kon qazish mashinalari va ularning ishchi parametrlari to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish.

Reja:

1. Rotorli ekskavatorlar yordamida tog‘ jinslarini qazib olish.
2. Zanjirli ekskavatorlar yordamida tog‘ jinslarini qazib olish.

Tayanch iboralar: Mexanik kurakli ekskavatorlarni texnologik parametrlari. Portlatilgan tog‘ jinslarini mexanik kurakli ekskavatorlar bilan qazish. Yuklash turlari. Zaxodka turlari.

Tog‘ jinslarini rotorli ekskavatorlar bilan qazib olish.


Rotorli ekskavatorlar o‘zi yurar tinimsiz ishlaydigan mashina bo‘lib, rotor g‘ildiragiga o‘rnatilgan cho‘michlar yordamida tog‘ jinslarini qazib ma’lum masofaga tashiydi va transport vositalariga yuklaydi. Ishlash prinsipi - rotorli g‘ildirak gorizontal va vertikal tekislikda o‘zining cho‘michlari bilan tog‘ jinsini tirnaydi va hosil bo‘lgan (ajralib chiqqan) qirindilar rotorli g‘ildirak biqinida joylashgan konveyrga dumalab tushadi va undan qayta yuklash konsoliga o‘tadi.

Rotorli ekskavatorlar ish unumi yuqori bo‘lgan mashinalar hisoblanib, ularning unumdarligi $12000 \text{ m}^3/\text{s}$ gacha etadi. Ular yumshoq va zinch tog‘ jinslariga mo‘ljallangan.

**10.1-chizma.****Rotorli ekskavatorning umumiyo ko‘rinishi**

Rotorli ekskavatorlarning parametrlari va qazib olish texnologiyasi – asosan, karerda kon texnik sharoitiga, kompleks tarkibidagi transport turlariga va ularning konstruktiv parametrlariga bog‘liq bo‘ladi.


Rotorli ekskavatorlarning asosiy texnologik parametrlari: H_{ch} - cho‘michlash balandligi, J_{ch} - cho‘michlash chuqurligi, R_{ch} -maksimal cho‘michlash radiusi, R_{min} - minimal cho‘michlash radiusi, l-strelaning surilib chiqish uzunligi, R_p - bo‘shatish (yuksizlanish) radiusi, $H_{p\ max}$ - maksimal bo‘shatish balandligi, $H_{p\ min}$ - minimal bo‘shatish balandligi va d - rotor g‘ildiragining diametrleridan iboratdir.



10.2. Rasm. Rotorli ekskavatorning ishchi parametrlari.

Ekskavator turgan joyga nisbatan pastda yoki tepada joylashgan pog'ona osti pog'onalarining balandligi – ekskavatorlarning konstruktiv imkoniyatlardan kelib chiqib aniqlanadi. Bu balandlik – strelaning maksimal ruxsat etilgan qiyalik burchagi bilan cheklanadi: yuqorilab cho'michlaganda - 27° , quyilab (pastdan) cho'michlaganda - 18° . YUqorilab cho'michlashning maksimal balandligi - hozirgi zamon ekskavatorlari uchun – 53,5 m gacha, pastdan cho'michlashda – 25 m ni tashkil etadi.

Rotorli ekskavatorlarning unumdorligida tog' jinsini qazib olish muhim rol o'ynaydi. Rotorli g'ildirak gorizontal tekislikda strelani siljitganida qalinligi 0,3–0,5 m va balandligi 0,4-0,7d bo'lgan tog' jinsini qirqib oladi.



frontal

yon tomonlama (torsoviy)

10.3. Rasm. Rotorli ekskavatorning zaboylari.

Tog' jinslarini zanjirlarli ekskavatorlar bilan qazib olish.


Tog' jinslariga uzluksiz ta'sir ko'rsatib qazib oluvchi mashinalardan yana biri – bu ko'p cho'michli zanjirlarli ekskavatordir. Bu turdag'i mashinalarda ishchi organning ishlash prinsipi – shundan iboratki, pog'ona ustida cho'michlar haraktlanganda, har qaysi cho'mich ma'lum qalinlikda tosh

bo'laklarini qirqib oladi va cho'michni to'lg'azadi. YUqorigi baraban egilganida, cho'michdagi tog' jinslari bunkeriga bo'shaydi va erdan vagon konveyrga kelib tushadi.



10.4 Rasm. Zanjirli ekskavatorning umumiy ko'rinishi.

Ko'p cho'michli ekskavatorlar – pastdan, yuqoridan yoki pastdan va yuqoridan cho'michlovchi konstruksiyalarda ishlab chiqariladi. Pastdan cho'michlovchi ekskavatorlar konda ochish ishlarini olib borish va foydali qazilmani qazib olishda qo'llaniladi. YUqoridan cho'michlovchi ekskavatorlar temir yo'l transporti bilan birgalikda ochish ishlarini olib borishda qo'llaniladi. Ko'p cho'michli ekskavatorlarning asosiy parametrlari: I_{ch} - cho'michlash chuqurligi, N_{ch} - cho'michlash balandligi va l - bo'shatish konsoli uzunligidan iboratdir.



10.5. Rasm. Zanjirli ekskavatorning tuzilish sxemasi.


1 – cho'mich; 2 – cho'mich ramasi; 3 – zanjirning o'tkazuvchi yulduzchasi; 4 – qabul qiluvchi nov; 5 – pastki rama; 6 – ag'darma konsoli; 7 – markaziy kolonna; 8 – ag'darma konsolini ushlab turuvchi strela; 9 – tog' jinsini yig'ib oluvchi rotor g'ildiragi; 10 – cho'mich ramasini ushlab turuvchi.

Ko'p cho'michli zanjirli ekskavatorlar bilan qazib olish texnologiyasi karerdagi kon texnik sharoit va qo'llaniladigan transport turi bilan bog'liq. Tog' jinslarini pog'ona qiyaligidan yoki orqa tarafdan qazib olish mumkin.

Temir yo'l izda yuruvchi barcha ekskavatorlar – pog'ona qiyaligida qazib olayotganda ish fronti bo'y lab harakatlanadi va bunda ikki xil sxema qo'llanilishi mumkin:

1. Ekskavator 10-15 sm qatlamni (yumshoq tog‘ jinslarida) qirqib borish bilan birga, maxsus o‘rnatilgan yo‘lga siljutuvchi yordamida yangi joyga siljiydi va sikl takrorlanadi. Bu sxemada – cho‘mich pog‘ona qiyaligini butun uzunligi bo‘yicha qatlamni qirqadi va ekskavatorning yuqori unumdorligini ta’minlaydi.

2. Sikl boshida – ekskavator qazishga mo‘ljallangan uchastkadan tekislovchi zveno uzunligiga teng bo‘lgan masofa turadi. Front bo‘ylab oldinga va orqaga harakatlanib, xar safar cho‘michni qirqib olinishi kerak bo‘lgan qatlam qalinligida tushiradi. Bunda pog‘onaning ostki qismida uchburchak ko‘rinishida qazilmay qolgan joy hosil bo‘ladi va u keyinchalik tekislovchi zveno tomonidan qazib olinadi.



10.6 Rasm. Kon massasini ko‘p cho‘michli zanjirli ekskavatorlar bilan qazib olish sxemasi.

a – bir qatorli vertikal qatlam bilan; b – ko‘p qatorli qatlamlar bilan; v – gorizontal qatlamlar bilan; ными strujkami; l_v – yo‘naltiruvchi ramani surilish kattaligi

Gusenitsali yuradigan ekskavatorlar pog‘ona qiyaligida ham, orqadan kirib ham tog‘ jinslarini ekskavatsiyalashi mumkin. Qazib olinadigan pog‘onaning balandligi ekskavatorning konstruksiyasi bilan aniqlanib, texnik xarakteristikasida cho‘michlash chuqurligi va balandligi ko‘rsatilgan bo‘ladi. Xozirgi zamon ekskavatorlari uchun bu raqamlar – 12 m dan 33 m gacha etadi.

Ekskavatorlarning ishlash rejimi to‘laligicha avtomatizatsiyalashtirilgan va ularning yuqori unumdorlik bilan ishlashini ta’minlaydi. Ko‘p cho‘michli zanjirli ekskavatorlar cho‘mich tishlarining kesish kuchi kam bo‘lgani uchun, asosan yumshoq tog‘ jinslarida, ko‘mir, fosfatlar, boksitlarni qazib olishda qo‘llaniladi.

31-MA'RUZA**MAVZU:KAR'ER YUKLARINI UZLUKSIZ HARAKATDA ISHLOVCHI
TRANSPORT BILAN TASHISH.****Reja:**

- 1.Kon massasini konveyer transporti bilan tashish.**
- 2. Konveyerning texnik tasnifi.**

Tayanch iboralaer: Kar'er yuklarini uzluksiz harakatda ishlovchi transport bilan tashish. Yuk oqimi. Gruzopotoki.konveyr transporti yordamida gon massasini tashish. Zaboy, to'plami, ko'tarma, magistral va ag'darmali konveyr.

Kon massasini konveyer transporti bilan tashish.

Konveyer transporti transport turi sifatida allaqachonlardan beri ishlatlishiga qaramasdan karerlarda yosh transport turi hisoblanadi. Konveyer metall formalardan tuzilgan bo'lib, tashuvchi a'zosi sifatida rezina lenta (lentali konveyer), kurakli zanjir (kurakli konveyer), plastinkalar (plastinkali konveyer) yoki ariqcha shakldagi (vibratsiyali konveyer) a'zolari ishlatiladi. Karerlardi yumshoq, maydalangan (bo'lak o'lchami 400 mm gacha) qattiq va yarim qoyatoshlarni tashish uchun lentali konveyerlar keng qo'llanilmoqda. Ularning ish prinsipi shundan iboratki: konveyer lentasida tog' jinslari to'ldirilib baraban yuritgich yordamida tortish bilan harakatga keltirilib tashiladi. Konveyr lentasiga nagruzkani kamaytirish uchun qo'shimcha tortish a'zolari, po'lat arqon, zanjir, telejkalar qo'llaniladi. Bunday hollarda lenta faqat kon massasini joylashtiruvchi idish vazifasini o'taydi.

Karerlardagi konveyrlar transporti joylashishi va mo'ljaliga qarab zaboydagisi, to'plovchi, yuk ko'taruvchi, magistral va ag'darma turlariga bo'linadi.

Zaboy konveyerlari pog'ona ishchi maydonchasiga joylashtirilib, kon massasini ekskavatordan to'plovchi konveyrgacha tashishga mo'ljallangan. Karerlarda zaboy fronti sekin-asta siljib borganligi uchun zaboy konveyer seksiyalari maxsus texnika turbodozerlar yordamida yoki gusenitsalik, qadamlovchi mexanizmlar yordamida suriladi.

To'plovchi (uzatuvchi) konveyerlar karerning yon qismida joylashgan bo'lib, ular bir yoki bir necha zaboy konveyrlaridan yuk ko'taruvchi konveyerga tashishga mo'ljallangan. To'plovchi konveyrlar zaboy konveyrlari ortidan o'z o'qiga parallel yo'nalishda gusenitsali yoki rels yo'lli izlarda harakatlanadi.

Yuk ko'taruvchi konveyerlar ishchi bo'lmanagan yoki vaqtinchalik ishchi bo'lmanagan karer qismida (transheyalarda yoki er osti qiya lahimlarida) joylashgan bo'lib, karer ishchi qismidan kon massasini yuqoriga tashishga mo'ljallangan. Yuk ko'taruvchi konveyer yukni to'plovchi konveyerdan olib, oddiy konveyrlarda 18° burchak ostida va maxsus konveyerlarda 50° gacha qiyalikda karer borti bo'ylab er yuzasiga ko'taradi. Yuk ko'taruvchi konveyr ancha yuqori yuritgchi va konstruksiyaga ega bo'lib bir erda muqim o'rnatilishga mo'ljallangan. Kon massasini qattiq jinslarda 14° burchakdan yuqori va

yumshoq jinslarda 18° dan yuqori balandliklarga unumli va xavfsiz ko‘tarish uchun lenta yuzasi qovurg‘alarga bo‘linib yasaladi yoki yuqoridan bosib turuvchi lenta yoki zanjirli to‘r ishlatiladi. Ular materialni pastga surilib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Magistral konveyrlar karer yuzasida joylashgan bo‘lib, qoplama jinslarni ag‘darmaga va foydali qazilmalarni boyitish fabrikasiga yoki omborlarga tashishga mo‘ljallangan.

Ag‘darma konveyrlar ag‘darmalarda joylashgan. Bajaradigan ishiga qarab ular zaboy konveyerlariga o‘xshab ketadi. Ular ag‘darma fronti deyiladi. Tuzilishi bo‘yicha qayta yuklovchi va ag‘darma hosil qiluvchilar bilan birgalikda kompleks hosil qiladi. Qayta yuklovchi uzatuvchi a’zo vazifasini o‘taydi, ekskavatordan zaboy konveyerigacha yoki zaboy konveyeridan to‘plovchiga bir gorizontdan ikkinchisiga, shuning uchun u o‘zi yurar gusenitsali yoki qadamlovchi shakldagi yurish mexanizmiga ega bo‘lib, qabul qiluvchi va konveyer so‘ngida to‘kuvchi qismlari bo‘lib, bu qism 18° gacha har qanday qiyalikda ishlay oladi. YAssi tekislikda qabul qiluvchi moslama va to‘kuvchi qismlari 60° gacha burchakka burilishi mumkin.



12.4. Rasm. Karerda yuk ko‘taruvchi konveyrni qo‘llash.

Konveyr texnologik parametrlariga unumdorlik, konveyer stavining uzunligi, qiyalik burchagi, yuritgich quvvati kiradi, shuningdek lenta eni va tezligi ham hisobga olinadi.

Konveyerning texnik tasnifi.

Konveyer	KL-500	KLJ-800	S-160	KMMZ	NKMZ
Lenta eni	1000	1200	1600	1200	1800
Harakat tezligi, m/s	2,26	2,58	1,6-3,15	3,6	4,35
Unumdorlik, t/s	500	800	600-1950	5000	3150
Konveyer	400	800	1100	800	500

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

stavining uzunligi, m					
YUritgich quvvati, kvt	75	150	400-800	400	1500

Ochiq kon ishlari uchun katta konveyer komplekslari GDR, CHexiya, Germaniya,
AKSH va Rossiya mamlakatlarida ishlab chiqiladi

33-MA’RUZA

MAVZU KAR’ER YUKLARINI DAVRIY HARAKATDA ISHLOVCHI TRANSPORT BILAN TASHISH.

Darsning maqsadi – Ochiq kon ishlarida konveyer va temir yul trasnportining qo‘llanilishi haqida tushunchaga ega bo‘lish.

Reja:

1. Kon massasini temir yo‘l transporti bilan tashish.
2. Kon massasini konveyer transporti bilan tashish.

Tayanch iboralar: draglayn, draglayn parametrlari, mexanik kurakli ekskavatorlar, chumich, strela, rukoyat, skreper, buldozerlar, chumichli yuklagichlar, gildirakli yuklagichlar.


Kon massasini temir yo‘l transporti yordamida tashish.

Temir yo‘l transporti har qanday ob-havo sharoitida o‘zining ishonchliligi, yuqori unumдорligi va ishlatishda foydaliligi sababli karerlarda tarqalgan transport turidir. Uning asosiy ko‘rsatkichi yuk aylanmasi bo‘lib tonna yoki kub metrdagi yuk miqdorini vaqt birligi ichida tashilishiga aytildi. Karer yuk aylanmasi keraksiz jinslarni, foydali qazilma va materiallar yuk aylanmasi yig‘indisidan iborat.



12.1. Rasm. Karerda temir yo‘l transportining ish jarayoni.

Temir yo‘l tarnsporti tashish masofasi 4 km va undan yuqori, yillik yuk aylanish hajmi esa 25 mln.t va undan yuqori bo‘lgan karerlarda keng qo‘llaniladi. Temir yo‘l transportining vositasi rels yo‘llari va harakatganuvchi sostavlardan iboratdir.



12.2 – rasm. Temir yo‘l kурilishi sxemasi.

1 – er katلامи, 2 – ballast, 3 – shpal, 4 – kolejya eni, 5 – relss, 6 – podkladka.


Temir yo‘llar ish bajarish turiga qarab vaqtinchalik va doimiy yo‘llarga bo‘linadi. Vaqtinchalik yo‘llar karer ishchi maydonchalaridagi va ag‘larmalardagi yo‘llar, doimiy yo‘llarga esa transheyadagi yo‘llar, transport bermalardagi yo‘llar va karer yuzasidagi yo‘llar kiradi. Vaqtinchalik yo‘l ish fronti surilishi bilan karerda va ag‘darmalarda vaqt–vaqt bilan surilib turadi. Temir yo‘l quyi va yuqorigi qurilmalardan iborat. Quyi qurilma – suv chiqaruvchi va sun’iy inshoatlarlardan iborat er qoplamasidan iborat.

Temir yo‘lning yuqori qurilmasi – ballast, shpal va mustahkamlangan relslardan iborat. Ballast – er qoplamasiga harakatlanuvchi sostavning bosimini bir xilda taqsimlanishi uchun xizmat qiladi. Ballast uchun 20-79 mm kattalikdagi sheben qo‘llaniladi. Ayrim hollarda galka va graviy ham qo‘llaniladi. Ballast qatlami qalinligi vaqtinchalik yo‘llar uchun 15-20 sm ni, doimiy yo‘llar uchun 25-40 sm ni tashkil etadi. Ballast sarfi 600-1200 m³ dan iborat. SHpallar – ularga relslarni mustahkamlash va bosimni harakatlanuvchi sostavdan ballastga uzatish uchun xizmat qiladi. YOg‘och, temirbeton va metall shpallar qo‘llaniladi. SHpalning standart bo‘yicha o‘lchami 270 sm ni tashkil etadi. SHpallarni xizmat qilish muddatini uzaytirish maqsadida antiseptik bilan to‘yintiriladi. Relslar – harakatlanuvchi sostavning g‘ildiragini yo‘nalishi va bosimni shpalga uzatish uchun xizmat qiladi. Relsning standart bo‘yicha uzunligi 12,5-25 m bo‘ladi.

Karerlarda harakatlanuvchi sostav vagon va lokomotivlardan iboratdir. Foydali qazilmalarni tashish uchun yuk ko‘tarish quvati 60-90 t bo‘lgan gandola tipidagi vagonlar va yuk ko‘tarish quvvati 60 t bo‘lgan xopper tipidagi vagonlar keng qo‘llaniladi. Qoplovchi tog‘ jinslarini tashish uchun vagon dumpkarlar qo‘laniladi.

Karerlarda lokomotivlar sifatida elektrovoz, teplovoz va tortuvchi agregatlar qo‘llaniladi. Elektrovozlarning qulayliklari – foydali ish koeffitsienti yuqori (14-16%), 4% gacha bulgan ko‘tarilish balandliklarini o‘tish qobiliyatiga egalik, ishga doimiy tayyorgarlik va og‘ir iqlim sharoitlarida ham ishonchli xizmat ko‘rsatishidir. Teplovoz lokomotivlar ichki yonuv dvigateli bilan jixozlangan. Foydali ish koeffitsienti 24-26% ga teng. Teplovozlarning kamchiligi ularni remont qilishning qiyinligidir. Tortuvchi agregatlar – boshqaruvchi elektrovoz, dizelli seksiya ya’ni, avtonom ta’minalash seksiyasi va bir nechta motorli dumpkarlardan iboratdir

Karerlarda temir yo‘llarning uzunligi bir necha o‘nlab kilometrgacha, ba’zan yuzlab kilometrgacha etadi. Temir yo‘l uzunligi bo‘yicha uchastkalarga bo‘linadi va peregonlarni ajratuvchi punktlar bo‘linmalar deyiladi. Ularga stansiyalar, raz’ezdlar va postlar kiradi. Stansiyalar poezdlarni joylashtirishga, sostav to‘plashga, texnik xizmati, tekshirish va bir yo‘llik joylarda poezdni kutish uchun xizmat qiladi. Raz’ezdlar bir yo‘llik joylarda faqat oldindan kelayotgan poezdni kutishga xizmat qiladi (asosan yuk poezdni kutishi kerak). Stansiya va raz’ezdlar maxsus yo‘l tarmoqlariga ega bo‘lib, yuk aylanmasi va ayrim kerakli maqsadlarga mo‘ljallangan. Postlar yo‘l tarmoqlanishiga ega emas. Ular poezdni to‘xtatishga mo‘ljallangan bo‘lib, agarda keyingi peregongacha yo‘lda poezd bo‘lsa postda kutiladi. Karerdagi yo‘l tarmoqlanishi karer yo‘lini temir yo‘llar vazirligiga, ombor yo‘llariga, karer montaj maydonchasiga, harakatdagi sostavni ta’minalash deposiga va boshqalarga ulangan bo‘ladi.

**12.3. расм.**

Алмашувчи пункт-ларнинг жойлашуви:

- 1 – ер юзасида;
- 2 – съездларни горизонт билан туташган жойида;
- 3 – багловчи бермаларда;
- 4 – ишчи погоналарда.

Kon massasi bo'yicha karer unumdorligiga qarab, karerdagi doimiy temir yo'llar bir yo'lli yoki ikki yo'lli bo'lishi mumkin. Bir yo'llik trassada yuklangan va bo'sh poezdlar raz'ezdlarda almashinadi. Temir yo'l transportini unumdorligini oshirish uchun peregon uzunligi kamaytiriladi, unda temir yo'l transportini ekspluatatsiyasi qoidalariga ko'ra faqat bir sostav bo'lishi kerak. Ikki yo'llik trassa yukli va yuksiz poezdlarni alohida yo'llarda harakatini ta'minlaydi. Tezlikni oshirish uchun bunda peregonlar uzunligi oshiriladi.

Zaboylardagi va ag'darmalardagi yo'l tarmoqlari qazuvchi yuklovchi va ag'darma hosil qiluvchi mashinalarning minimal turib qolishlarini va temir yo'l transportining o'zini ham zaboyda yukli va yuksiz sostavlarini almashtirishda minimal vaqtini sarflashini ko'zlab qurilishi kerak. Bir yo'llida sostavlar almashishi gorizonti ishchi zonasidan tashqarida olib borilishi kerak. Ayni paytda almashish uchun yuksiz sostav yukli sostavni almashish punktida kutib turadi. Ekskavatorning kutish vaqtini bunda yukli sostavni almashish punktigacha kelgan vaqtini bilan yuksiz sostavni yuklash joyigacha olib borish vaqtleri yig'indisiga teng. Kutish vaqtini kamaytirish uchun almashish yo'lini gorizont ishchi zonasiga joylashtiriladi, bunda bu yo'lni siljitish qiyinlashadi. Agar bir gorizontda ikki yoki undan ortiq ekskavator ishlasa ikki yo'lli almashish joylari har bir ekskavator uchun qo'llaniladi.

Ag'darmalardagi yo'l tarmoqlari ag'darma hosil qilish texnologiyasiga bog'liq bo'ladi. Ekskavatorlik ag'darma hosil qilishda yo'l tarmoqlanish sxemasi zaboynikiga o'xshash bo'ladi. Temir yo'l transporti tezligi karerda domiy temir yo'llarda 35-40 km/s, zaboyda va almashinuvda 15-20 km/s.

34-MA’RUZA**MAVZU: KAR’ER YUKLARINI AVTOMOBIL TRANSPORTI YORDAMIDA
TASHISH.**

Darsning maqsadi – Ochiq kon ishlaridagi karer yuklari, avtomobil transportining ko‘llanilishi haqida tushunchaga ega bo‘lish.

Reja:

1. Kon massasini tashishda avtomobil transportini qo‘llash.
2. Kon massasini tashishda avtovtransport ishini tashkillashtirish

Tayanch iboralar: tashish masofasi, kapital yullar, vaktinchalik yullar, yul koplamasi, passiv va aktiv vositalar, avtomobil yulining utkazish kobiliyati, avtosamosvallar.

Karer yuklari.

Karer yuklarini tashish karerlarda eng ko‘p energiya sarf bo‘ladigan jarayon hisoblanadi. Ochiq kon ishlaridagi umumiy xarajatlar ichidan transport xarajatlari 60-70% ni tashkil qiladi. Ochiq kon ishlarida kon ishlari olib borishda tog‘ jinslari, foydali qazilmalar, foydali komponentlar miqdori kam bo‘lgan foydali qazilmalar va materiallar tashilishi kerak. Tashiladigan yuk turiga va yo‘nalishiga qarab ochuvchi va foydali qazilma yuk oqimlari tarkib topadi. YUK oqimlari zaboylardan boshlanib, noruda tog‘ jinslar ag‘darmalarida yoki foydali komponentlar miqdori kam rudalar ag‘darmalarida yoki foydali qazilma zaxiralarida tugaydi.

Karer yuklarini tashish chun deyarli barcha transport turlari qo‘llaniladi, ular ish prinsipiga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

- uzluksiz (konveyerli, truboprovodli, osma po‘lat arqon yo‘lli);
- siklli (temir yo‘l, avtomobil, skipli, yuk ko‘taruvchiquqilmalar, konveyer poezdlari).

Uzluksiz transport turi unumlirok trnansport turi bo‘lib, kon ishlarini uzluksiz olib borilishini, boshqarishni avtomatlashtirishni va yuqori ish unumdorligini ta’minlaydi. Uning qazuvchi-yuklovchi va ag‘darma hosil qiluvchi texnikalar bilan birgalikda ishi butunlay avtomatlashtirilgan yuqori unumdorlikka ega bo‘lgan komplekslarni tashkil qilib, tog‘ jinslarini qazib olishga xizmat qiladi. Masalan, rotorli ko‘p cho‘michli ekskavatorlar, konveyer transporti, transport-ag‘darma ko‘prigi yoki ag‘darma hosil qiluvchi komplekslari. Karerlarda tog‘ jinslarini qazib olishda uzluksiz ishlaydigan komplekslarni qo‘llaganda yuk oqimini soddallashtiradi, karerlarda uskunalarni ishlatish darajasi ortadi.

Kon massasini tashishda avtomobil transportini qo‘llash.

Karerlarda avtomobil transporti keng qo‘llaniladi. Bunga sabab uning avtonomligi, harakatchanligi, topografik, geologik va ob-havo sharoitlarida ham yuqori unumdorligi va temir yo‘l transportiga nisbatan soddaroq tuzilganidir.

Avtomobil transporti tashish masofasi 4-5 km bo‘lgan va yillik yuk aylanish hajmi uncha katta bo‘lmagan, ya’ni 15-20 mln.t bo‘lgan hollarda karerda keng qo‘llaniladi. Ishlash prinsipi kon massasini zaboylardan qabul qilish punktlarigacha tashish va to‘kishdan iborat.



11.1. Rasm. Karer avtomobil transportining ish jarayoni.

Karerlardagi avtomobil yo'llaridan foydalanish sharoitlariga qarab yo'llar kapital va vaqtinchalik yo'llarga bo'linadi. Kapital yo'llar doimiy uchastkalarda, er yuzasida, transheyalarda va transport bermalarida quriladi. Kapital yo'llar yo'l qoplamasiga ega. Vaqtinchalik yo'llar zaboylarda, ishchi maydonchalarda, suriluvchi tushish joylarida va ag'darmalarda quriladi. Ular pog'ona va ish frontining siljib borishi bilan davriy o'zgarib turadi va yo'l qoplamasiga ega emas.

Yo'llar yuk zichligi, bir kilometr uzunlikdagi yuk miqdori yoki harakat uzliksizligi vaqt birligi ichida bir tomonga o'tgan mashina soni bilan xarakterlanadi. YUk ko'tarish va harakat uzliksizligi bo'yicha kapital yo'llar uch kategoriyyaga bo'linadi va o'z qoplamlari xususiyatlari ularning ko'rsatkichlari bilan farqlanadi.

Kapital avtomobil yo'llari asosan kyuvetlar, suv uzatuvchi ariqcha, ag'darma, yo'l o'tkazgich qurilma, ko'priq, yo'l qoplamasi o'tkazuvchi qism va obochinalardan tuzilgan. Obochina kengligi 1-2 m ni tashkil etadi. Lahimlarda joylashgan yo'llar trapetsiya shakldagi enliligi 0,4 m bo'lgan yon kyuvetlar (chuqucurligi 0,8-0,9m) ga ega bo'lishi kerak. Yo'l parametrlari o'tish qismining kengligi, burilish radiuslari, bo'ylama yo'nalishdagi qiyalik, ko'ndalang muyulishdagi qiyalik va eng qisqa qurish masofalaridan iboratdir.



11.2. Rasm. Karerda avtomobil yo‘o’llari.

Yo‘l qoplamasи betondan, asfaltobetondan, sementbetondan va ўебенлардан iborat bo‘ladi. Yo‘l qoplamasи turi yo‘ldan foydalanish muddatini, harakat intensivligini, harakatlanuvchi sostav turi va maxalliy yo‘l qurilishi materiallarini hisobga olgan holda tanlanadi. Karerlarda doimiy yo‘llarda, katta harakat intensivligida (sutkada avtosamosvallar reysi 2000-3000 bo‘lganda) sementbeton yoki asfaltobeton qoplamlari qo‘llaniladi. Kam harakat intensivligida (sutkada avtosamosvallarning reysi 1000-1500 bo‘lganda) ўебenli qoplama qo‘llaniladi. Vaqtinchalik yo‘llar qoyali muxitda joylashgan bo‘lsa qoplamaga ega bo‘lmaydi, yumshoq muhitda joylashgan bo‘lsa gruntli qoplamaga ega bo‘ladi.

Qor ko‘chkisi kutiladigan yo‘l qismlarida qordan to‘suvchi passiv va aktiv qurilmalar yasaladi. Qordan ximoya kiluvchi passiv vositalar qish paytida o‘rnatilib, ular shamol tomondan qorni to‘sib qo‘yadi. Qordan ximoya kiluvchi aktiv vositalar balandligi 6 m bo‘lgan tayanchlarga osilgan to‘siq devor bo‘lib, yul balandligidan 2 m balandga osiladi. Ularning ishlash prinsipi qor bo‘roni oqimi yoriq kengligigacha qisilib tezligi oshadi, natijada yo‘lni qor qoplamasdan o‘tib ketadi.

Avtomobil yo‘lini asosiy ko‘rsatkichi o‘tkazish kobiliyatidir. Avtomobil yo‘lining o‘tkazish qobiliyati – ma’lum bir uchastkadan vaqt birligida o‘tishi mumkin bo‘lgan avtosamosvallar sonidir. Karer avtomobil yo‘llarining o‘tkazish qobiliyatini oshirish uchun yo‘l fonarlari bilan yoritish yoki umumkarer yoritkichlari bilan yoritish ko‘zda tutilgan. Avtosamosvallarning bir qator bo‘lib, bir yo‘nalish bo‘yicha harakatlanishida avtomobil yo‘llarining o‘tkazish qobiliyati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$N = (600 \cdot k_{n,d}) / t_a = (1000 \cdot V \cdot k_{n,d}) / l_b;$$

Bu erda: t_a – avtosamosvallar orasidagi vaqt intervali, m

V - avtosamovallarning harakat tezligi, km/s;

l_b - avtosamosvallar o‘rtasidagi xavfsizlik masofasi, m;

$$k_{n,d} = 0,5 \div 0,8.$$

Avtosamosvallar orasidagi xavfsizlik masofasi avtosamosval tormoz yo‘lining uzunligi va avtosamosvalning o‘zining uzunligidan kelib chiqadi va 50 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

Karerdagи yo‘l harakati asosiy trassaning yuk oqimida ishchi gorizontlardan ag‘darmagacha o‘ng tomondan yurilib yo‘lni kesib o‘tmasdan xarakatning uzlusizligi ta’milanadi.

Karer avtotransportining harakatlanuvchi sostavining konstruktiv tuzilishiga ko‘ra ikki guruxga bo‘linadi:

- avtosamosvallar;

yarimpritseplar.

Avtosamosvallar bu – ramada joylashgan kuzovdan iborat mashinadir. YArimpritseplarning avtosamosvallarga qaraganda afzalliklari – bu katta yuk ko‘tarish quvvati, yoqilg‘i va ekspluatatsion xarajatlarining kamligidir. Karer avtosamosvallarining asosiy parametrlari – yuk ko‘tarish quvvati, dvigatel quvvati, kuzov hajmi, g‘ildirak formulasi va burilishning minimal radiusidir. G‘ildirak formulasi – bu avtosamosval g‘ildiragi sonining sifrlarda ifodalanishidir.

M-n: 4x2. 1 sifr – g‘ildiraklarning umumiy sonini bildiradi.


2 sifr – etaklovchi g‘ildiraklar soni.

Karerlarda yuk ko‘tarish quvvati 27-75 t bulgan BelAZ tipidagi avtosamosvallar keng qo‘llaniladi. Avtosamosvallar xarakteristikasi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Parametrlari	Avtosamosvallar					
	KrAZ-256B	BelAZ-540	BelAZ-548	BelAZ-549	BelAZ-7519	BelAZ-7520
Gildirak formulasi	6x4	4x2	4x2	4x2	4x2	4x2
YUk ko‘tarish quvvati, t	10	27	40	75	110	180
Og‘irligi (yuksiz), t	11,5	21	29	66	85	145
Kuzov hajmi, m ³	6	15,8	21,7	37,8	44	90
Harakatning maksimal tezligi, km/s	62	55	50	50	52	50
Avtosamosval kengligi, m	2,65	3,48	3,8	5,36	6,1	7,64
Avtosamosval uzunligi, m	8,2	7,3	8,1	10,3	11,3	13,6
Burilishning minimal radiusi, m	10,5	8,5	10,0	11,0	12	15
Dvigatel quvvati, kVt	175	265	367	770	955	1690
100 km yo‘lga sarflanadigan yoqilg‘i sarfi, l	60	125	200	350	-	-

Kon massasini tashishda avtotransport ishini tashkillashtirish.

Karer avtomobil transportining ishi karerdan qoplama jinslarni, foydali qazilmasi kam rudalarni ag‘darmaga, foydali qazilmalarini omborga yoki boyitish fabrikasi bunkeriga karer avtoyo‘llarida tashishga xizmat qiladi. Avtotransportni zaboya yuqlashga kuyish usullari kuyidagilardan iborat 11.3. rasm:



11.3 – rasm. Avtomobilarni zaboyaq yuqlashga kuyish sxemasi.

a — s ishchi maydonchada sirtmoqli burilish; b — s zaxodka ichkarisida sirtmoqli burilish; v — zaxodka ichkarisida yopiq burilish; g — zaxodka ichkarisida sirtmoqli burilish va yuqlashga yopiq qo‘yish; d i e — ikki mashinani birdaniga zaboyaq yuqlashga qo‘yish.

Keng ish maydonchalarida avtosamosval ekskavator zaboyaq sirtmoq shaklda burilib yuqlashga qo‘yiladi. CHegaralangan ishchi maydonchada va tor zaxodkada va yuksiz avtosamosval harakat yo‘nalishi ekskavator zaxodkasiga to‘g‘ri kelmaganda avtosamosval sirtmoqli yoki yopiq burilish yasab, agar yukli avtosamosval harakat yo‘nalishi ekskavator yo‘nalishiga to‘g‘ri kelganda yopiq burilishdan keyin avtosamosval orqaga harakatlanib yuqlashga beriladi. Har qanday holatda ham avtosamosvalni yuqlashga qo‘yganda ekskavator cho‘michi haydovchi kabinasi ustidan o‘tmasligi kerak. Ekskavator burilish burchagi minimal bo‘lishi kerak.

Avtotransportlarni narxi yuqori bo‘lganligi uchun avtotransportni bekorga kutib qolishi xuddi ekskavatornikidek minimal bo‘lishi kerak. Ularni kamaytirish uchun karerlarda ikki turda avtotransport ishlari tashkillashtiriladi: ma’lum bir miqdordagi samosvallar smena davomida ekskavatorga biriktiriladi va biriktirilmagan mashinalarni har safar dispatcher ko‘rsatmasi bilan yuqlashga qo‘yiladi. Avtotransportni ekskavatorga biriktirib ishlatish soddarok tashkillashtirish bulib yukori unumdorlikni ta’minlaydi. Agar qazib yuklovchi mashina. Ag‘darma hosil qiluvchi texnikalar buzilmasdan ishonchli ishlasa va foydali qazilma bir xil tuzilishga ega bo‘lsa bu tartib o‘zini oqlaydi.

Karerlardagi avtotransport unumdorligi avtoyo‘l holatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Karer yo‘llariga xizmat qilish, ta‘mirlash va yangilarini qurish uchun maxsus yo‘l xizmati bo‘ladi.

Avtosamosvallarga xizmat ko‘rsatish avtoxo‘jalikning maxsus maydonchadagi inshootlarda bajariladi. Unda avtosamosval sistemalarini tekshirish va joriy ta‘mirlash ko‘zda tutilgan bo‘lib, rejali va kapital ta‘mir maxsus ustaxonalarda olib boriladi.

35- MA’RUZA

MAVZU: KAR’ER KOMBINATSIYALASHGAN TRANSPORTI

Darsning maqsadi – Ochiq kon ishlarida konveyer va temir yul trasnportining qo’llanilishi haqida tushunchaga ega bo’lish.

Reja:

1. Kombinatsiyalashgan transport.
2. Kon massasini konveyer transporti bilan tashish.

Tayanch iboralar: uta zich, muzlagan va yarim koyali tog jinslari, traktorli yumshatish, mexanik yumshatgich, massivni yumshatish, yumshatgichning mexnat unumdorligi, yumshatiladigan uchastka uzunligi.


Kon massasini temir yo’l transporti yordamida tashish.

Temir yo’l transporti har qanday ob-havo sharoitida o’zining ishonchliligi, yuqori unumdorligi va ishlatishda foydaliligi sababli karerlarda tarqalgan transport turidir. Uning asosiy ko’rsatkichi yuk aylanmasi bo’lib tonna yoki kub metrdagi yuk miqdorini vaqt birligi ichida tashilishiga aytildi. Karer yuk aylanmasi keraksiz jinslarni, foydali qazilma va materiallar yuk aylanmasi yig’indisidan iborat.



12.1. Rasm. Karerda temir yo’l transportining ish jarayoni.

Temir yo’l tarnsporti tashish masofasi 4 km va undan yuqori, yillik yuk aylanish hajmi esa 25 mln.t va undan yuqori bo’lgan karerlarda keng qo’llaniladi. Temir yo’l transportining vositasi rels yo’llari va harakatganuvchi sostavlardan iboratdir.



12.2 – rasm. Temir yo‘l kурilishi sxemasi.

1 – er katlami, 2 – ballast, 3 – shpal, 4 – kolejya eni, 5 – relss, 6 – podkladka.


Temir yo‘llar ish bajarish turiga qarab vaqtinchalik va doimiy yo‘llarga bo‘linadi. Vaqtinchalik yo‘llar karer ishchi maydonchalaridagi va ag‘larmalardagi yo‘llar, doimiy yo‘llarga esa transheyadagi yo‘llar, transport bermalardagi yo‘llar va karer yuzasidagi yo‘llar kiradi. Vaqtinchalik yo‘l ish fronti surilishi bilan karerda va ag‘darmalarda vaqt–vaqt bilan surilib turadi. Temir yo‘l quyi va yuqorigi qurilmalardan iborat. Quyi qurilma – suv chiqaruvchi va sun’iy inshoatlarlardan iborat er qoplamasidan iborat.

Temir yo‘lning yuqori qurilmasi – ballast, shpal va mustahkamlangan relslardan iborat. Ballast – er qoplamasiga harakatlanuvchi sostavning bosimini bir xilda taqsimlanishi uchun xizmat qiladi. Ballast uchun 20-79 mm kattalikdagi shube qo‘llaniladi. Ayrim hollarda galka va graviy ham qo‘llaniladi. Ballast qatlami qalinligi vaqtinchalik yo‘llar uchun 15-20 sm ni, doimiy yo‘llar uchun 25-40 sm ni tashkil etadi. Ballast sarfi 600-1200 m³ dan iborat. SHpallar – ularga relslarni mustahkamlash va bosimni harakatlanuvchi sostavdan ballastga uzatish uchun xizmat qiladi. YOg‘och, temirbeton va metall shpallar qo‘llaniladi. SHpalning standart bo‘yicha o‘lchami 270 sm ni tashkil etadi. SHpallarni xizmat qilish muddatini uzaytirish maqsadida antiseptik bilan to‘yintiriladi. Relslar – harakatlanuvchi sostavning g‘ildiragini yo‘nalishi va bosimni shpalga uzatish uchun xizmat qiladi. Relsning standart bo‘yicha uzunligi 12,5-25 m bo‘ladi.

Karerlarda harakatlanuvchi sostav vagon va lokomotivlardan iboratdir. Foydali qazilmalarni tashish uchun yuk ko‘tarish quvati 60-90 t bo‘lgan gandola tipidagi vagonlar va yuk ko‘tarish quvvati 60 t bo‘lgan xopper tipidagi vagonlar keng qo‘llaniladi. Qoplovchi tog‘ jinslarini tashish uchun vagon dumpkarlar qo‘laniladi.

Karerlarda lokomotivlar sifatida elektrovoz, teplovoz va tortuvchi agregatlar qo‘llaniladi. Elektrovozlarning qulayliklari – foydali ish koeffitsienti yuqori (14-16%), 4% gacha bulgan ko‘tarilish balandliklarini o‘tish qobiliyatiga egalik, ishga doimiy tayyorgarlik va og‘ir iqlim sharoitlarida ham ishonchli xizmat ko‘rsatishidir. Teplovoz lokomotivlar ichki yonuv dvigateli bilan jixozlangan. Foydali ish koeffitsienti 24-26% ga teng. Teplovozlarning kamchiligi ularni remont qilishning qiyinligidir. Tortuvchi agregatlar – boshqaruvchi elektrovoz, dizelli seksiya ya’ni, avtonom ta’minalash seksiyasi va bir nechta motorli dumpkarlardan iboratdir

Karerlarda temir yo‘llarning uzunligi bir necha o‘nlab kilometrgacha, ba’zan yuzlab kilometrgacha etadi. Temir yo‘l uzunligi bo‘yicha uchastkalarga bo‘linadi va peregonlarni ajratuvchi punktlar bo‘linmalar deyiladi. Ularga stansiyalar, raz’ezdlar va postlar kiradi. Stansiyalar poezdlarni joylashtirishga, sostav to‘plashga, texnik xizmati, tekshirish va bir yo‘llik joylarda poezdni kutish uchun xizmat qiladi. Raz’ezdlar bir yo‘llik joylarda faqat oldindan kelayotgan poezdni kutishga xizmat qiladi (asosan yuk poezdni kutishi kerak). Stansiya va raz’ezdlar maxsus yo‘l tarmoqlariga ega bo‘lib, yuk aylanmasi va ayrim kerakli maqsadlarga mo‘ljallangan. Postlar yo‘l tarmoqlanishiga ega emas. Ular poezdni to‘xtatishga mo‘ljallangan bo‘lib, agarda keyingi peregongacha yo‘lda poezd bo‘lsa postda kutiladi. Karerdagi yo‘l tarmoqlanishi karer yo‘lini temir yo‘llar vazirligiga, ombor yo‘llariga, karer montaj maydonchasiga, harakatdagi sostavni ta’minalash deposiga va boshqalarga ulangan bo‘ladi.

**12.3. расм.**

Алмашувчи пункт-ларнинг жойлашуви:

- 1 – ер юзасида;
- 2 – съездларни горизонт билан туташган жойида;
- 3 – багловчи бермаларда;
- 4 – ишчи погоналарда.

Kon massasi bo'yicha karer unumdorligiga qarab, karerdagi doimiy temir yo'llar bir yo'lli yoki ikki yo'lli bo'lishi mumkin. Bir yo'llik trassada yuklangan va bo'sh poezdlar raz'ezdlarda almashinadi. Temir yo'l transportini unumdorligini oshirish uchun peregon uzunligi kamaytiriladi, unda temir yo'l transportini ekspluatatsiyasi qoidalariga ko'ra faqat bir sostav bo'lishi kerak. Ikki yo'llik trassa yukli va yuksiz poezdlarni alohida yo'llarda harakatini ta'minlaydi. Tezlikni oshirish uchun bunda peregonlar uzunligi oshiriladi.

Zaboylardagi va ag'darmalardagi yo'l tarmoqlari qazuvchi yuklovchi va ag'darma hosil qiluvchi mashinalarning minimal turib qolishlarini va temir yo'l transportining o'zini ham zaboya yukli va yuksiz sostavlarini almashtirishda minimal vaqtini sarflashini ko'zlab qurilishi kerak. Bir yo'llida sostavlar almashishi gorizonti ishchi zonasidan tashqarida olib borilishi kerak. Ayni paytda almashish uchun yuksiz sostav yukli sostavni almashish punktida kutib turadi. Ekskavatorning kutish vaqtini bunda yukli sostavni almashish punktigacha kelgan vaqtini bilan yuksiz sostavni yuklash joyigacha olib borish vaqtleri yig'indisiga teng. Kutish vaqtini kamaytirish uchun almashish yo'lini gorizont ishchi zonasiga joylashtiriladi, bunda bu yo'lni siljитish qiyinlashadi. Agar bir gorizontda ikki yoki undan ortiq ekskavator ishlasa ikki yo'lli almashish joylari har bir ekskavator uchun qo'llaniladi.

Ag'darmalardagi yo'l tarmoqlari ag'darma hosil qilish texnologiyasiga bog'liq bo'ladi. Ekskavatorlik ag'darma hosil qilishda yo'l tarmoqlanish sxemasi zaboynikiga o'xshash bo'ladi. Temir yo'l transporti tezligi karerda domiy temir yo'llarda 35-40 km/s, zaboya va almashinuvda 15-20 km/s.

Kon massasini konveyer transporti bilan tashish.

Konveyer transporti transport turi sifatida allaqachonlardan beri ishlatlishiga qaramasdan karerlarda yosh transport turi hisoblanadi. Konveyer metall formalardan tuzilgan bo'lib, tashuvchi a'zosi sifatida rezina lenta (lentali konveyer), kurakli zanjir (kurakli konveyer), plastinkalar (plastinkali konveyer) yoki ariqcha shakldagi (vibratsiyali konveyer) a'zolari ishlatiladi. Karerlardi yumshoq, maydalangan (bo'lak o'lchami 400 mm gacha) qattiq va yarim qoyatoshlarni tashish uchun lentali konveyerlar keng qo'llanilmogda. Ularning ish prinsipi shundan iboratki: konveyer lentasida tog' jinslari to'ldirilib baraban yuritgich yordamida tortish bilan harakatga keltirilib tashiladi. Konveyer lentasiga nagruzkani kamaytirish uchun qo'shimcha tortish a'zolari, po'lat arqon, zanjir, telejkalar qo'llaniladi. Bunday hollarda lenta faqat kon massasini joylashtiruvchi idish vazifasini o'taydi.

Karerlardagi konveyrlar transporti joylashishi va mo'ljaliga qarab zaboydagi, to'plovchi, yoki ko'taruvchi, magistral va ag'darma turlariga bo'linadi.

Zaboy konveyerlari pog'ona ishchi maydonchasiga joylashtirilib, kon massasini ekskavatorдан to'plovchi konveyrgacha tashishga mo'ljallangan. Karerlarda zaboy fronti sekin-asta siljib borganligi uchun zaboy konveyer seksiyalari maxsus texnika turbodozerlar yordamida yoki gusenitsalik, qadamlovchi mexanizmlar yordamida suriladi.

To‘plovchi (uzatuvchi) konveyerlar karerning yon qismida joylashgan bo‘lib, ular bir yoki bir necha zaboy konveyrlaridan yuk ko‘taruvchi konveyerga tashishga mo‘ljallangan. To‘plovchi konveyrlar zaboy konveyrlari ortidan o‘z o‘qiga parallel yo‘nalishda gusenitsali yoki rels yo‘lli izlarda harakatlanadi.

Yuk ko‘taruvchi konveyerlar ishchi bo‘lmagan yoki vaqtinchalik ishchi bo‘lmagan karer qismida (transheyalarda yoki er osti qiya lahimlarida) joylashgan bo‘lib, karer ishchi qismidan kon massasini yuqoriga tashishga mo‘ljallangan. YUK ko‘taruvchi konveyer yukni to‘plovchi konveyerdan olib, oddiy konveyrlarda 18° burchak ostida va maxsus konveyerlarda 50° gacha qiyalikda karer borti bo‘ylab er yuzasiga ko‘taradi. Yuk ko‘taruvchi konveyr ancha yuqori yuritgchi va konstruksiyaga ega bo‘lib bir erda muqim o‘rnatalishga mo‘ljallangan. Kon massasini qattiq jinslarda 14° burchakdan yuqori va yumshoq jinslarda 18° dan yuqori balandliklarga unumli va xavfsiz ko‘tarish uchun lenta yuzasi qovurg‘alarga bo‘linib yasaladi yoki yuqoridan bosib turuvchi lenta yoki zanjirli to‘r ishlataladi. Ular materialni pastga surilib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Magistral konveyrlar karer yuzasida joylashgan bo‘lib, qoplama jinslarni ag‘darmaga va foydali qazilmalarni boyitish fabrikasiga yoki omborlarga tashishga mo‘ljallangan.

Ag‘darma konveyrlar ag‘darmalarda joylashgan. Bajaradigan ishiga qarab ular zaboy konveyerlariga o‘xshab ketadi. Ular ag‘darma fronti deyiladi. Tuzilishi bo‘yicha qayta yuklovchi va ag‘darma hosil qiluvchilar bilan birgalikda kompleks hosil qiladi. Qayta yuklovchi uzatuvchi a’zo vazifasini o‘taydi, ekskavatoridan zaboy konveyerigacha yoki zaboy konveyeridan to‘plovchiga bir gorizontdan ikkinchisiga, shuning uchun u o‘zi yurar gusenitsali yoki qadamlovchi shakldagi yurish mexanizmiga ega bo‘lib, qabul qiluvchi va konveyer so‘ngida to‘kuvchi qismlari bo‘lib, bu qism 18° gacha har qanday qiyalikda ishlay oladi. YAssi tekislikda qabul qiluvchi moslama va to‘kuvchi qismlari 60° gacha burchakka burilishi mumkin.



12.4. Rasm. Karerda yuk ko‘taruvchi konveyerini qo‘llash.


Konveyr texnologik parametrlariga unumdorlik, konveyer stavining uzunligi, qiyalik burchagi, yuritgich quvvati kiradi, shuningdek lenta eni va tezligi ham hisobga olinadi.

Konveyerning texnik tasnifi.

Konveyer	KL-500	KLJ-800	S-160	KMMZ	NKMZ
Lenta eni	1000	1200	1600	1200	1800
Harakat tezligi,	2,26	2,58	1,6-3,15	3,6	4,35

m/s					
Unumdorlik, t/s	500	800	600-1950	5000	3150
Konveyer stavining uzunligi, m	400	800	1100	800	500
YUritgich quvvati, kvt	75	150	400-800	400	1500

Ochiq kon ishlari uchun katta konveyer komplekslari GDR, CHexiya, Germaniya, AKSH va Rossiya mamlakatlarida ishlab chiqiladi.



12.5. расм. Комбинациялашган транспорт схемаси.

а,б – автомобиль ва темир йўл транспорти; в – автомобиль ва конвейер транспорти; г – автомобиль ва канатли кўтаргич; 1 – автосъездлар; 2 – қайта юкловчи пунктлар; 3 – темир йўл съездлари; 4 – дробика қурилмаси; 5 – конвейерлар; 6 – қайта юкловчи бункер; 7 – скипли кўтаришма.

Kombinatsiyalashgan transport.

Kombinatsiyalashgan transport – unda bir xil yuklarni ketm-ket ravishda turli ko‘rinishdagи, o‘zi uchun qulay sharoitda ishlay oladigan transportlar qo‘llaniladi. 12.5 – rasm.

Avtomobil va temir yo‘l transporti kombinatsiyasi keng qo‘llanilmoqda. Bunda kon massasi zaboydan avtomobil transporti yordamida qayta yuklovchi punktgacha tashilib keltiriladi, keyin esa temir yo‘l transporti yordamida er yuzasiga va ag‘darmalarga chiqariladi. Ushbu kombinatsiya chuqurligi 120 - 150 metrgacha bo‘lgan karerlarda quyi pog‘onalarda qo‘llaniladi.

Avtomobil va konveyer transporti kombinatsiyasi esa karerlarda er sirtidan 120-150 metr pastda joylashgan eng chuqur gorizontlarda qo‘llaniladi. Bunda kon massasi yuqoriga eng qisqa masofalar orqali chiqariladi.

Baland tog‘li hududlarda joylashgan karerlarda, kon massasini 200-800 metr balandlikdan tushirish qiyin va xavfli bo‘lganda, shuningdek katta sarf xarajat talab etilganda, avtomobil trasnportini ruda tushirgich yoki osma kanatlari yo‘llar bilan kombinatsiyalashgan holda qo‘llaniladi.

**NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI
“KONCHILIK” FAKULTETI
“KONCHILIK ISHI” KAFEDRASI**

**“OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI”
fanidan**

**AMALIY ISHLARNI BAJARISH
BO`YICHA USLUBIY KO`RSATMALAR**

**5321100 – Noyob va radioaktiv metallar rudalarini qazib olish, qayta ishslash
texnikasi va texnologiyasi**

Navoiy – 2017 yil.

1-AMALIY ISH

MAVZU:KARYERNING ASOSIY PARAMETRLARINI ANIQLASH

Ishning maqsadi- kar'yerning asosiy parametrlarini aniqlash hamda foydali qazilma va qoplama tog' jinsi hajmlarini hisoblashni o'rganish.

Karyerning asosiy bosh parametrlariga, kon massasini hajmi, oxirgi Chuqurlik va uning o'lchamlari, bortlarning qiyalik burchaklari, foydali qazilma zahirasi, qoplama tog' jinsi hajmi va karyer ustki maydonning o'lchamlari hisoblanadi.


Akademik V.V. Rjevskiy formulasiga binoan, karyer konturidagi kon massasi hajmi (m) quyidagicha aniqlanadi:

$$V_{g.m} = SH_k + \frac{1}{2} \sum_1^n L_n H_k^2 \operatorname{ctg} \beta_n + \frac{1}{3} \pi H_k^3 \operatorname{ctg}^2 \beta_{cp}, \text{m}^3$$

Bu yerda S – karyer tubi ABCDE nuqtalari yuzasi (1.1.-rasm), m^2 ;

N_k – karyer Chuqurligi, m ; β_p – karyer bortining qiyalik burchagi, gradus;

l_n – bortning n -ta uchastka uzunligi, m ; β_{sr} – bortning o'rtacha qiyalik burchagi, gradus;



1.1.-Rasm. Karyer konturidagi kon massasi hajmi $V_{g.m}$ sxemada keltirishicha:

a – umumiy ko'rinishi; b – karyer hajmidan kelib chiqqan geometrik qalinlik.

Agarda karyerning barcha bortlari qiyalik burchaklari teng bo'lsa yoki bir-biridan farq qilsa, unda akad. V.V. Rjevskiy formulasi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$V_{g.m} = S * H_k + \frac{1}{2} P * H_k^2 \operatorname{ctg} \beta_{cp} + \frac{1}{3} \pi H_k^3 \operatorname{ctg}^2 \beta_{cp}, \text{m}^3$$

Bu yerda R – karyer tubi perimetri, m .


$$P = 2(B_o + B_d), \text{m}$$

$$S = L_o * B_o, \text{m}.$$

Qiya va gorizontal konlarni qazib olishda karyer oxirgi Chuqurligi foydali qazilma **qatlami** asosi belgisi bilan yoki qoplovchi tog' jinsi qalinligi h_v va foydali qazilma qalinligi h_f yig'indisi bilan aniqlanadi:

$$H_{k.k} = h_v + h_f,$$

Foydali qazilma bo'yicha kar'erni ish unumdarligi $W_i = 7 \text{ mln. t/yil}$; ochish ishlari kompleksini qish mavsumida to'xtatilish davomiyligi $N_z=4$ oy; foydali qazilma qatlamining quvvati $t=6$ m; qazish ishlari frontining uzunligi $L_{f,i}=2700$ m; foydali qazilma zichligi $\gamma=1,4 \text{ t/m}^3$; foydali qazilmani ajratib olish koeffitsienti $K_{izv}=0,93$; qazib olinadigan zaboya ag'darma hosil qilgichni talab etilgan $ml_2=270$ m; transport o'tishi kengligi $A=68$ m.

2-Topshiriq. Ochish ishlari kompleksi ish unumdarligi $Q_{v,k}$ konsolli ag'darma xosil qilgichning to'kish balandligi $H_{r,o}$ va to'kish radiusi $R_{r,o}$ ni aniqlash.

Foydali qazilma qatlamining gorizontal quvvati $t=1,5$ m; ochuvchi pog'ona balandligi, transportli ag'darma sxemasi bo'yicha qazib olish $N=37$ m; ag'darmadagi tog' jinslarni yumshatilganlik koeffitsienti $K_r=1,15$; qazish ishlari frontining uzunligi $L_{f,i}=2100$ m; ochish ishlari frontining uzunligi $L_{f,v}=2300$ m; ag'darma ishlari frontining uzunligi $L_{f,o}=1987$ m; ochish ishlarida transport o'tishining kengligi $A=55$ m; ag'darmadagi tog' jinslarning tabiiy qiyalik burchagi $\beta_e=37^\circ$; ag'darmaning turg'un qiyalik burchagi $\beta=23^\circ$; qaziladigan pog'onaning qiyalik burchagi $\alpha=45^\circ$; foydali qazilma bo'yicha karyerning ish unumdarligi $W_u=3 \text{ mln. t}$; foydali qazilmani zichligi $\gamma=2 \text{ t/m}^3$; foydali qazilmani ajratib olish koeffitsienti $K_{izv}=0,97$; ochish ishlari kompleksini qish mavsumida to'xtab qolish davomiyligi $N_z=3$ oy; ag'darma xosil qilgich foydali qazilma qatlamining yuzasida joylashtirilgan.

Ochuvchi ekskavator bilan ag'darma xosil qilgichning orasidagi masofani o'zgarishsiz ishini va masofani 60 m o'zgarishi bilan qarab chiqish (velichina teleskopichnosti $T=50$ m).

3-Topshiriq. Transport ag'darma sxemasi bo'yicha OSH-1600/110 ag'darma xosil qilgich yordamida qazib olishda qoplovsisi jins pog'onasining maksimal balandligini aniqlash.

Ag'darma xosil qilgichning maksimal to'kish balandligi $N_r=34$ m, to'kishni maksimal radiusi $R_p=110$ m; ag'darma xosil qilgich quvvati $m=5$ m bo'lgan foydali qazilma qatlami yuzasida joylashdirilgan; qish mavsumida ochuvchi zahira tasmali chizig'ining zarur bo'lgan kengligi, konsol ostida joylashgan, $A_p=25$ m; qazib olinayotgan pog'ona yuqori brovkasidan ag'darma xosil qilgich o'qigacha bo'lgan minimal masofa $B=17$ m; qazib olinayotgan pog'ona va ag'darma orasidagi erkin tasmali chiziq kengligi $B=6$ m; qazib olinayotgan pog'ona turg'un qiyalik burchagi ($\alpha=45^\circ$; ag'darmada $\beta=27^\circ$; ag'darmadagi tog' jinsining tabiy qiyalik burchagi $\beta_e=36^\circ$; ochish ishlari frontining uzunligi $L_{f.v}=1200$ m; ag'darma ishlari frontining uzunligi $L_{f.o}=1070$ m; ag'darma va ochish ishlarida transport o'tishining kengligi $A=25$ m.

4-Topshiriq. Rotorli ekskavatordan yukni qayta ortish uchun yuklagichni zarur bulgan uzunligini $L_{s.m}$ (biriktiruvchi mostni) aniqlash, ya'ni foydali qazilma qatlami yuzasida joylashgan, konsolli ag'darma xosil qilgich.

Foydali qazilma qatlami quvvati $m=22$ m; foydali qazilma bo'yicha ishchi bortning qiyalik burchagi $\phi=23^\circ$; qazib olinayotgan pog'ona va ag'darma orasidagi erkin tasmali chiziq kengligi $B=7$ m; vaysota predotvala $N_p=22$ m, uni qiyalik burchagi $\beta_p=37^\circ$; qazib olinayotgan pog'ona yuqori brovkasidan ko'priknning opor o'qigacha bo'lgan minimal xavfsiz masofa $a_1=23$ m, do verxney brovki predotvala $a_2=27$ m.

5-Topshiriq. Qoplovchi jinslar quvvati $N=57$ m balandligi $N_1=32$ m (pastki) va $N_2=27$ m (yuqorgi) bo'lgan ikkita pog'onada qazib olinadi; most tayanchi quyi ochuvchi pog'ona yuzasida va vaqtinchalik ag'darmada joylashgan ya'ni balandligi $N_p=23$ m bo'lgan; qazib olinayotgan ko'mir qatlaming quvvati $m=17$ m; ko'mir zichligi $\gamma=1,2 \text{ t/m}^3$; ajratib olish koeffitsienti $K_{izv}=0,98$; ko'mir bo'yicha karyerning yillik ish unumdoorligi $W_i=8$ mln. t; front ishlarining siljishi parallel; foydali qazilma bo'yicha front ishlarining uzunligi $L_{f.i}=2100$ m, qoplovchi jinslar bo'yicha $L_{f.v}=2300$ m, ag'darma ishlarida $L_{f.o}=1987$ m; qoplovchi jins pog'onalarining qiyalik burchagi $\delta=45^\circ$, foydali qazilma pog'onalarida $\alpha=61^\circ$, ag'darma yaruslarida $\beta=37^\circ$; quyi ochuvchi pog'ona yuqori brovkasi va vaqtinchalik ag'darma yuqori brovkasidan transport ag'darma mostining tayanch o'qigacha bo'lgan xavfsiz masofa mos ravishda $a_1=25$ m i $a_2=35$ m; ag'darma ikkinchi yarusi quyi brovkasidan mostning tayanch o'qi orasidagi masofa $a_3=16$ m; qatlam yuzasidagi saqlovchi bermaning kengligi $b_p=10$ m; qazib olinayotgan pog'ona va ag'darma orasidagi erkin bo'sh maydon kengligi $B=7$ m.

16-AMALIY ISH**MAVZU:TOG' JINSLARINI DRAGLAYN TRANSPORTI YORDAMIDA QAZIB OLİSHNING TEXNOLOGIK SXEMASINING PARAMETRLARINI ANIQLASH**

Ishning maqsadi- tog' jinslarini draglayn yordamida qazib olishning texnologik sxemasi parametrlarini aniqlash va hisoblashni o'rganish.

Yumshoq va mayda yumshatilgan tog' jinslarini draglayn yordamida qazib olish asosan tortsevoy va transheyali zaboylarda amalga oshiriladi (8.1- rasm).

Tog' jinslarini draglayn yordamida qazib olishning texnologik sxemalarini hisoblash qazib o'tish kengligini, ochuvchi pog'ona balandligini, qiyalik burchagi va ekskavator joylashgan joyni aniqlashdan iboratdir.

1. Draglaynni pog'ona yuqori qismida joylashgan holatda torsevoy zaboyda ishlash sxemasi.

Ushbu sxema, draglaynning maksimal ish unumdorligini ta'minlaydi. Maksimal ish unumdorlikka, ekskavatorning tog' jinsini Cho'michlash joyidan bo'shatish joyigacha bo'lган burilish burchagini (8.1a- rasm) minimal ekanligi hisobiga erishiladi.

Pog'ona balandligi, Cho'michlash Chuqurligi bo'yicha gorizontga nisbatan zaboy yuzasining qiyalik burchagi $\beta=30-60^0$ bo'lganda o'pirilish prizmasidan tashqarida pog'ona yuzasida joylashishini hisobga olgan holda o'rnatiladi.

$$h = H_{ch} \quad (7.1)$$

Ekskavatorning qazib o'tish kengligi:

$$A_s = R_u (\sin \varphi_1 + \sin \varphi_2) \quad (7.2)$$

Bu yerda:

φ_1, φ_2 - ekskavatorning harakatlanish o'qidan mos ravishda massiv va qazib o'tilgan maydon tomonga burilish burchaklari ($\varphi_1 \approx \varphi_2 = 30-45$), grad.

Odatda ag'darmada ishlaganda $\varphi_1=0$ va bunda:

$$A_s = R_u \sin \varphi_2 \quad (7.3)$$

Pog'ona qiyaliklari, grad:

- nanoslar bo'yicha: ishchi pog'onada $\alpha_n=60^0$,
turg'un pog'onada $\alpha_{nu}=40^0$; (7.4)

- portlatigan kon massasi bo'yicha: ishchi pog'onada $\alpha_n=50^0$,
turg'un pog'onada $\alpha_{nu}=35^0 - 40^0$; (7.5)

- tub jinsli tog' jinslari bo'yicha: ishchi pog'onada $\alpha_n=75^0$,
turg'un pog'onada $\alpha_{nu}=60^0$ (7.6)

2. Draglaynni oraliq maydonda joylashgan holatda torsevoy zaboyda ishlash sxemasi.

Ekskavator parametrlaridan to'lifq foydalanish va pog'ona balandligini oshirish maqsadida qo'llaniladi (8.1. b- rasm).

Pog'ona balandligi, m:

$$h \leq h_n + h_e \quad (7.7)$$


Bu yerda:

h_n, h_e – mos ravishda quyi va yuqori podustuplar, m.

$$h_n = (0,7 - 0,8)H_k \quad h_e = (0,4 - 0,8)H_p \quad (7.8)$$

Qazib o'tish kengligi 8.1. formula orqali, pog'ona qiyaliklari esa 7.3. – 7.5. formulalar orqali aniqlanadi. Bunda, yuqori podustup zaboyining qiyalik burchagi Cho'michning sirpanishini bartaraf etish maqsadida 25 gradusdan oshmasligi lozim.

Draglaynni ushbu sxema asosida ishlagandagi ish unumdoriligini hisoblashda yuqorida Cho'michlashdagi ish unumdorligi pastdan Cho'michlashdagi ish unumdorligidan 10-15% dan past bo'lmasligi lozim.



7.1.- rasm. Draglayn ishlashining texnologik xemasi.





Рис 1. в





Рис. 1 д

Draglaynni pog'ona quyvi maydonida joylashgan holatda torsevoy zaboyda ishlash sxemasi.

Draglayning ish unumdoorligini pastligi sababli, ushbu sxema kam hollarda qo'llaniladi, asosan turg'un bo'limgan tog' jinslarida. (7.1.v-rasm).

Pog'ona balandligi, m:

$$h = (0,7 - 0,8)H_p \quad (7.9)$$

Qazib o'tish kengligi 8.1.-formula orqali, pog'ona qiyaliklari esa 7.3. – 7.5. formulalar orqali aniqlanadi.

3. Draglaynni pog'ona yugori maydonida joylashgan holatda torsevoy zaboyda ishlash sxemasi.

Transheyalar o'tishda draglayn o'zining va transheyaning parametrlariga bog'liq holda yoki transheya o'qi bo'ylab, yoki uning bortlaridan biriga yaqin joyda joylashtiriladi. Bunda ag'darmalar bittasida joylashgani kabi transheyaning ikkala bortida ham joylashishi mumkin. (7.1. g-rasm).

Transheya Chuqurligi:

$$h_m \leq H_{\kappa, \max} \quad (7.10)$$

Transheyaning tubi bo'yicha kengligi 7.1. yoki 7.2. formulalar, transheyaning qiyalik burchagini esa 7.3. va 7.5 formulalar orqali aniqlanadi.

18-AMALIY ISH**MAVZU:BURG'ILASH ISHLARINI TEXNOLOGIK O'LCHAMLARINI HISOBBLASH.**

Ishning maqsadi- Burg'ilash stanogining parametrlari yordamida ish unumdorligini hisoblash.

1. Burg'ilash stanogining ish unumdorligini hisoblash.

1.1. O'qqa berilgan optimal kuchlanish o'lchamini hisoblash:

A) ratsional

$$P_o = 10^{-2} \cdot K \cdot \Pi_6 \cdot d_{\Delta}, \text{ kN. } (1)$$

Bu yerda: d_{Δ} - dolota diametri mm;

K - dolota diametrini hisobga oluvchi koyffitsient. $K = 6 \div 8$,

B) dolotani ruxsat etilgan maksimal mustahkamligi

$$P_{\max} = 10^{-4} \cdot 55 \cdot d_{\Delta}^2, \text{ kN} \quad (2)$$

2-Jadvalda burg'ilash stanogining texnik xarakteristikasi va tavsiyasi berilgan. Ilovada o'qqa berilgan optimal kuchlanish (P_p) hisobiy qiymatlari qabul qilingan. Shuning uchun quyidagi shartga amal qilishimiz zarur:

$$P_p \prec P_{\max} \text{ va } P_p \leq P_{\text{hom}} \quad (3)$$

bu yerda: P_{hom} - texnik xarakteristikasiga mos keladigan stanok hosil qilgan o'qqa berilgan kuchlanish. Tog' jinsi mustahkamligi va hisobiy o'qqa berilgan kuchlanish kattaliklarini hisobga olib 2,3- ilovalardan dolotani aylanish tezligi (n_p) qabul qilingan.

1.2. Burg'ilashning mexanik tezligini hisoblash.

$$V_p = 5 \cdot 10^{-6} \cdot \frac{P_p \cdot n_p}{\Pi_6 \cdot d_{\Delta}^2}, \text{ m/s, } (4)$$

yoki

$$V_{p,q} = 1,8 \cdot 10^{-2} \cdot \frac{P_p \cdot n_p}{\Pi_6 \cdot d_{\Delta}^2}, \text{ m/ch.}$$

Bu yerda: P_p - kN; n_p - c⁻¹; d_{Δ} - m, larda.

1.3. Skvajinani tozalash uchun havo sarfini aniqlash:

$$Q_B = V_B \cdot (D_c^2 - d_{tp}^2), \text{ m}^3/\text{s} \quad (5)$$

Bu yerda: V_B - truba tashqarisi bo'shliqdan yuqoriga yo'nalgan oqimning to'liq tezligi, m/s;

D_c va d_{tp} - skvajina va burg'ilash trubasining bir-biriga bog'liqlik diametri, m:

$$D_c = d_{\Delta} \cdot K_{pa3}, \quad (6)$$

bu yerda: K_{pa3} - burg'ilanuvchanlik koeffitsienti (jadval 5 Ilova).

d_{tp} kattalik 6-ilovadan olingan.

$$\nu_b = 8 + \nu_{kp} , \text{ m/s} \quad (7)$$

bu yerda: ν_{kp} - burg'ilash chiqindisini yuqoriga chiqarib o'tuvchi kritik oqim tezligi, m/s;

$$\nu_{kp} = 3 \cdot \sqrt{d_r \cdot \frac{\gamma_r}{\gamma_b}} , \text{ m/s} \quad (8)$$

bu yerda: d_r -burg'ilash shlamini bo'lagini maksimal diametri, m (0,005-0,01 m ga teng qabul qilingan);

γ_r - tog' jinsi bo'lagi zichligi, kg/ m³ (burg'ilangan tog' jinsi zichligiga teng);

γ_b - o'rtacha sharoitda havo zichligi, kg/ m³ ($\gamma_b = 1,3 \text{ kg/m}^3$).

1.4. Talab qilingan (kompressor ish unumdoorligi burg'ilanadigan massivdagi g'ovaklar orqali havo miqdorini chiqib ketishini hisobga olgan holda quyidagini tashkil qiladi:

$$Q_{b, tp} = Q_b \cdot K_{n,b} , \text{ m}^3/\text{s} \quad (9)$$

bu erda: $K_{n,b}$ - burg'ilanuvchi massivda havo miqdori sarfi koeffitsienti.

Tog' jinsi yoriqdorlik kategoriyasi	I	II	III	IV	V
$K_{n,b}$	3,0	2,5	2,0	1,5	1,2

Qabul qilingan qiymatni $Q_{b, tp}$ shtatdagi kompressorlar 6 KM-25V

($Q = 25 \text{ m}^3/\text{min}$) ish unumdoorligi bilan tenglashtirsak va 7 V 32/7

($Q = 32 \text{ m}^3/\text{min}$), shulardan bittasini tanlasak va skvajinani tozalashda stanokni havo bilan ta'minlanishini hisoblash:

$$K_Q = \frac{Q_{b, tp}}{Q} \quad (10)$$

1.5. Suv sarfini hisoblash, agar suv havo bosimi ostida skvajinani tozalash hollarda:

$$Q_{вод} = 0,785 \cdot D_c^2 \cdot \gamma_r \cdot \frac{W_m - W_e}{100} , \text{ l/m} \quad (11)$$

bu yerda: D_c - skvajina diametri, m;

W_e - tog' jinsi tabiiy namligi, % (0,1-2,4%);

W_m - burg'ilash shlamining zaruriy namligi, % (45-60%);

γ_r - nam tog' jinsi zichligi kg/m³.

1.6. Burg'ilash stanogini ish unumdoorligini hisoblash:

a) smenalik ish unumdoorligi

$$A_{cm} = \frac{3600 \cdot T_{cm}}{\frac{1}{V_p} + t_{bc}} \cdot k_\beta \cdot k_t \cdot k_b \cdot k_h \cdot k_{ic} , \text{ m/smema} \quad (12)$$

bu yerda: t_{bc} - 1m skvajinani burg'ilashni hisoblashda yordamchi operasiyalarni davomiyligi, (bunda f=8-16 $t_{bc} = 75-100$ s) (f=17-20 da $t_{bc} = 90-120$ s);

T_{cm} - smena davomiyligi, s;

k_{uc} - smenalarda vaqtadan foydalanish koeffitsienti (0,8-0,9);

k_b - stanokni havo bilan ta'minlash koeffitsienti,

Agar

$$K_Q \geq 1 \quad k_b = 1, \text{ bunda} \quad K_Q < 1 \quad k_b = 0,97;$$

k_β - gorizontdag'i skvajinani qiyalik burchagi koeffitsienti,

$$(\beta_e) \quad k_\beta = 0,95, \text{ agar } \beta_e \neq 90^\circ \text{ va } k_\beta = 1, \text{ agar } \beta_e = 90^\circ;$$

k_t -tug' jinsi yoriqlik koeffitsienti, yoriqlik kategoriyasi I sinf uchun

$$k_t = 0,90 \div 0,95, \text{ boshqa vaqtarda} \quad k_t = 1;$$

k_h - skvajina chuqurligini hisobga oluvchi koeffitsient:

$$l_c = h_y + l_{nep} \quad (13)$$

l_{nep} - perebur uzunligi:

$$l_{nep} = K_{nep} \cdot D_c \quad (14)$$

K_{nep} - perebur koeffitsient

Skvajinani tozalash sharoitini og'irlashtirishni hisobga oladi, dolotani yejilishi va tog' jinsi mustahkamligi oshishi hamda, burg'ilashda energiya hajmini inobatga oladi. Uni keyingi hisob kitobi aniq kar'yerlar uchun stanok konstruksiyasini va texnik tuzilishini yakka o'rGANISH. O'quvdagi maqsad uchun ushbu koeffitsient qiymati quyidagi ko'rinishda qabul qilish mumkin:

l_c, m	$\prec 5$	5-10	11-15	16-20
k_h	1,0	0,85	0,80	0,75

A) sutkalik ish unumdorligi

$$A_{cyt} = A_{cm} \cdot n_{cm}, \quad m/sutka \quad (15)$$

B) yillik:

$$A_{rod} = A_{cm} \cdot n_r \cdot k_t, \quad m/yil \quad (16)$$

bu erda: n_r - bir yilda ish smenalar soni (ilova 9);

k_t - stanokni xizmat qilish muddatini hisobga oluvchi koeffitsient, xizmat muddatini variant nomeridan qabul qilamiz, 3 yil dan 5 yilgacha.

1.7. Burg'ilash stanogini aniqlash.

a) ruyxatdag'i (spisochny) park:

$$N_{cp} = \frac{V_{rod}}{V_{r.m} \cdot A_{rod}}, \quad yil \quad (17)$$

bu erda: V_{rod} - kon massasini (portlatilgan) burg'ilashda bir yillik ish unumdorligi, m^3 ;

$V_{r.m}$ - 1 m skvajinadan chiqqan kon massasi, m^3/m (jadval 10 ilova).

b) ishchi park:

$$N_{\text{паб}} = \frac{N_{\text{сн}}}{K_p}, \text{ sht} \quad (18)$$

bu erda: K_p - zahiradagi burg'ilash stanok koeffisienti;

$$K_p = \frac{n_{\text{г.к}}}{n_g} \quad (19)$$

bu erda: $n_{\text{г.к}}$ - kar'yerda kalendar bo'yicha ishlovchi smenalar,

$$n_{\text{г.к}} = (N_{\text{к.д}} - N_{\text{в.д}}) \cdot n_{\text{см}} \quad (20)$$

bu erda: $N_{\text{к.д}}$ - bir yilda kalendar kunlar soni;

$$N_{\text{в.д}} - \text{bir yilda dam olish kuni va bayramlar soni}$$

Ishga berilgan qiymatlar 13.1-Jadval

Variant	Tog' jinslar xarakteristikasi				Pog'ona baland ligi h_y, m	Burg'ilash stanogining sutkali ish rejimi	Burg'ilanadiga n kon massasining yillik hajmi $V_{\text{год}}, \text{mln.m}^3$
	Tog' jinslarinin g sivilishdag i mustahka mlik chegarasi $\delta_{\text{сж}}$, MPa	Tog' jinslari zichligi γ , T/M^3	Abraziv lik-sinfi	Yoriqdorlik kategoriyasi			
1	80	2,5	II	III	12	2x8	4,0
2	160	2,7	III	III	15	3x8	10,0
3	100	2,7	III	II	10	1x8	2,5
4	150	2,8	III	II	20	3x8	50,0
5	120	2,6	III	II	10	2x8	6,0
6	180	3,0	IV	IV	15	2x12	20,0
7	200	3,2	VII	V	15	2x12	25,0
8	130	2,4	II	IV	15	3x8	30,0
9	90	2,4	II	III	12	2x8	15,0
10	110	2,5	II	II	10	3x8	25,0

Sharoshkali burg'ilash stanogining texnik xarakteristikasi

13.2-Jadval

Ko'rsatkichlar	СБШ-160 /200-40Д	5СБШ-200-36	3СБШ-200-60 (3СБШ-200Н)
Dolota diametri, mm	160;171;215,9	215,9	215,9; 244,5
Skvajina chuqurligi, m,	40,5	36	60

OCHIQ KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYASI

Tik burg' ilashga yo'nalish, grad	0: 15: 30	0: 15: 30	0: 15: 30
Shtang uzunligi/to'xtovsiz uzatishga siljish, m	8,5; 9,2	9,6/1	12/1
O'qqa berilgan kuchlanish, kN,	235	300	300
Dolota aylanishlar chastotasi, s	0-2,0	0,25-0,25	0,2-2,16
Kompressorni uzatish, m ³ /s	0,416	0,417	0,417-0,53
Stanok massasi, t	50	66	65
Ko'rsatkichlar	СБШ-90/250-60МНА32	СБШ-250 МНА-32	СБШ-320-36
Dolota diametri, mm	190; 215,9; 244,5	244,5; 269,9	320
Skvajina chuqurligi, m,	52	32	36
Tik Burg' ilashga yo'nalish, grad	0; 15; 30; 35; 45	0; 15; 30	0
Shtang uzunligi/to'xtovsiz uzatishga siljish, m	8	8,2/8	17,5/17,5
O'qqa berilgan kuchlanish, kN,	300	300	600
Dolota aylanishlar chastotasi, s	0-2,5	0,2-0,25	0-2,1
Kompressorni uzatish, M ³ /c	0,53	0,417	0,834
Stanok massasi, t	80	71	140

Ikkinchi avlod dolotalarining ratsional qo'llash doirasi

13.3-Jadval

Doloto	Tog' jinsi	Mustahkamlik koyffitsienti	Dolota diametri, mm
M3	O'rtacha mustahkam va undan past tog' jinsini charxlovchanligi	6 gacha	190; 214; 243
C	Alevrolitlar, mergel, ko'mirsifat va loysifat slanes, ohaktosh va b.q.o'rtacha mustahkam.	6	190; 214
T	Kam abrazivli tog' jinslari: amfibolove slans, qattiq ohaktosh, bo'sh dolomitlar, fosfatli ma'danlar	6-8	145;190; 214; 243
TK	Kam abrazivli qattiq tog' jinslar bilan mustahkam qatlamlili tog' jinslari va ruda: ko'mir qatlamlili ohaktosh, dolomit qatlamlili kam kristalli ohaktosh va b.q.	8-10	190;214; 243
T3	Qayishqoq abrazivli qattiq qayishqoq va mustahkam mo'rt tog' jinslari hamda rudalar: kvarslangan dolomitlashtirilgan ohaktosh bilan qatlamlashgan yumshoq kvarsit, kvarsli slaneslar va b.q.	8-14	190; 214; 243
TK3	Takrorlanadigan abraziv qattiq qayishqoq va mustahkam mo'rt tog' jinslari va rudalar: kvarslangan dolomitlashtirilgan ohaktosh bilan qatlamlashgan yumshoq kvarsit, kvarsli slaneslar va b.q.	8-14	190; 214
K и OK	Abrazivli mustahkam mo'rt va juda mustahkam	12-14dan katta	145;190;2

	tog' jinslari hamda rudalar: granit, skarnlar, kvarsitlar, dioritlar, djespilitlar, mustahkam qumtosh va b.q.		14;269; 320
--	---	--	----------------

Uchinchi avlodli sharoshkali burg'ilash dolotasi rejimining talab etilgan parametrlari**13.4-Jadval**

Dolota diametri, mm	Burg'ilash trubasini tashqi diametri, mm	Dolota o'qiga berilgan kuchlanish, kN		Aylanish chastotasi, s ⁻¹		Produvka agentini sarfi	
		M, C, T,TK	M3,T3 K, OK	M,C, T, TK	M3, T3, K, OK	Siqilgan havo, m ³ /s	texnik suvlar, dm ³ /s
1	2	3	4	5	6	7	8
Podshipnikli dolota							
146	89-114	60-80	80-100	2,5-2,0	2-1	0,16-0,2	-
161	127	100-30	130-150	2,5-2,0	2-1	0,25	-
215, 9	180	140-180	160-200	2,5-1,3	2-0,83	0,42	<0,02
244,5	203	180-220	180-250	2,5-1,3	2-0,83	0,42-0,53	<0,03
269,9	219	200-270	250-300	2,5-1,3	2-0,83	0,6-0,7	<0,05
320	273	<350	<500	2,5-1,3	2-0,83	0,83-1,0	<0,06
Sirpanuvchi podshipnikli dolota							
1	2	3	4	5	6	7	8
76	63,5	<30	<40	<2,5	<2	0,15	<0,01
98,4	73	<40	<60	<2,5	<2	0,15	<0,02
112	89	<50	<80	2,5-1,7	2,5-1,0	0,15	<0,02
146	89-114	<80	<120	2,5-1,0	2,5-1,0	0,15	<0,03
161	127	120-140	130-150	2-1,0	1,7-1,0	0,25	<0,03
215,2	180	160-200	180-220	2-1,0	1,7-0,83	0,42	<0,05
244,5	203	200-250	220-270	2-1,0	1,7-0,83	0,42-0,53	<0,05
269,9	219	220-270	250-320	2-1,0	1,7-0,83	0,6-0,7	<0,06
320	<273	<400	500	2-1,0	1,7-0,83	0,8-1,0	<0,07

skvajinani havo suv yordamida tozalashda texnik suv sarfi joyga ega bo'ladi.

Eslatma: 1. Dolota o'qiga berilgan kuchlanish yuqorida chegarasi dolota aylanish chastotasi chegarasiga mos keladi.

2. Tog' jinslarining yemiruvchanligi va yoriqdorlik hususiyati oshishi bilan aylanish chastotasini pasaytirish tavsiya etiladi. Yuqori darajada mustahkam emiruvchanlik (VIII sinf yemiruvchanlik) yoki yoriqdorligi kuchli tog' jinslarida aylanish chastotasini 1 c^{-1} gacha kamaytirish tavsiya etiladi.

Skvajinani burg'ilash koeffitsieni (K_{pa3}).

13.5-Jadval

F	4	6	8-10	12-14	>
K_{pa3}	1,05	1,04	1,037-1,031	1,03-1,24	1,02

Sharoshkali burg'ilash uchun burg'ilash shtangining tashqi diametri o'chamlari (d_{tp}).

13.6-Jadval

d_{tp} , mm	161	190	214 (215,9)	243 (244,5)	269 (269,9)	320 (320)
D_{tp} , mm	130	152	180	203	219	275

Qo'shimcha burg'ilash koeffisienti qiymatlari

13.7-Jadval

Tog' jinsini yoriq dorlik kategoriysi	I	II	III	IV	V
Qo'shimcha burg'ilash koeffisienti	6÷8	8÷10	10÷12	12÷14	14÷16

Stanoklarning belgilangan yillik ishchi smenalar soni

13.8-Jadval

Burg'ilash diametri, mm	Ish davomida uzluksiz ishchi haftalar (smena)		Ish davomida uzlukli ishchi haftalar bir marta dam olish kuni bilan (smena)		Ish davomida ikki kun dam olish kuni bilan uzlukli ishchi haftalar (smena)	
	2	3	2	3	2	3
Shnekli burg'ilash						
1	2	3	4	5	6	7
125	555	815	470	700	390	575
160	690	770	455	655	370	545
Sharoshkali burg'ilash						
1	2	3	4	5	6	7
160, 200	505	705	430	600	350	495
250	500	695	435	595	350	490
320, 400	495	680	420	580	-	-
Zarb aylanma burg'ilash						
1	2	3	4	5	6	7
100, 125	545	795	465	680	385	560
160	540	790	465	675	-	555
200	500	700	425	600	-	495

Xizmat qilish muddatiga bog'liq holda burg'ilash stanoklarining ish unum dorligining pasayish koeffisienti.

13. 9-Jadval

Xizmat qilish muddati, yil	0-3	4	5 va >
----------------------------	-----	---	--------

Ish unumdorlikni pasayish koyffitsienti k_t	1,0	0,95	0,85
---	-----	------	------

1 m skvajinadan chiqadigan kon massasi hajmi
(taxminiy ko'rsatkichlar)

13.10-Jadval

Skvajina diametri (D_c), mm	110	160	200	250	320
1m skvajinadan chiqadigan kon massasi hajmi (V_{TM}), m^3/m	12-35	18-35	25-40	35-50	50-70

19-AMALIY ISH
MAVZU: PORTLATISH ISHLARINI TEXNOLOGIK O'LCHAMLARINI
HISOBLASH

Ishning maqsadi- burg'ilash portlatish ishlari parametrlarini aniqlash va hisoblashni o'rghanish.

$$B = 1,2 \quad \sqrt[3]{E_k} = 1,2 \quad \sqrt[3]{8} = 2,4 \text{ m.}$$

1. Ekskavator uchun kon massasining yirikligi bo'yicha zarur bo'lgan o'lchami:

$$d_{o'r} = \frac{B}{6,5} = \frac{2,4}{6,5} 0,37 \text{ m.}$$

2. Massivning zarur bo'lgan maydalanganlik darajasi:

$$n = \frac{d_{o.m.}}{d_{o'r}} = \frac{0,4}{0,37} = 1,08.$$

3. Tog' jinslari uchun dinamiklik koeffitsienti $k_D = 1,04$;

4. Zarur bo'lgan darajada maydalash uchun sarflanadigan solishtirma energiya:

$$F_{dr} = \frac{0,12 \cdot \sigma_{sj}^2 \cdot k_d^2}{2 \cdot E} \cdot \lg n = \frac{0,12 \cdot (495 \cdot 10^5)^2 \cdot 1,04^2}{2 \cdot 1,85 \cdot 10^{10}} \cdot \lg 1,08 = 287,28 \approx 287 \text{ Dj/m}^3$$

5. Texnologiya bo'yicha zarur bo'lgan portlatilgan kon massasi uyumini hosil qilish uchun sarflanadigan solishtirma energiya:

$$F_p = \left(\frac{v_0^2 \cdot p}{2} \right) \cdot \left[\lg k_p + \lg \frac{(c + h \cdot \operatorname{ctg} \alpha) \cdot (h \cdot k_p - h_p)}{2 \cdot h_p} \right];$$

bu yerda: V_o -portlash paytida kon massasining harakatlanishining boshlang'ich tezligi, ($V_o=10\text{m/s}$);

6. Texnologik shartlarni bajarish uchun zarur bo'lgan portlovchi moddaning solishtirma sarfi:

$$F_p = \left(\frac{10^2 \cdot 2660}{2} \right) \cdot \left[\lg 1,3 + \lg \frac{q = \frac{F_{dr} + F_r}{2 \cdot 12,5} \cdot [+15 \cdot \operatorname{ctg} 80^\circ] \cdot [5 \cdot 1,3 - 11]}{2 \cdot 12,5} \right] \approx 58520 \text{ Dj/m}^3.$$

Bu yerda: η – PM energiyasiini foydali qo'llanilish koeffitsienti, ($\eta=0,05$) PM turi - grammonit 50/50-V; F_{BB} -portlashning to'liq ishi ($F_{BB} = 3524000 \text{ Dj/kg}$);

$$q = \frac{287 + 58520}{0,05 \cdot 3524000} \approx 0,03 \text{ kg/m}^3.$$

W -asos bo'yicha qarshilik chizig'i, (m)

$$W = C + h \cdot \operatorname{ctg} \alpha = -5 + 15 \cdot \operatorname{ctg} 80^\circ = 7,6 \sim 8 \text{ m}$$

a – skvajinalar orasidagi masofa, (m)

$$\alpha = W \cdot 0,85 = 8 \cdot 0,85 = 6,8 \sim 7 \text{ m}$$

v – qatorlar orasidagi masofa (m)

$$b = W = 8 \text{ m}$$

7. Perebur uzunligi

$$l_n = 0,5 \cdot q \cdot W = 0,5 \cdot 0,03 \cdot 8 = 0,12 \text{ m}$$

8. Skvajina uzunligi

$$l_{skv} = h + l_n = 15 + 0,12 = 15,12m$$

9. Zaboykaning minimal o'lchami:

$$l_z = l_n = 0,12m$$

10. Zaryadning maksimal uzunligi

$$l_{zar} = l_{skv} - l_z = 15,12 + 0,12 = 15m$$

11. Skvajinadagi zaryad massasi:

$$P = a \cdot W \cdot h \cdot q = 7 \cdot 8 \cdot 15 \cdot 0,03 = 25,2 \approx 25\text{kg}.$$

12. Zaryad diametri (m):

$$d_z = 2 \cdot \sqrt{\frac{P}{\pi \cdot l_{zar} \cdot \Delta}};$$

Bu erda: Δ - zaryadlash zichligi ($\Delta=930 \text{ kg/m}^3$);

$$d_z = 2 \cdot \sqrt{\frac{25}{3,14 \cdot 15 \cdot 930}} \approx 0,024m.$$

13. Skvajina diametri

$$d_{skv} \geq d_z \quad d_{skv} = 0,2m$$

SBSH-200 burg'ilash stanogini tanlaymiz.

14. Zaryadning minimal uzunligi (m)

$$l_{zar} = \frac{P}{e};$$

Bu yerda: ye – 1 m skvajinaning sig'imi (kg/m)

$$e = \frac{\pi \cdot d_{skv}^2 \cdot \Delta \cdot \alpha}{4};$$

Bu yerda: α – to'lish koeffitsienti ($\alpha=1$) ;

$$e = \frac{3,14 \cdot 0,2^2 \cdot 930 \cdot 1}{4} = 29,2 \text{ kg/m}$$

$$l_{zar}' = \frac{25}{29,2} \approx 0,86m.$$

$$l_{zar}' \leq l_{zar} \quad 0,86m < 15m$$

15. Quyi zaryad (asosiy) uzunligi:

$$l_{n.z.} = 1,2 \cdot W = 1,2 \cdot 8 = 9,6m.$$

16. Havo bo'shlig'i oralig'i masofasi:

$$l_{v.pr.} = l_{zar} - \frac{4 \cdot P}{\pi \cdot d_{skv}^2 \cdot \Delta \cdot \alpha} = 0,86 - \frac{4 \cdot 25}{3,14 \cdot 0,2^2 \cdot 930 \cdot 1} = 0,01m.$$

$d_{skv} = d_z$ bo'lganligi uchun, to'liq zaryad bo'ladi.

17. Portlatiladigan blok hajmi:

$$V_{bl} = 15 \cdot Q_{sut} = 15 \cdot 12330 = 184950m^3.$$

18. Bir qatorli qilib portlatishda portlatilgan kon massasi uyumi kengligi:

$$R = \frac{2 \cdot (h + h \cdot ctg \alpha) \cdot (k_p - h_p)}{h_p} = \frac{2 \cdot (h + 15 \cdot ctg 80^0) \cdot (5 \cdot 1,3 - 12,5)}{12,5} = 8,6 \approx 9m.$$

19. Portlatilgan kon massasi uyumidagi ekskavator zaxodkasining sonidan kelib chiqgan holda, butunlik bo'yicha portlatiladigan blok kengligi:

$$A = 1,5 \cdot R_{ch.u.} \cdot n' - R = 1,5 \cdot 11,9 \cdot 4 - 9 = 62,4 \approx 62 \text{ m.}$$

20. Skvajina qatorlari soni:

a) Ekskavatorlarning zaboydag'i ishining texnologik sharoitidan kelib chiqgan holda:

$$n = \frac{1,5 \cdot R_{ch.u.} \cdot n' - W - R}{b} + 1 = \frac{1,5 \cdot 11,9 \cdot 4 - 8 - 9}{8} + 1 = 7,8 \approx 8 \text{ qator.}$$

b) Texnika xavfsizligi shartidan kelib chiqgan holda ag'darma kengligi ekskavatorning maksimal Cho'michlash balandligidan oshmasligi lozim, ya'ni $h_{r.\max.} = 1,5 \cdot N_{ch.\max}$ birinchi qatordagi uyum balandligida $h = N_{ch.\max}$.

$$n = \frac{0,5 \cdot H_{ch.\max} \cdot b}{h \cdot \left(\frac{b}{p} - 1 \right)} - \frac{b^2}{b + W} - 2 = \frac{0,5 \cdot 12,5 \cdot 8}{1,5 \cdot \left(\frac{8}{3} - 1 \right)} - \frac{8^2}{8 + 8} - 2 = 5,1 \approx 5 \text{ qator}$$

Minimal kattalikni qabul qilamiz $n = 5$ qatorlar.

Ekskavator zaboyi parametrlarini qayta ko'rib chiqish lozim.

Butunlik bo'yicha zaboy kengligi:

$$A = b \cdot (n-1) + W = 8 \cdot (5-1) + 8 = 40 \text{ m.}$$

21. Uyumda ekskavator zaxodkalarining soni:

$$n' = \frac{A + R}{1,5 \cdot R_{ch.u.}} = \frac{40 + 9}{1,5 \cdot 11,9} = 2,7$$

$n' = 3$ qabul qilamiz.

22. Portlatiladigan blok uzunligi:

$$L_{bl} = \frac{V_{bl}}{h \cdot A} = \frac{184950}{15 \cdot 40} = 308 \text{ m}$$

23. Portlatiladigan blokdagi skvajinalar soni:

$$n_{skv} = \frac{A \cdot L_{bl}}{a \cdot b} = \frac{40 \cdot 308}{7 \cdot 8} = 220 \text{ ta}$$

24. Blokdagi burg'ilanadigan skvajinalar soni:

$$n_{skv} = \frac{A \cdot L_{bl}}{a \cdot b} = \frac{40 \cdot 308}{7 \cdot 8} = 220 \text{ ta}$$

25. Blokda burg'ilanadigan skvajinalarning umumiyligi uzunligi:

$$L_{skv} = l_{skv} \cdot n_{skv} = 15,12 \cdot 220 = 3326 \text{ m}$$

26. Blokni burg'ilash vaqtisi:

$$t_{bur} = \frac{L_{skv}}{P_{b.st.}};$$

Bu yerda: $P_{b.st.} = 3\text{SBSh}-200$ burg'ilash stanogining texnik unumdorligi ($P_{b.st.} = 23 \text{ m/s}$).

$$t_{bur} = \frac{3326}{23} \approx 144,6 \text{ soat} \approx 6 \text{ sutka.}$$


27. Blokni yumshatish uchun kerak bo'ladiyan PM miqdori:

$$P_{BB} = q \cdot V_{bl} = 0,03 \cdot 184950 = 5548,5 \text{ kg} \approx 5,5 \text{ tonna.}$$

28. Xavfsiz bo'lgan qo'riqlanadigan obyektga seysmik ta'sir bo'yicha, ommaviy portlatishdagi seriyalar soni:


$$N = \frac{29^3 \cdot P_{BB}}{L^3} = \frac{29^3 \cdot 5548}{1000^3} = 0,14$$

Burg'ilash portlatish ishlari parametrlarining hisoblash natijalari 14.1-rasmida keltirilgan.




14.1.-rasm. Burg'ilash portlatish ishlari pasporti.

Расположение взрывных скважин




Сетка скважин



Конструкция сплошного заряда



Порядковая схема взрываания зарядов



karyerda kon ishlari texnologik jarayonlarining parametrlarini hisoblash

20-AMALIY ISH

MAVZU:QAZISH-YUKLASH JARAYONLARINING PARAMETRLARINI HISOBLASH.

Ishning maqsadi- qazish yuklash jarayonlarining parametrlarini aniqlash va hisoblashni o'rganish.

Karyerda kon ishlarining ishlab chiqarish jarayonlari quyidagilardan iborat: tog' jinslarini qazishga tayyorlash, qazish-yuklash ishlari, kon massasini tashish, ag'darma hosil qilish.

Yuqorida sanab o'tilgan jarayonlarni parametrlarini umumiy hisoblashni ko'rib o'tamiz:

I. Berilganlar:

- texnologik oqim nomi ochuvchi;
 - tog' jinsi nomi va xususiyati: qum;
 - siqilishga chidamlilik chegarasi: $\sigma_{sj}=495*10^5$ Pa;
 - tog' jinsi zichligi: $r=2660$ kg/m³;
 - tog' jinsining yoriqliligi: $d_{o.m.}=0,4$ m;
 - elastiklik moduli: $E=1,85*10^{10}$ Pa;
 - qazib yuklovchi uskuna turi; EKG-8I;
 - transport turi: avtomobil.
 - yuk oqimi uzunligi: $L_{Tд}=2$ km.

II. Qazish – yuklash jarayoni parametrlarini hisoblash va zaboyning pasportini tuzish.

1. EKG parametrlari:

- Cho'mich hajmi: $E=8m^3$;
 - ekskavator turgan darajadan
Cho'michlash radiusi $R_{ch.u.}=11,9\text{ m}$;
 - maksimal Cho'michlash radiusi: $R_{ch.max}=18,2\text{ m}$;
 - maksimal Cho'michlash balandligi: $N_{ch.max.}=12,5\text{ m}$;
 - maksimal yuklash radiusi: $R_{p.max.}=16,3\text{ m}$;
 - ish sikli davomiyligi: $t_s=28\text{ s}$.

2. Bir kovshli EKG-8 ekskavatorning ish unumдорлиги:

$$Q_{tt} = E_k \cdot v$$

2.1. Nazariy ish unumdorligi (m^3/s):

$$v = \frac{3600}{t_u} = \frac{3600}{28} = 128,5^{-1} s;$$

$$Q_{tt} = 8 \cdot 128,5 = 1028 \text{ m}^3/\text{s.}$$

2.2. Texnik ish unumdarligi (m^3 ,s):

$$Q_t = Q_{tt} \cdot k_3 = Q_{tt} \cdot \left(\frac{k_u}{k_p} \right);$$

Bu yerda:

k_e – ekskavasiyalash koefitsienti;

k_n – mexaniq kurak yordamida Cho'michni to'ldirish koefitsienti ($k_n=1$)

k_r – Cho'michdagi tog' jinsining yumshatilganlik koefitsienti, ($k_r=1,4$)

$$Q_t = 1028 \cdot \left(\frac{1}{1,4} \right) = 734,2 \approx 734 \text{ m}^3 / u.$$

2.3. Smenadagi ekspluatatsion ish unumdorligi, (m^3 , smena):

$$Q_{cm} = Q_t \cdot T \cdot k_u;$$

Bu yerda:

T – smena davomiyligi ($T=8$ s);

k_i – smena davomida ekskavatoridan foydalanish koefitsienti ($k_i=0,7$);

$$Q_{cm} 734 \cdot 8 \cdot 0,7 = 4110,4 \approx 4110 \text{ m}^3 / \text{смены}.$$

2.4. Sutkadagi ekspluatasion ish unumdorligi, (m^3 , sutka):

$$Q_{cym} = Q_{cm} \cdot n;$$

bu yerda: n – sutkadagi smenalar soni, ($n=3$);

$$Q_{cym} = 4110 \cdot 3 = 12330 \text{ m}^3 / \text{сутка}.$$

2.5. Yillik ekspluatasion ish unumdorligi, (m^3 , yil):

$$Q_e = Q_{cym} \cdot N;$$

bu yerda: N – reja bo'yicha remont ishlarini hisobga olingan holda ekskavatorning bir yildagi ish kunlari soni, ($N=305$ kun);

$$Q_e = 12330 \cdot 305 = 3760650 \approx 3,76 \text{ млн.м}^3 / \text{год.}$$

3. Zaboyning texnik parametrlari:

Pog'ona balandligi:

$h=15\text{m};$

Pog'ona qiyalik burchagi:

$\alpha=80^\circ;$

Yuqori brovkadan xavfsizlik masofasi:

$S=5\text{m};$

Portlatilgan kon uyumidagi tog' jinsining

maydalanganlik koefitsienti: $k_p=1,3$;

Portlatilgan kon uyumidagi ekskavator


zaxodkalari soni: $n^1=4$;

Ommaviy portlatishlar

paytida qo'riqlanadigan obyektgacha bo'lган

xavfsizlik masofasi: $L=1000\text{m}$.

Qazish – yuklash jarayoni paramterlarini hisoblash natijalari 15.1-rasmida berilgan.



15.1.-rasm. Mexaniq kurak zaboyi.

21-AMALIY ISH
MAVZU: YUK OQIMINING TRANSPORT KOMMUNIKASIYALARI
PARAMETRLARINI HISOBBLASH.

Ishning maqsadi- yuk oqimining transport kommunikasiyalari parametrlarini aniqlash va hisoblashni o'rganish.

1. Tashiladigan tog' jinsining to'kma zichligi (t/m^3)

$$\gamma = \frac{\rho}{k_p} = \frac{2,66}{1,4} \approx 1,9 t/m^3.$$

2. BelAZ-540A ni qabul qilamiz.

3. BelAZ-540A ning parametrlari:

Kuzov sig'imi: $q=27 t$;

Asosiy parametrlari:

Uzunligi: $L_m=7350 \text{ mm}$;

Kengligi: $b=3480 \text{ mm}$;

Balandligi: $N_k=4500 \text{ mm}$.

4. Avtomobilning o'rtacha haraktlanish tezligi:

$$V_{o'r} = 25 km/soat.$$

5. Reys davomiyligi (s):

$$T = t_n + t_p + \frac{2 \cdot L_{tash}}{V_{o'r}} + t_m;$$

Bu yerda: t_n – bitta avtosamosvalni ekskavator yordamida yuklash vaqt (s);

$$t_n = \frac{V_k}{Q_t} = \frac{15}{734} \approx 0,02 \text{ soat}.$$

t_r – avtosamosvalni bo'shatish vaqt ($t_r = 0,017 \text{ s}$);

t_m – bo'shatish punkti va zaboyda manevrlar uchun sarflanadigan vaqt ($t_m = 0,017$);

$$T = 0,02 + 0,017 + \frac{2 \cdot 2}{25} + 0,017 \approx 0,21 \text{ soat}.$$

6. Avtosamosvalning texnik ish unumdorligi (t/s):

$$Q_t = q \cdot n_p \cdot k_e;$$

Bu yerda: n – bir soatdagi reyslar soni

$$n_p = \frac{1}{T} = \frac{1}{0,21} \approx 4,8.$$

k_g – yuk ko'tarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti ($k_g = 0,95$);

$$Q_t = 27 \cdot 4,8 \cdot 0,95 = 123,12 \approx 123 t/soat.$$

7. Avtosamosvalning ekspluatatsion ish unumdorligi (t/sm):

$$Q_{sm} = Q_t \cdot T \cdot k_u;$$

Bu yerda: k_i – smena davomida avtosamosvaldan foydalanish koeffitsienti, ($k_i = 0,7$);

$$Q_{sm} = 123 \cdot 8 \cdot 0,7 = 688,8 \approx 689 \text{ t/sm};$$

8. Avtosamosvalning yillik ish unumdarligi (t/yil);

$$Q_{yil} = Q_{sm} \cdot N \cdot k_{t,g};$$

Bu yerda: $k_{t,g}$ – ekspluatatsiya paytida sutkalik ish rejimiga texnik tayyorgarlik koeffitsienti ($k_{t,g} = 0,9$);

$$Q_{yil} = 689 \cdot 305 \cdot 0,9 = 189130 \text{ t/yil}.$$

9. Bitta ekskavatorga xizmat qilish uchun kerak bo'lgan avtosamosvallar soni:

$$N = \frac{T}{t_p} = \frac{0,21}{0,02} \approx 10,5$$

$N=11$ deb qabul qilamiz.

10. Avtosamosvallarning ishchi parki:

$$N = \frac{W_{g.o.} \cdot k_n}{Q_{sm} \cdot n};$$

Bu yerda: $W_{g.o.}$ – karyerda sutkadagi yuk oqimi (t/sut);

$$W_{g.o.} = Q_{sm} \cdot n \cdot \gamma \cdot n_{eks};$$

Bu yerda: n_{eks} – karyerdagi ekskavatorlar soni ($n_{eks} = 1$);

$$W_{g.o.} = 4110 \cdot 3 \cdot 1,9 \cdot 1 = 22194 \text{ t/sut}.$$

k_n – transportni ishlash koeffitsienti ($k_n = 1,1$);

$$N_p = \frac{22194 \cdot 1,1}{689 \cdot 3} \approx 12$$

$N_r = 12$ deb qabul qilamiz.

11. Avtosamosvalning inventar parki:

$$N_u = \frac{N_p}{k_T};$$

Bu yerda: k_t – avtoparkning texnik tayyorgarlik koeffitsienti ($k_t = 0,9$)

$$N_u = \frac{12}{0,9} = 13,3$$

12. Bitta yo'nalish (reys) bo'yicha avtomobil yo'lining o'tkazish qobiliyati:

$$\Pi = \frac{1000 \cdot V_{o'r}}{k_D \cdot S};$$

Bu yerda: k_D – harakatning notenglik koeffitsienti ($k_D = 1,5$)

S – avtosamosvallar orasidagi masofa (m)

$$S = 0,278 \cdot V_{o'r} \cdot t_{reak} + \frac{3,9 \cdot (1-\gamma) \cdot V_{sr}^2}{4000 \cdot \Psi_t + \omega_o - i} + L_m;$$

Bu yerda: t_{reak} – haydovchining moslashish (reaktsiya) vaqt va tormozdan harakatga keltirish vaqt ($t_{reak} = 1,5$ sek) γ – avtomobil massasini aylanishdagi inertsiyasini hisobga oluvchi koeffitsient ($\gamma = 0,02$)

ω_o – avtomobil harakatiga asosiy solishtirma qarshilik, ($\omega_o = 60 \text{ N/kN}$)

Ψ_t – tormozlanganda g'ildirakni yo'l bilan ilashish koeffitsienti ($\Psi_t = 0,25$)

i-avtomobil yo'li qiyaligi ($i=60\%$).

$$S = 0,278 \cdot 25 \cdot 1,5 + \frac{3,9 \cdot (-0,02) \cdot 25^2}{1000 \cdot 0,25 + 60 - 60} + 7,3 \approx 27 \text{ m};$$

$$\Pi = \frac{1000 \cdot 25}{1,5 \cdot 27} \approx 618 \text{ reys}$$

13. Yo'lning o'tkazish qobiliyati (t/sutka);

$$M_{pr} = \frac{P_{o.y.} \cdot q}{f_p};$$

Bu yerda: f_p – o'tkazish qobidiyatining rezerv koeffitsienti ($f_p=2$)

$P_{o.u.}$ – yo'lning chegaralovchi uchastkasini o'tkazish qobiliyati (avtomobil/sutka)

$$P_{o.y.} = P \cdot T \cdot n = 618 \cdot 8 \cdot 3 = 14832 \text{ avtomobil / sut.}$$

$$M_{pr} = \frac{14832 \cdot 27}{2} = 200232 \text{ t / sut.}$$


14. Ikki yoqlama harakatlanishda qatnov qismining kengligi (m) (13.1.-rasm)

$$B = 2 \cdot b \cdot k \cdot v + G;$$

Bu yerda: $k \cdot v$ – bir biriga duch keluvchi avtosamosvallarning harakatlanishining yig'indi tezligini hisobga oluvchi koeffitsient ($k \cdot v = 1,75$);

G – avtomobil gabaritini hisobga oluvchi kattalik, ($G=1$)


$$B = 2 \cdot 3,48 \cdot 1,75 + 1 \approx 14 \text{ m.}$$



16.1.-rasm. Pog'onadagi avtomobil yo'li profili.

1 – transport yo'lagi;

2. – himoya vali.



**2-расм. Технологик казиб олувчи юк окимининг
схемаси.**

22-AMALIY ISH**MAVZU:AVTOMOBIL TRANSPORTI SERPANTINASINI HISOBBLASH VA GRAFIK TASVIRLASH**

Ishdan maqsad: avtoyo'llar kategoriyasini bilish va avtosamosvallarning terxnik xarakteristikalarini o'rganish.

1. Nazariy qism.

Yo'llarda egrilikning mavjudligi unda harakatlanish sharoitlarini yomonlashtiradi (tezlikning pasayishi, mustahkamlik, ko'rinish), iloji boricha bu egriliklarni yo'qotish yoki kattaroq egrilik radiusini qabul qilish kerak (7.1-jadval). Doimiy yo'llardagi ravon harakatni ta'minlash uchun egriliklar yo'q qilinadi. Vaqtinchalik yo'llarda esa egriliklar bartaraf qilinmaydi.

Gorizontal yo'llarning egrilik radiusi**17.1-jadval**

Ko'rsatkichlar	Harakatning hisoblangan tezligi, km/s			
	50	40	30	15-20
Gorizontal yo'lning minimal egrilik radiusi, m	100	60	30	15
Gorizontal yo'l egriligining eng kam radiusi, m	200	100	60	30

Ikki tomonlama ko'rinishi uchun avtoyo'llarning 90^0 ga yaqin burchakda kesishishi va bitishuvi.bunda kesishadigan yo'llarning yondan ko'rinishi 50 m dan kam bo'lmasligi kerak, siqlgan sharoitda esa 20 m dank am bo'lmasligi kerak.avtomobil yo'llari va temiryo'llarning kesishishida temiryo'lning ko'rinish masofasi 400 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Trassa o'qi bo'yicha vertikal qirqim hisoblanuvchi *yo'lning bo'ylama profili* hisoblangan tezlikda ravon harakatlanishni ta'minlaydi. Profilning bunday o'zgargan joylari uchun uzunligi 10 m dan kichik bo'limgan vertical egriliklar biriktiriladi. Qavariq egrilik radiusi hisoblangan ko'rinish masifasini ta'minlashi kerak, botiq egrilik radiusi esa ressor og'rligining ruxsat etilgan maksimal markazga intilma kuchini ta'minlashi kerak (17.2-jadval).

17.2-jadval**Vertikal egrilik radiusi va avtomobil yo'llarining hisoblangan ko'rinish masofalari**

Ko'rsatkichlar	Harakat tezligi, km/soat			
	50	40	30	20
vertikal egrilik radiusining minimal qiymati, m: qavariq botiq	700 300	500 200	300 100	200 50
Hisoblangan ko'rinish masofasi , m: Yo'llar yuzalari Avtomobillar	60 125	50 100	40 80	30 60

2. Ishni bajarish tartibi


Berilgan: II kategoriyali avtomobil yo'li; aylanish burchagi $\alpha = 30^\circ$; egrilikning ulanish burilish burchagi $\beta = 55^\circ$.

Yechilishi:

Plandagi aylanmaning uzunligi quyidagicha aniqlanadi:

$$L_c = \frac{2\pi R_1 \beta}{90} + \frac{\pi R_2 \alpha}{90} + 2m, \text{ m.}$$

Bu yerda R_1 - aylanma egrilik radiusi, u avtosamosval harakatining tezligiga bog'liq. II kategoriyali yo'llar uchun harakat tezligi tekis yo'llar uchun – 40 km/soat, egi yo'llar uchun – 25 km/soat. Minimal radius 30m; tavsiya qilingan 60m. $R_1 = 30$ m.



17.1.-rasm. Aylanmaning plandagi sxemasi

R_2 – asosiy egrilik radiusi analogik ravishda tanlanadi, lekin uning jadvalda berilgan qiymati hisobga olingan holda $R_2=60$ м; β – aylanmaning egrilik burchagi (topshiriq bo'yicha 55°); α – asosiy egrilik radiusi (30° topshiriq bo'yicha); m – to'g'ri chiziqli qo'yilmalar uzunligi. Gidrokuchlanishli rul bilan boshqariladigan avtosamosvallar uchun $m=1\div 2$ avtosamosval uzunligi, mexanik rul bilan boshqariladigan avtosamosvallar uchun $m=3\div 5$ avtosamosval uzunligi. БелАЗ-549 tipli avtosamosval uchun $m=19$ м.

U holda

$$L_c = \frac{2 * 3,14 * 30 * 50}{90} + \frac{3,14 * 60 * 30}{90} + 2 * 19 = 216, \text{ м.}$$

1-topshiriq. II kategoriyali avtomobil yo'li; aylanish burchagi $\alpha = 37^\circ$; egrilikning ulanish burilish burchagi $\beta = 65^\circ$. БелАЗ 549 uchun aylanmaning uzunligini aniqlash.

2-topshiriq. II kategoriyali avtomobil yo'li; aylanish burchagi $\alpha = 35^\circ$; egrilikning ulanish burilish burchagi $\beta = 64^\circ$. TEREX-100 uchun aylanmaning uzunligini aniqlash.

3-topshiriq. II kategoriyali avtomobil yo'li; aylanish burchagi $\alpha = 36^\circ$; egrilikning ulanish burilish burchagi $\beta = 67^\circ$. CAT 790 uchun aylanmaning uzunligini aniqlash.

4-topshiriq. II kategoriyali avtomobil yo'li; aylanish burchagi $\alpha = 35^\circ$; egrilikning ulanish burilish burchagi $\beta = 63^\circ$. CAT 765 uchun aylanmaning uzunligini aniqlash.

5-topshiriq. II kategoriyali avtomobil yo'li; aylanish burchagi $\alpha = 38^\circ$; egrilikning ulanish burilish burchagi $\beta = 66^\circ$. CAT 785 uchun aylanmaning uzunligini aniqlash.

23-AMALIY ISH**МАВЗУ: ТЕМИР ЙУЛ ТРАНСПОРТИНИНГ КҮТАРИЛМА БОШҚАРУВИНИ
ТЕХНОЛОГИК КАТТАЛИКЛАРИНИ ХИСОБЛАШ.**

Мустақил юк оқимида хар бир мустақил трассаларни күтарилима бошқарувини ўлчами бошқа трассалар ўлчамларидан ажралиб туради. Бөглиқ ва ўта қаттиқ бөглиқ юк оқимида техник транспорт ускуналарини даврий ва доимий қайта тақсимлашда барча таъсир этувчи трассалар учун бир хилда күтарилима бошқарувни қабул қилиш юк оқимида мақсадга мувофиқлиги олдиндан белгилаб қуийлган.

Капитал траншеяни күтарилима бошқарувини технологик ўлчамларини қийматлари ва уни хисоблашда назарий асослари темир йул транспортига мос равишда проф. Е.Ф. Шешко меңнатлари ёрдамида ишлаб чиқилган.

Хаммага маълумки, карьер йулларида хар қайси перегон орқали бир вақтни ичидаги турли сондаги вагон таркибли поездлар ўтади. Айниқса траншеяли ва магистрал йўлларни юкландиган перегони асосан чегаралангандан перегон хисобланади.

Исталган перегонда исталган вақт мобайнида фақатгина битта локомотивосостав жойлашган бўлиши мумкин. Шунда бита поезднинг фойдали оғирлиги q -юк күтариш қобилиятига эга, n -та вагондан иборат хар бири юк айланмасига мос келиши шарт, мавжуд трассага тегишли бўлган бита йулда t_u – вақт интервали ичидаги иккита кўшни бўлган юкли поездлар ўтиш йўли орасида:

$$\frac{1}{c} W_u * t_u = n * q, \quad (1)$$

Бу ерда ρ – чегаралангандан перегондаги йуллар сони; W_u – транспорт ишининг тенгизлигини хисобга олган холда мавжуд трассадаги юк айланмаси, т/ч.

Кўриб чиқилаётган трассанинг бизга маълум бўлган күтарилима бошқаруви юк ташишга бўлган M_q қобилияти мавжуд юк оқимида тегишли бита йулга мос келиши керак :

$$M_q = \frac{1}{\rho} W_u, \text{ т/ч.} \quad (2)$$

(2) шарт (1) шартни хисобга олган холда тенгизлик ифодали бўлиши мумкин, перегон i_p ни күтарилима бошқаруви билан локомотив Н ни тортувчи кучи F_k , ўлчамлари орасидаги бөглиқлик, уни массаси P_p ва поезднинг уланадиган қисми $n * q * K_e$, т:

$$i_p + 0,1 * \omega_0 = K_\omega * i_p = \frac{0,1 * F_k}{P_p + n * q * K_e} = \frac{0,1 * F_k}{P_p + M_q * t_u * K_e}, \text{ H/t.} \quad (3)$$

бу ерда ω_0 – поезд ҳаракатининг асосий қаршилиги, Н/т; K_ω – поезд ҳаракатига булган хисобга олинган асосий қаршилик коэффициенти, ($K_\omega = 1,1 \div 1,2$); K_e – идиш (тара) оғирлигини хисобга олган холда поезд вагонини умумий массаси коэффициенти ($K_e = 1 + D''_T$); K_T – вагон тараси коэффициенти.

(3) формула күтарилима бошқарувини ўлчамларини аниқлаш учун якка мезонни ташкил қиласди. У факторлар орасидаги бөглиқликни курсатади, карьер ускуналарини ишлаш режимини технологик характеристлаш ва очувчи лахимларни асосий параметрлари i_p билан локомотив массаси хамда куввати, поезд массаси, вагон параметрлари ва поездлар алмашиниш шароитларига бөғлаб туради. Ускуналардан унумли фойдаланиш учун факторларни мос келиши ҳар бир мавжуд вақт ичидаги кўрсатилган узвий бөғланишини таъминлаши зарур.

(3) формула ичидан ҳар бир фактор қийматини кўриб чиқамиз.

1. Проф. Е.Ф.Шешко томонидан олиб борган технико-экономик анализ, шуни кўрсатадики, иқтисодий натижалар, яъни 20 дан 40% гача бўлган диапазонда қияликларни i_p кўллашда(ускуналарни тўғри танлаш шароитига кўра) тенг қимматли миқдорга яқинроқ. Шунинг учун транспорт схемасини технологик баҳолашда бошланғич эътибор күтарилима бошқарув ўлчамлари сон миқдорини аниқламасликга тегишлилигини ажратиб беради, карьерда ва агдармаларда темир йулни ривожланишини рационал схемасини танлайди, шу билан бирга кувватни урнатишида, кон ва транспорт ускуналарини бир бирига бөглиқ равишда урнатиши ва уларнинг сони, хар бир кон ишлари этапида самарали техник-иктисодий натижаларни олишга йул беради.

2. Маълум булган календар режадаги кон ишлари ривожланишини технологик режим анализи барча этапларда хар бир юқ оқими учун бажарилиши зарур, юқ айланмасида W_u берилган аникликни характерлайди ва транспорт коммуникациясини M_q юқ ташишга булган кобилиятини (3) формула буйича кабул киласиз.

3. Локомотивларни куввати ва массаси ташиш технологияси анализига биноан аник кийматлар P_p ва F_K билан ёнма ён лимитланади, шундай килиб ишлаб чикариш саноати аникланган электровоз, тепловоз хамда тортувчи агрегатлари моделларини сонини ишлаб чикади.

4. Вагонни умумий мавжуд массаси коэффициенти K_e портлатилган кояли тог жинслар учун 1,63 га ва юмшатилган тог жинслар учун 2,1 га ўзгаради.

5. Хар бир юқ оқими W_u учун соат юқ айланмасини хисоблаш кон ишлари режасида аникланади. Бироқ мавжуд трассани аник юқ ташиш кобилияти M_q йуллар ρ сонига боғлиқдир. Юқ айланмасида хар соатида 2÷3 минг тоннагача бир томонлама йулли перегонлар асосан етарли, катта юқ айланмасида икки томонлама йуллар зарурдир. Карьерларда уч турт йулли трассалардан унумли фойдаланишни амалий имкони йўқ.

6. Карьер экскаваторларининг хилма хиллиги уларни моделини танлаш имконини беради, ижобий тарзда табий шароит ва карьер юқ айланмасига мос келади. Битта ва мавжуд юқ айланмаси учун (карьерни маълум ишлаб чиқариш қуввати) талаб этилган экскаваторлар сони мавжуд қуввати турли хил бўлиши мумкин. У асосан забойларда транспортларни хизматини ташкил этиш шароитига муҳим тарзда боғлиқ; алоҳида трассаларга хизмат қилувчи хар бир поғоналар гурухлари учун кўрсаткич хисобланади, забойларни юксиз η_0 транспортлар билан таъминлаш учун улчамлар коэффициенти хизмат қилади.

7. η_0 ни оптималь ўлчамгача ўсиши ускуналарни ишлаб чиқаришини катта захирадаги ўсиши саналади ва забойларда хамда бўшатиш участкаларида алмашувчи пунктлар яқинлиги хисобига етиб боради.

8. Ташиш режимини муҳим характеристи вақт t_u интервали натижасида юкли поездларнинг утиши, яъни капитал траншеяни битта йулига тегишли хисобланади. Бу интервал поезд массасига ва юқ оқими ўлчамларига боғлиқ.

Йирик карьерларда капитал траншея трассасини хисобланган ўтказиш қобилияти тўлиқ фойдаланилади, боғлиқ холда, поездлар орасидаги интервали техник шароит натижасида $t_{u,min}$ катталиқ минималга етади. Бу интервал карьердан мавжуд транспортни чиқиши учун хизмат қилувчи ЭТОТ интервал лимитириует число экскаваторов, обслуживаемых данным транспортным выходом из карьера:

$$N_{\vartheta,max} \leq \frac{I}{t_{u,min}} \quad (4)$$

бу ерда I –поғонадан юкли поездларнинг чиқиши орасидаги интервал, с. Поғонадаги битта экскаваторни ишида $I = t_n + t_o$, где t_n и t_o – мос равища юклаш вақти ва поездларни алмасиши, с. Бир қанча экскаваторларни ишланида I - катталиқ поездларни характеристикини графикни бўйича аникланади.

Унча катта бўлмаган карьерларда (икки-учта поғонанинг хар бирига битта экскаватор) траншея йулини ўтказиш қобилияти кўпинча ишлатиб бўлмайди. На небольших карьерах (два-три уступа с одним экскаватором на каждом) пропускная способность траншейных трасс часто недоиспользуется. Аник холатларда характеристикинг ўртача интервали хозирги холларда минималга оширилиши лозим ва иш давомида локомотивосоставни умумий сонига $N_{\vartheta,c}$ ва рейс давомийлигига T_p , соат боғлиқ:

$$t_u = \frac{T_p}{N_{\vartheta,c}}, \text{ ч.} \quad (5)$$

Худди шундай интервал билан бир йўлли трассаларда бўш поездлар келади. Хар қайси экскаваторда уларни сонига N_{ϑ} қараб, поездлар t вақт оралиғида кириб келади. Шу даврда экскаватор олдидаги поездлар алмашинуви ва юклаш ишлари тутатилиши лозим.

$$t_u N_{\vartheta} = t_n + t_o = \frac{n^* q}{Q_{\vartheta,m}} + t_o, \text{ ч} \quad (6)$$

ёки

$$\frac{T_p}{N_{л.с}} = \frac{n^* q}{Q_{э.м}} + t_o, \text{ ч} \quad (7)$$

бу ерда $Q_{э.т}$ – экскаваторни техник иш унумдорлиги, т/соат.

(6) тенгликни кузатганимизда t_0 рационал қийматни ўрнатиш йўли билан ва алмашиш пунктини тўғри жойлаштириш талаб этилган аниқ технологик жараённи таъминлаб беради. (7) ифода асосида боғлаш зарур (кон ва транспорт ускуналаридан тўлиқ фойдаланиш учун) экскаватор ва локомотивосостав паркини иш миқдори ва поезд рейсининг давомийлиги билан, уни фойдали массаси ва забойларни бўшашини таъминлаш коэффициенти, кон ишлари босқичи учун даврий ишлаб чиқарилиши лозим, ўзининг юк айланишини характерлайди.

Юк айланишини каттариши ва карьер чуқурлиги кон ишлари ривожланиши орасида рейс узайишига олиб келади яъни трассани мураккаб тузилиши ва ташиш масофаси катталигига боғлиқ раишда амалга оширилади, лекин силжийдигон составдан фойдаланиш кўрсаткичини ёмонлаштиради (табл. 1).

Жадвал 18

